

N. ISMATOVA, O. KARIMOVA

# **DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI**

*O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi  
va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari  
uchun darslik*

*1-nashr*

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan*

Toshkent  
«Yangiyul Poligraph Service»  
2018

UO'K: 340.12(575.1)(075.3)

KBK: 67.0(5O')

D 14 Ismatova, Nargiza.

Davlat va huquq asoslari: O'rta ta'lif muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik / N. Ismatova, O. Karimova.

– Birinchi nashr. – Toshkent.: Yangiyul Poligraph Service, 2018. – 144 b.

**ISBN 978-9943-5245-7-6**

**UO'K: 340.12(575.1)(075.3)**

**KBK: 67.0(5O')ya72**

### **Mas'ul muharrirlar:**

M. Baratov — yuridik fanlari doktori, professor;

B. Malikova — yuridik fanlari doktori, professor

### **Taqrizchilar:**

B. Axrorov — yuridik fanlari doktori, professor;

H. To'ychiyeva — yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

H. Tojiboyev — Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 144-o'rta umumta'lim maktabining «Davlat va huquq asoslari» fani o'qituvchisi.

### **Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-5245-7-6

© N. Ismatova, O. Karimova, 2018.

© Yangiyul Poligraph Service, 2018.

# Kirish

Huquqiy ong va madaniyatni yanada yuksaltirish borasida ta’lim tizimida muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. Ulardan biri mazkur sohaga oid darsliklarning yangi avlodini yaratishda ta’lim texnologiyalarining samarali usullaridan foydalanishdan iborat. Darslikda berilgan savol va topshiriqlar, qo’shimcha ma’lumotlar, huquqiy masala (kazus)lar, atamalarning izohi, tarix-dan lavhalar aynan huquqiy ta’lim sohasidagi bilimlaringizni yanada boyitishga, huquqiy ong va tafakkuringizni kengaytirishga xizmat qilishga yo’naltirilgan. Bu soha shunday sohaki, jamiyat rivojlangani sari, qonunlar ham takomillashib boradi. Shuning uchun ham Siz faqat darslikda berilgan ma’lumotlar bilan cheklanmay, [www.lex.uz](http://www.lex.uz) sayti orqali qonun hujjalardagi o’zgarishlarni kuzatib borsangiz, dunyoqarashingiz yanada kengayadi, bu sohada yanada ko’proq bilmlarga ega bo’lasiz.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-yilligiga bag‘ishlangan bayram tadbirida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu masalaga alohida e’tibor qaratib, qonun ustuvorligini ta’minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidladi.

Aziz o‘quvchi!

Qo’lingizdagи darslik quyi sinflarda olgan bilimlaringizni davom ettiradi va to’ldiradi, huquqiy tafakkuringizni kengaytiradi. Madaniyatga ega bo’lish esa o’zingizning qo’lingizda.

Qonunlarni bilmagan inson bugungi kunda o’z huquqlarini himoya qilolmaydi va majburiyatlarini anglamaydi. U hayotda biror qiyin ahvolga tushib qolganda, vaziyatdan qanday chiqib ketishni, muammoni qanday hal etishni bilmay, himoyasiz bo’lib qolishi mumkin. «Erkin bo’lish uchun qonunlarga bo’ysunish zarur», degan ekan Sitseron. Chunki, qonun ustuvorligi mamlakatda tinchlik-barqarorlik, erkinlik va demokratik tamoyillar hukm surishining kafolatidir.

Bu sohadagi bilimlaringizni mustahkamlashda va yuksak axloqiy qadriyatlар bilan birga huquqiy madaniyatga ega bo’lishda sizlarga muvaffaqiyatlar tilaymiz.

*Mualliflar.*

# KIRISH

## 1-§ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatning huquqiy asosi

### Ijodiy faoliyat



Davlat hokimiya-ti idoralarining vakolati, harakat doirasi inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari ko‘lami bilan cheklanadi. Ushbu fikrni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2, 13 va 14-mod-dalarida bayon etilgan qoidalarni o‘zaro bog‘lab tahlil etish orqali isbotlashga harakat qiling.

Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatning huquqiy asosi.
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlarini amalga oshirishning huquqiy asosi.



### O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatning huquqiy asosi

Mamlakatlarning ichki boshqaruvi va mustaqilligi, suvereniteti uning konstitutsiyasi vositasida qonunlashdiriladi. Bu esa davlat hokimiyatining konstitutsiya bilan cheklanganligini, tartibga solinishini ham anglatadi.

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatida konstitutsiya davlat hokimiyati bilan inson o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning qonuniy mezonini o‘rnatuvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Konstitutsiyada inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat deb e’tirof etiladi. Demokratik huquq va erkinliklar konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi. O‘z navbatida, davlat organlari va mansabdor shaxslar fuqarolar oldida mas’uldirlar. Mazkur konstitutsiyaviy qoidalalar mazmuni dan inson va fuqarolar huquqlari hamda erkinliklarining ustunligi prinsipi kelib chiqadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasining asosiy mavzusi inson

huquqlari bo'lib, xalqimiz va davlatimiz ana shu masalada inson huquqlariga sodiqligini e'lon qiladi.

Konstitutsiya fuqaro, jamiyat va davlat hokimiyati o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi o'ziga xos ijtimoiy shartnomadir. Konstitutsiya fuqarolarning umumiylengen teng huquqliligi, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro mas'ulligini g'oyasiga asoslanadi.

Konstitutsiyaviy qoidalar shaxs va davlatning o'zaro munosabatlari qanday shakllanishi lozimligi va bu inson hayotida qanday ahamiyatga ega ekanligini tushunib olishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi shaxs va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning huquqiy tartibini belgilab beradi. Bunga ko'ra xalq, jamiyat, shaxs huquqi va manfaati birinchi o'ringa qo'yiladi.

Agar shaxs va davlat munosabatida davlat o'rniغا e'tibor berilsa, davlat manfaatining mohiyati zamirida ham inson huquqi va erki himoyasi yotadi. Biz bunyod etayotgan davlatning insonparvarlik va xalqparvarlik mohiyati shunda aks etadi, ya'ni davlat faoliyatining asosiy maqsadi insonga xizmat qilish ekanligi to'la e'tirof etiladi.

Har bir davlat o'z hududida amal qilinadigan qonunlarini o'zi yaratadi. Demak, qonunlar jamiyatdagi muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va xalqning xohish-irodasini ifoda etadi, turli siyosiy kuchlar, ijtimoiy tabaqalar, guruhlar manfaatlarining o'zaro murosasini ta'minlaydi.



O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

### **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 15-modda**



#### **Ijodiy faoliyat**

Quyidagi rasm-larda ifodalangan shaxslar va davlat o'rtasida qanday munosabatlar bor?





## O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlarini amalga oshirishning huquqiy asosi

O‘zbekiston – suveren demokratik respublika. Davlatning «O‘zbekiston Respublikasi» va «O‘zbekiston» degan nomlari bir ma’noni anglatadi.

### O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1-modda



Jahling chiqqanida so‘zlaringga diqqat qil... Kattalardan oldin yurma. Birov gapirayotganida oraga gap suqma.

### Luqmoni Hakim

Konstitutsiyaviy davlat deganda davlat hokimiyati idoralari konstitutsiyada belgilangan tartib va prinsiplar asosida shakllantiriladigan va konstitutsiyaviy normalarga qat’iy rioya etgan holda o‘z faoliyatini amalga oshiradigan davlat apparati tushuniladi. Konstitutsiyaviy davlat — mamlakatning butun hududida va davlat faoliyatining barcha sohalarida konstitutsiyaning hamda u asosida qabul qilingan qonunlarning ustunligini ta’milaydigan va kafolatlaydigan davlatdir. Xalq suvereniteti oliy hokimiyat xalqqa tegishli ekanligini bildirsa, davlat suvereniteti mustaqil hokimiyat, ya’ni mamlakatning ichki va tashqi siyosatini xalq nomidan davlat amalga oshirishini anglatadi. Davlat hokimiyati xalq erki-irodasining mahsuli bo‘lib, bunday hokimiyatni amalga oshiruvchilar xalq tomonidan saylanadi.

Konstitutsiyaviy davlatda qonun ustunligi principining mantiqiy davomi sifatida yana ikki prinsip: «qonun bilan taqilangan barcha narsaga ruxsat etiladi» (fuqarolar uchun) hamda «faqat qonunda mustahkamlangan narsagagina ruxsat etiladi» (davlat organlari va mansabdar shaxslar uchun) amal qiladi.

**Birinchi prinsip** fuqarolarning harakatlanish erkinligi va imkoniyatlarini kengaytiradi. Qonunda man etilmagan, taqilangan har qanday xatti-harakatlarni sodir etish mumkin bo‘ladi va buning uchun yuridik javobgarlik kelib chiqmaydi.

**Ikkinchi prinsipning** ma’nosi shundaki, bunda davlat idoralari va mansabdar shaxslar o‘zlarining qonunda belgilangan vakolatlari doirasida, ularga aynan mos ravishda harakatlanishlari lozim bo‘ladi.

Aksariyat mamlakatlarda, shu jumladan, O‘zbekistonda qonunning ustunligi demokratik konstitutsiyaviy davlatning asosiy prinsipi hisoblanadi. Bu yerda mazkur prinsip, avvalo, konstitutsiya-ning ustunligini nazarda tutadi. Basharti, qonuni qo‘llovchi ijroiya hokimiyat organi (mansabdor shaxs) yoki sud ushbu qonun konstitutsiyaga zidligini aniqlasa, masalani bu qonun asosida emas, balki konstitutsiya asosida hal etishi lozim.

Konstitutsiyaviy davlatda hokimiyatning tashkil etilishi va faoliyat yuritishi konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yiladi. Konstitutsiyada nazarda tutilmagan hokimiyat organlarini tashkil etish mumkin emas. Konstitutsiyaviy davlat, eng avvalo, davlatning huquq bilan uzviy bog‘liqligidir.

Konstitutsiya inson va fuqaroning shu hokimiyat tomonidan kafolatlangan huquqlarini mustahkamlaydi va ana shu huquqlarga mutanosib tarzda davlat hokimiyatini cheklaydi. Boshqacha aytganda, Konstitutsiya — davlat hokimiyatini tashkil etish va faoliyat yuritishining huquqiy rasmiy lashtirilishi bo‘lib, bu hokimiyatning fuqarolik jamiyati boshqa subyektlari bilan munosabatini tartibga soladi.

### Savol va topshiriqlar



1. «Shaxs — jamiyat — davlat» munosabatlari-ga misol keltiring.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat mustaqilligi, davlat boshqaruvi, davlat tuzilish shakli va siyosiy tartibot qanday ifodalangan? Fikringizni asoslang.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasini o‘qing. Xalq hokimiyatchiligi deganda nimani tushunasiz?
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan huquqlaringizni bilasizmi?
5. Ularni to‘laqonli amalga oshirishda sizning qanday ishtirokingiz mavjud?
6. Inson huquqlari va burchlari o‘rtasida qanday munosabat mavjud bo‘lishi mumkin?

# I bo‘lim. OILA HUQUQI

## 2-§ Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini

**15-may –  
Xalqaro  
oila kuni**

Mamlakatimizda  
1998-yil —  
«Oila yili»,  
2012-yil esa  
«Mustahkam  
oila yili» deb  
e’lon qilindi.



Oila jamiyatning asosiy  
bo‘g‘inidir  
hamda jamiyat  
va davlat muho-  
fazasida bo‘lish  
huquqiga ega...

**O‘zbekiston  
Respublikasining  
Konstitutsiyasi,  
63-moddadan**

**Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:**



- Oila huquqining konstitutsiyaviy asosi.
- O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.
- Oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar.
- Oila huquqining subyektlari. Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning teng huquqliligi.

### Oila huquqining konstitutsiyaviy asosi

Oila sohasidagi huquqiy munosabatlarning asosiy manbayi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi. Jamiyat va davlatning oilaga g‘amxo‘rligi ijtimoiy siyosatimizning muhim yo‘nalishiga aylangan.

Oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir. Shuning uchun ham oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida e’tirof etilib, bolaning shaxs sifatida shakllanishi, kelgusida jamiyatda o‘z o‘rnini topishi hamda ma’naviy barkamol inson bo‘lib yetishishida asosiy poydevor hisoblanadi.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlasak, eng qadrli an’analari: halollik, rostgo‘ylik, or-nomus, sharm-u hayo, mehr-u oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar eng avvalo oilada shakllangan. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, imon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

Oila munosabatlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlarida aks ettirilishi oilani yuksak axloqiy-ma'naviy normalar asosida mustahkamlashning yorqin namunasidir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida O'zbekiston fuqarolari bolalarni voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburligi, farzandlar ota-onalari to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari va ularga yordam berishlari shartligi ko'rsatib o'tilgan.

Farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar, onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

## O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi

Oilaning jamiyatdagi rolini ta'minlashda, uning huquqiy muhofazasi va ijtimoiy mavqeyini mustahkamlashda Oila kodeksining roli kattadir. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi jahon hamjamiyatida umumiyligi e'tirof etilgan huquqiy normalarga to'la mos ravishda tuzilgani holda, «oila — jamiyatning tayanch tuzilmasidir», degan g'oyaga asoslangan.

Oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolaringning mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsnинг oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqiniksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir. Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikoh ittifoqini tuzishi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy teng huquqliligiga asoslanadi.



«Agar bir mamlakat aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi».

Fitrat



Ijodiy faoliyat

1. Matnni diqqat bilan o'qing va munosabat bildiring.
2. «Oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa» deganda nimani tushundingiz?
3. Oilaning mustahkamligida milliy qadriyatlarning o'rni nimada?
4. Oiladagi muammolarning jamiyat rivojiga ta'siri qanday bo'lishi mumkin?

## Huquq tarixidan



Tarixiy qadriyatimiz bo‘lgan «Avesto»da ayol kishi shaxsiy mulkka ega bo‘li-shining huquqiy asoslari mavjud. Ayol kishi o‘z mulkidan xayriya maqsadlarida mustaqil foydalanishi; shuningdek, mustaqil ravishda da’vogar bo‘lishi va guvoh sifatida ko‘rsatuqlar berishi mumkin bo‘lgan. Nikoh zardushtiylik huquqiga ko‘ra unga kiruvchilarning ikki tomonlama xohishi natijasi bo‘lib, faqat shundan keyingina ota-onalar va vasiylar tomonidan tasdiqlangan.

## Oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar

Oilaviy huquqiy munosabatlar deganda fuqarolar o‘rtasida bo‘ladigan va oilaviy huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

Oila huquqi oila a‘zolari o‘rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Shaxsiy nomulkiy munosabatlarga er-xotinning familiyasi, bolalar tarbiyasi, oila turmushi masalalarini hal qilish, mashg‘ulot turi, kasb va turar joy tanlash huquqlari kiradi.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan umumiy mulklari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar bo‘lajak er-xotinning umumiylablag‘lari hisobiga olin-gan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha holat ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi va mulkiy munosabatlar bilan tartibga solinadi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar o‘zining ba’zi bir belgilari bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga o‘xshab ketadi. Biroq bu o‘xshashlik faqat tashqi ko‘rinishdir. Fuqarolik huquqiy munosabatlarning asosini mulkiy munosabatlar, oilaviy huquqiy munosabatlar asosini esa mulkiy bo‘limgan shaxsiy munosabatlar tashkil etadi. Oila huquqi birinchi navbatda shaxsiy munosabatlarni tartibga soladi.



Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi oila qonunlarida nazarda tutilgan huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- er-xotinning (shaxsiy va mulkiy) huquqlari va majburiyatlari;
- ota-onaning (shaxsiy va mulkiy) huquqlari va majburiyatlari;
- nikoh tuzishda teng huquqlilik;
- voyaga yetmagan bolalarning (shaxsiy va mulkiy) huquqlari va majburiyatlari;
- ota-onalar va bolalar, er-xotin, sobiq er-xotin, qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari;
- nikohning tugatilish asoslari;
- er-xotinning umumiy mol-mulkka egalik qilish, foy-dalanish va uni tasarruf etish huquqi;
- nikoh shartnomasini tuzishda er-xotinning huquqlari va majburiyatlari;
- farzandlikka olish tartibi;
- bolaning huquq va manfaatini himoya qilish bo‘yicha ota-onaning huquq va majburiyatlari;
- ota-onaning bolani tarbiyalash hamda unga ta’lim berishga doir huquq va majburiyatlari;

O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.

### **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 18-modda**



Oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlari nikoh tuzish, nikohning tugatilishi (tugashi) va uni haqiqiy emas deb topish shartlari va tartibini belgilaydi, oila a’zolari: er-xotin, ota-ona va bolalar (farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar) o‘rtasidagi, oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va doirada esa qarindoshlar hamda o‘zga shaxslar o‘rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaga olish shakl va qoidalarini, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartibini belgilaydi.

### **O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, 5-modda**



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya-sining 18-mod-dasida mustah-kamlangan qoidani «Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning teng huquqlili-gi» matni bilan qanday bog‘liqlik tomoni borligini aniqlang.

- ➔ ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslari;
- ➔ vasiylik va homiylikka murojaat etish huquqi.

Ota-onalik huquqidan mahrum etish instituti oilaviy huquqiy munosabatlarda alohida o‘rin tutadi.

Oilaviy huquqiy munosabatlar deganda fuqarolar o‘rtasida bo‘ladigan va oilaviy huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

## **Oila huquqining subyektlari**

Har qanday boshqa munosabatlarda bo‘lganidek, oilaviy huquqiy munosabatlarda ham uch element: subyekt, subyektiv huquq va majburiyatlarni ko‘ri-shimiz mumkin.

Oilaviy munosabatlarning subyekti bo‘lib, er-xotin, ota-onsa, bolalar, vasiylar va homiyalar, boshqa qarindosh-urug‘lar hamda oila qonunlari sohasida u yoki bu munosabatlarni hal etishda ishtirok etuvchi yuridik shaxslar, fuqarolar uyushmasi, muassasalar, organlar, ij-timoiy birlashmalar hisoblanadi.

Oila a’zolariga, oilaning sobiq a’zolariga tegishli qonun bilan himoya qilinadigan axloqiy va moddiy qad-riyatlar yuzasidan oila huquqi subyektlari qabul qiladi-gan harakat va qarorlar oilaviy huquqiy munosabatlar-ning obyektlari bo‘lishi mumkin.

## **Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning teng huquqliligi**

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish,

voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolari-ning huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadirlar. Nikoh tuzish chog'ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning huquqlari faqat qonunga asosan va faqat oiladagi boshqa a'zolarning hamda o'zga fuqarolarning axloqi, sha'ni, qadr-qimmati, sog'lig'i, huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida zarur me'yordagina cheklanishi mumkin.

## Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanliklari e'tirof etiladi. «Oilada teng huquqlilik» tushunchasi qanday munosabatlarga nisbatan ko'proq ishlatiladi?
2. Oilaviy huquqiy munosabatlar deganda nima-ni tushundingiz? Hayotiy misollar keltiring.
3. Oilaviy huquqiy munosabatlar bilan fuqarolik huquqiy munosabatlarning bir-biridan farqi nimada?
4. Oilaviy huquqiy munosabatlar subyektlariga misol keltiring.
5. Nima uchun oila jamiyatning asosiy negizi deb ataladi? Fikringizni asoslang.

## Ijodiy faoliyat

Berilgan rasm-lardan oilaviy munosabatlar-ning subyektlari ni aniqlang.



### 3-§ Nikoh tuzish tartibi va shartlari

Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:



- Nikoh tushunchasi. Nikoh tuzish tartibi.
- Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi. Nikoh yoshi. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar. Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish.

#### Nikoh tushunchasi. Nikoh tuzish tartibi



Nikoh – erkak bilan ayolning teng huquqli, erkin va ixtiyoriy ittifoqi bo'lib, u fuqarolik holati dalolatnomalarni qayd etish organlarida tuziladi va oila tuzish maqsadiga xizmat qiladi.

Nikoh oilaning vujudga kelishi uchun birdan-bir asosdir. Nikoh ahdi insonlarga mas'uliyat yuklaydi. Chunki oilada ernen ham, ayolning ham o'z vazifasi bor, ulardan har biri o'z vazifasini to'la ado etishga mas'uldirlar. Nikoh tufayli yangi oilalar vujudga keladi.

**Nikoh tuzish** shunchaki rasmiyatçilik emas, uning davlat tomonidan qayd etilishi yuridik faktidir.

Aynan ro'yxatga olingen (qayd etilgan) nikoh yuridik nikoh deb hisoblanadi va faqat ugina er-xotinlik huquqlari va majburiyatlarini yuzaga keltiradi. Ro'yxatsiz (qaydsiz) nikoh haqiqiy emas.

Nikoh davlat va jamiyat manfaatlarini ko'zlab, er, xotin va bolalarning shaxsiy va mulkiy huquqlari hamda manfaatlarini muhofaza etish maqsadida qayd etiladi.



Nikohni qayd etishda guvohlarning soni ikki kishidan kam bo‘lmasligi kerak.

Faqatgina diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.

## **Nikoh tuzishning ixtiyoriligi. Nikoh yoshi. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar**

Nikoh tuzish ixtiyoriydir. Nikoh tuzish uchun bo‘lajak er-xotin o‘z roziliginini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi. Amaldagi qonun hujjatlarida nikoh yoshi belgilab qo‘yilgan. Qonunga binoan erkaklar 18 yoshdan, ayollar esa 17 yoshdan nikoh tuzishlari mumkin.

Fuqarolik qonunlariga asosan voyaga yetguna qadar qonuniy asosda nikohdan o‘tgan fuqaro to‘la hajmdagi muomala layoqatiga ega bo‘ladi. Nikoh tuzish natijasida ega bo‘lgan muomala layoqati 18 yoshga to‘lmasdan turib nikohdan ajratilgan taqdirda ham to‘la saqlanib qoladi. Nikoh haqiqiy emas, deb topilganida sud voyaga yetmagan er (xotin) sud belgilagan paytdan boshlab to‘la muomala layoqatini yo‘qotganligi haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Nikoh yoshiga amal qilmasdan, g‘ayriqonuniy ravishda nikoh munosabatlarda bo‘lish har xil huquqiy oqibatlarни keltirib chiqarishi mumkin. Bunday nikoh haqiqiy emas, deb topilib, oila qonunlarida belgilangan tegishli shaxsiy va mulkiy huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

### **Nikoh tuzilishiga monelik qiladigan holatlar.**

*1. Loaqal bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzilishi mumkin emas.*

Respublikamizda har bir fuqaro faqat yakka nikohda bo‘lishi mumkin. Yakka nikohlik tamoyili bizning jamiyatimizda mavjud bo‘lgan yuksak axloqiy qoida-



Nikoh yoshi erkaklar uchun o‘n sakkiz yosh, ayollar uchun o‘n yetti yosh etib belgilanadi.

Uzrli sabablar bo‘lganida, alohi-da hollarda (homiladorlik, bola tug‘ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to‘la muomalaga layoqatli deb e‘lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagি tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi,  
15-modda**



Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan tuzilgan nikoh hali nikoh yoshiga yetmay nikohga kir-gan shaxsnинг manfaatlari talab qilgan hollarda haqiqiy emas deb topilishi mumkin...

### O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, 51-modda

lardan kelib chiqadi. Bu qoidaning buzilishi nikohni haqiqiy emas deb topilishiga asos bo'ladi.

2. *Nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida nikoh tuzilishiga ruxsat berilmaydi.*

Qonun hujjatlarida yaqin, to'g'ri, yon shajara, yot aralashmagan va yot aralashgan qarindosh tushunchalari mavjud. Biri boshqasidan yoki umumiy ajdoddan dun-yoga kelgan shaxslar yaqin qarindoshlar hisoblanadi.

Biri boshqasidan dunyoga kelgan shaxslar, ya'ni bobo-ota, o'g'il-nevara-evara-chevara-dubora to'g'ri shajaradagi qarindoshlar deb yuritiladi. Aka-uka va opa-singil yon shajaradagi qarindosh deyiladi. Yot aralashmagan qarindosh deb umumiy ota yoki onaga ega bo'lishlik, yot aralashgan qarindosh deb turli ota yoki onadan tug'ilgan o'gay aka-ukalar va opa-singillar tushuniladi.

Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohni qonun yo'li bilan taqiqlash axloqiy qoida hamda biologik nuqtayi na-zarga, tibbiyot fani yutuqlari va xulosalariga asoslanadi.

Boshqa qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzish qonun bilan taqiqlanmaydi. Shuning uchun yon shajara bo'yicha qarindosh bo'lgan, tog'avachcha, amakivachcha,



Nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buz-gan aybdor shaxslar O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 47<sup>3</sup>-moddasasi va Jinoyat kodeksi 125<sup>1</sup>-moddasiga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

xolavachchalar va boshqa uzoq qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzish mumkin.

Aka-ukalar hamda opa-singillar farzandlarining o‘zaro nikoh tuzishlari maqsadga muvofiq emas. Qarindoshlik nikohi tufayli ko‘pincha nimjon, jismonan nosog‘lom, nuqsonli, mayib bolalar dunyoga keladi. Qarindoshlar o‘rtasida tuzilgan nikoh hatto farzandsizlikka olib keliishi ehtimoldan xoli emas.

3. *Loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.*

Bunday shaxslar o‘z qilmishlarining oqibatiga to‘liq javob bera olmaydilar va nikoh tuzishga ongli ravishda o‘z xohishlarini izhor eta olmaydilar. Bu qoida nikoh-nuvchilarining ixtiyoriy va o‘z xohishiga ko‘ra nikoh tuzish tamoyilidan kelib chiqadi. Shaxsning ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilishi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga ariza topshirganidan so‘ng, nikohni qayd etish muddatigacha yuz bergen bo‘lsa ham, nikohdan o‘tishga monelik qiladi.

## Nikoh haqida milliy qadriyatlardan

Sizlar uchun (bu gap erkaklarga aytilyapti) onalaringiz, qizlaringiz, opa-singillaringiz, ammalarингiz, xolalarингиз, aka-ukalarингизning qizlari, opa-singillaringizning qizlari, emizgan onalaringiz, emishgan opa-singillaringiz, qaynonalarингиз, nikohingizda bo‘lgan xotinlarингизning tarbiyangizda bo‘lgan qizlari – mana shu sanab o‘tilgan ayollarga uylanish harom qilindi.

**Qur’oni karim, Niso surasi, 23-oyat**



Ko‘p xotinli bo‘lish, ya‘ni umumiy ro‘zg‘or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo‘lib yashash — eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

**O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 126-modda**



Nikohlanuvchi shaxslar davlat sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul asosda tibbiy ko‘rikdan o‘tadilar. Tibbiy ko‘rikdan o‘tish hajmi va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi...

### O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, 17-modda

## Ijodiy faoliyat



Aziza kasb-hunar kollejining 2-bosqichida o‘qiydi. Mart oyida u 17 yoshga to‘ladi. Uyidan sovchilarning ham oyog‘i arimay qoldi. Oilada 80 yoshlarni qoralab qolgan buvisi bor. Har gal sovchi kelganida, «Menga sening to‘ying nasib qilarmitkan?» deb o‘ksinib qo‘yadi. Bu gapni eshitgan Azizaning otasi: «Siqilmang, onajon, yozga chiqib to‘y qilamiz», deb yupatadi. Onasi bo‘lsa: «Hali qizimiz yosh, oila qurishga tayyor emas», deb sovchilarga rad javobi berib yuboradi.

1. Mazkur vaziyatda qanday yo‘l tutgan ma’qul?
2. Azizaning onasi: «Hali qizimiz yosh, oila qurishga tayyor emas», deganida nimani tushundingiz?
3. Sizningcha, odam qachon oila qurishga tayyor bo‘ladi?

## Savol va topshiriqlar

- 
1. Oila quradigan inson qanday mas’uliyatlarni zimmasiga olishi kerak?
  2. Oila qurish uchun nimalarga ega bo‘lish kerak?
  3. Quyidagilardan qaysi biri bo‘lmasa ham oila qurish mumkin: moddiy imkoniyatlar, ma’naviy tayyorgarlik, ruhiy tayyorgarlik, jismoniy (biologik) tayyorgarlik?
  4. Sizningcha, oilada turmushning qiyinchiliklari ko‘proq kimning zimmasiga tushadi? Fikringizni asoslang.

## 4-§ Er-xotining shaxsiy huquq va majburiyatları


Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:



- Er-xotin huquq va majburiyatlarining vujudga kelishi.
- Oilada er va xotinning teng huquqliligi.
- Er va xotinning familiya tanlash huquqi.
- Er-xotinning bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilishi.

### Er-xotin huquq va majburiyatlarining vujudga kelishi

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzganlar er-xotin hisoblanadilar va ular o'rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatları vujudga keladi. Endi ular o'rtasidagi munosabatlar axloq-odob qoidalarigina bilan emas, balki qonunlar va huquqiy qoidalar bilan ham tartibga solinadi. Bunda ayollar siyosiy jihatdan erkaklar bilan teng huquqqa ega bo'lganlaridek, oilada ham



### Ijodiy faoliyat

1. Siz nima deb o'ylaysiz, oilada er va xotinning majburiyatları tengmi?
2. «Oilada ayollarga nisbatan ko'proq huquq berilgan», degan fikrga qanday qaraysiz?
3. «Oilani boshqarishda erkak kishi ustun bo'lishi kerak», «Oilani asosan erkak kishi ta'minlashi zarur, ayol kishi o'zi topgan mablag'ni o'z ehtiyojiga sarflasa bo'ladi», «Oilada kim ko'p mablag' topsa, o'sha bosh bo'ladi», kabi fikrlarga o'z munosabatingizni bildiring.



Fuqarolar oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlarini o‘z xohishlariga ko‘ra tasarruf etadilar.

Oila a’zolarining o‘z huquqlarini amalga oshirishlari hamda o‘z majburiyatlarni bajarishlari oilaning boshqa a’zolari va o‘zga shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi shart.

### **O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, 10-modda**

barcha shaxsiy va mulkiy masalalarda ular bilan teng huquqlardan foydalanadilar va bab-baravar majburiyat-larga egadirlar.

## **Er va xotinning familiya tanlash huquqi**

Nikoh asosida ikki xil — shaxsiy va mulkiy munosabatlar kelib chiqadi. Shaxsiy munosabatlarga er-xotinning familiya tanlash huquqi, bolalar tarbiyasi va oila-turmush masalalarni hal etish, kasb va turar joy tanlash huquqlari kiradi. Bunday holatlarda ularning mehnati va fuqarolik huquqi muomala layoqatining elementi bo‘lib, oila huquqi sohasi hisoblanmaydi.

Nikohga kirish vaqtida o‘z familiyasini o‘zgartirgan er (xotin) nikohdan ajratilgandan keyin ham shu familiyada qolishga haqli yoxud sud tomonidan nikohdan ajratish to‘g‘risidagi qaror chiqarilayotganda uning xohishiga binoan unga nikohgacha bo‘lgan familiyasi qaytarilishi mumkin.

## **Er-xotinning bolalar tarbiyasidagi ishtiroki va turmush masalalarini hal qilishi**

Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o‘z ota-onasini bilish, ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega. Ota-onalik bolaning tarbiyasiga yoki manfaatlariga salbiy ta’sir qiladigan harakatlarni bajarsalar, ota-onalik huquqidan mahrum etiladilar.

Ota-onalik bolalar tarbiyasiga bir xilda mas’uldir-  
lar. Bola o‘z ota-onasi tomonidan tarbiyalanish, man-  
faat ko‘rish, har taraflama kamol topish, insoniy  
qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega. Bolaning  
ota-onasi bo‘lmaganda yoki ular ota-onalik huquqi-  
dan mahrum qilinganida va bola ota-onalik qaramog‘idan

mahrum bo‘lgan boshqa hollarda uning oilada tarbiyalanishi huquqiy vasiylik va homiylik organi tomonidan ta’minlanadi. Ota-onasi nikohining bekor qilinishi yoki haqiqiy emas deb topilishi bolaning huquqlariga ta’sir qilmaydi.

Ota-onasi voyaga yetmagan farzandlarning qonuniy vakili hisoblanadi, chunki ular o‘z huquqi va majburiyatlarini mustaqil himoya qila olmaydilar. Ota-onasi nafaqat teng huquqlidir, balki bolalarni moddiy jihatdan ta’minlash, jismonan, ruhan va axloqiy sog‘lom qilib tarbiyalash, ularni mustaqil hayotga tayyorlash borasida ham bir xil majburiyatga egadirlar.

Afsuski, ba’zida ota-onalar o‘z majburiyatlarini bajarishdan bosh tortadilar. Bolalarga shafqatsiz munosabatda bo‘ladilar, ularni tahqirlaydilar, ichkilik yoki giyohvandlik moddalari iste’moliga surunkali beriladilar yoki boshqa amallari bilan ota-onalik huquqini suiiste’mol qiladilar. Bunday hollar aniqlangudek bo‘lsa, ular sud qaroriga asosan ota-onalik huquqidan mahrum etiladilar. Ota-onasi huquqidan mahrum qilishga doir ishlar prokuror hamda vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko‘rib chiqiladi.

Sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risida ishlarni ko‘rib chiqishda bolani moddiy juhatdan ta’minlash uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilangan ota-onadan (yoki ularning biridan) aliment undirish haqida qaror qabul qiladi.

Sud bolaning manfaatlarini hisobga olgan holda ota-onalik huquqidan mahrum qilmay turib, bolani ota-onadan (ularning biridan) olish to‘g‘risida hal qiluv qarori chiqarishi (ota-onalik huquqini cheklashi) mumkin.



Nikoh yoshi turli davlatlarda turlicha belgilangan. Masalan, Bolgariyada har ikki jins vakillariga ham – 18 yosh, Angliyada – 16 yosh, AQShda – 16 yoshdan 21 yoshgacha, Fransiya va Ven-griyada erkaklar uchun – 18 yosh, ayollar uchun – 16 yoshdir. Rossiya Federatsiyasida belgilangan nikoh yoshini (18) ikki yoshga kamaytirish vakolati qonunda ko‘rsatilgan tegishli idoralarga berilgan.



## Ijodiy faoliyat



**Ota-onaning  
bolalarga  
ta’lim-tarbiya  
berishga oid  
huquq va maj-  
buriyatlari**

Ota-onan o‘z  
bolalarini tarbi-  
yalash huquqiga  
ega va tarbi-  
yalashi shart.

Ota-onan o‘z  
bolalarining  
tarbiyasi va  
kamoloti uchun  
javobgardir.

Ular o‘z bolala-  
rining sog‘lig‘i,  
jismoniy, ruhiy,  
ma’naviy va axlo-  
qiy kamoloti haqi-  
da g‘amxo‘rlik  
qilishlari shart.  
Ota-onan o‘z  
bolalarini tarbi-  
yalashda boshqa  
barcha shaxslarga  
nisbatan ustun  
huquqqa ega...

**Oila kodeksining  
73-moddasidan**

### 1-vaziyat.

Gulnoza bilan Anvar turmush qurish uchun fuqarolik holatlarini qayd etish organiga ariza berishdi. Gulnoza o‘zining familiyasida qolmoqchi bo‘ldi. Anvar Gulnozaning bu fikridan qaytarishga urindi, ammo Gulnoza o‘z fikrida turib oldi.

**Savol:** Gulnoza turmushga chiqqanida o‘z familiyasida qolishi mumkinmi? Yoki aksincha Anvar Gulnozaning famiyalisini qabul qilishi mumkinmi?

### 2-vaziyat.

Bir yildan so‘ng ularning oilasida farzand dunyo-  
ga keldi. Ular farzandiga bobosining  
ismini familiya qilib berishga qaror  
qilishdi. Endi ularning oilasida  
uch xil familiya.

**Topshiriq:** Bu ho-  
latga qonuniy baho  
bering.



## Savol va topshiriqlar



1. Er-xotin huquq va majburiyatlari nimalarni o‘z ichiga oladi?
2. Er-xotin huquq va majburiyatlari qachondan boshlab vujudga keladi?
3. Ota-onan huquqidan mahrum qilishga doir ishlar kimlarning ishtirokida ko‘rib chiqiladi?  
Fikringizni asoslang.
4. Voyaga yetmagan farzandlarning qonuniy va kili kimlar bo‘lishi mumkin va nima uchun?

# 5-§ Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatları

Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:




- Er va xotinning umumiy mulki.
- Er va xotinning umumiy mol-mulkka egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi.
- Er va xotinlardan har birining mulki.
- Er va xotinning shaxsiy foydalanishidagi buyumlar.
- Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lish.
- Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lishda ulushlarni aniqlash.

## Er va xotinning umumiy mulki

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkulari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar, bo‘lajak er-xotinning umumiy mablag‘lari hisobiga olin-gan mol-mulkulari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ularning birqalik-dagi umumiy mulki hisoblanadi.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkulari jumlasiga (er va xotinning umumiy mol-mulkiga) ulardan har birining mehnat faoliyatidan, tadbirkorlik faoliyatidan va intellektual faoliyat natijalaridan orttirgan daromadlari, ular tomonidan olingan pensiyalar, nafaqalar, shuningdek, maxsus maqsadga mo‘ljallanmagan boshqa pul to‘lovlari (moddiy yordam summasi, mayib bo‘lish yoki salomatligiga boshqacha zarar yetkazish oqibatida mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplash tarzida to‘langan summalar va boshqalar) kiradi.





## **Er va xotinning shaxsiy foy-dalanishidagi buyumlar**

Qimmatbaho buyumlar va zebu-ziyatlardan boshqa shaxsiy foydalanishidagi buyumlar (kiyim-bosh, poyabzal va boshqa shukabilar), garchi nikoh davomida er va xotinning umumiyl mablag'i hisobiga olingan bo'lsa ham, ulardan foydalanib kelgan er va xotinning xususiy mulki hisoblanadi.

**O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, 26-modda**

Er va xotinning umumiyl daromadlari hisobiga olingan ko'chimli va ko'chmas ashayolar, qimmatli qog'ozlar, omonatlar, kredit muassasalariga yoki boshqa tijorat tashkilotlariga kiritilgan kapitaldagi ulushlari hamda er va xotinning nikoh davomida orttirgan boshqa har qanday mol-mulkulari, ular er yoki xotindan birining nomiga rasmiylashtirilgan yoxud pul mablag'lari kimning nomiga yoki er va xotinning qaysi biri tomonidan kiritilgan bo'lishidan qat'i nazar, ular ham er va xotining umumiyl mol-mulki hisoblanadi.

Er va xotindan biri uy-ro'zg'or ishlarini yuritish, bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra mustaqil ish haqi va boshqa daromadga ega bo'lмаган taqdirda ham er va xotin umumiyl mol-mulkka nisbatan teng huquqqa ega bo'ladi.

Er va xotin ularning birgalikdagi umumiyl mulki bo'lgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishda teng huquqlarga egadir.

## **Er va xotinlardan har birining mulki**

Er va xotinning nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa be-pul bitimlar asosida olgan mol-mulki ulardan har birining shaxsiy mulki hisoblanadi.

Nikoh davomida er-xotinning umumiyl mulki, ular dan har birining mol-mulki yoxud er va xotindan birining mehnati hisobiga mol-mulkning qiymati anche oshishiga olib kelgan mablag'lar (kapital ta'mirlash, qayta qurish, qayta jihozlash va boshqalar) qo'shilgani aniqlansa, er yoki xotindan har birining mol-mulki ularning birgalikdagi mulki deb topilishi mumkin.

## Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lish

Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lish er va xotindan birining talabiga ko‘ra, ular nikohda bo‘lgan davrda ham, nikohdan ajralishgandan keyin ham, shuningdek, kreditor er va xotindan birining umumiy mol-mulkdagi ulushiga undiruvni qaratish uchun umumiy mol-mulkni bo‘lish talabi bilan arz qilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Er va xotinning umumiy mol-mulki er va xotin o‘rtasida o‘zaro kelishuv asosida bo‘lib olinishi mumkin. Er va xotinning xohishi bilan ularning umumiy mol-mulkni bo‘lish to‘g‘risidagi o‘zaro kelishuvi notarial tartibda tasdiqlanadi.

Nizo tug‘ilgan hollarda er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lish, shuningdek, er va xotinning bu mol-mulkdagi ulushini aniqlash sud tartibida amalga oshiriladi.

Oilaviy munosabatlar tugatilganda sud er va xotin alohida yashagan davrda orttirgan mol-mulkni ulardan har birining shaxsiy mulki deb topishi mumkin.

Voyaga yetmagan bolalar ehtiyojini qondirish uchun olingan buyumlar (kiyim-bosh, poyabzal, maktab va sport jihozlari, musiqa asboblari, bolalar kutubxonasi va boshqalar) bo‘linmaydi hamda bolalar er va xotindan qaysi biri bilan yashasa, unga kompensatsiyasiz beriladi.

Er va xotinning umumiy mol-mulki hisobidan o‘rtadagi voyaga yetmagan bolalar nomiga qo‘yilgan omonatlar o‘sha bolalarga tegishli hisoblanib, er-xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lish paytida e’tiborga olinmaydi.

Er va xotinning umumiy mol-mulki ular nikohda turgan davrda bo‘lingan taqdirda, er va xotin mol-mulkining bo‘linmay qolgan qismi, shuningdek, er va xotin tomonidan ular nikohda turgan davrda orttirilgan mol-mulk keyinchalik ularning birgalikdagi umumiy mulkini tashkil qiladi.



### Huquq tarixidan

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993-yil 20-sentabrda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida 1994-yildan boshlab, har yili 15-may kuniini Xalqaro Oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilindi. Bu qarorni qabul qilishdan maqsad barcha taraqqiyparvar va tinchlikparvar insoniyat diqqatini inson o‘z umrini o‘tkazadigan, o‘z orzu umidlari, baxt-u saodatini hamda tinchligini ta’minlaydigan maskan — oilaning mustahkam bo‘lishiga qaratishdir.



M. turmush o'rtog'i T. bilan nikohdan ajratish va ularning bиргаликдаги мол-мulkларни bo'lib berish haqida da'vo arizasi bilan sudga mu-rojaat qiladi. M. o'z arizasida keltirilgan mol-mulklar ro'yxati qatorida ularga nikoh to'ylariga T.ning ota-onasi tomonidan sovg'a qilingan yumshoq mebellar to'plami va gilam borligini ko'rsatadi.

Hadya shartnomasi tuzilmagan bo'lsa-da, T. ota-onasi tomonidan to'ylariga sovg'a qilingan buyumlarni o'ziniki, deb qarshilik bildirdi.

Siz nima deb o'ylaysiz, kimning talabi qonuniy?



Fermer xo'jaligi yoki deh-qon xo'jaligi a'zolarining bиргаликдаги mulki bo'lган mol-mulkka nisbatan er va xotinning egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi va «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlar bilan tartibga solinadi.

Nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi talablariga nisbatan uch yillik da'vo muddati qo'llaniladi.

Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishda hamda ularning shu mol-mulkgagi ulushlarini aniqlashda, agar er va xotin o'rtasidagi nikoh shartnomasida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, er va xotining ulushlari teng deb hisoblanadi.

### Savol va topshiriqlar



1. Er va xotinning umumiy mol-mulk qanday bo'linadi?
2. Nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi talablariga da'vo muddati necha yilni tashkil qiladi?
3. Er va xotinning umumiy mol-mulk ular nikohda bo'lган davrda bo'linishi mumkinmi? Fikringizni asoslang.
4. Er va xotinning umumiy mol-mulk hisobidan o'rtadagi voyaga yetmagan bolalar nomiga qo'yilgan omonatlar er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish paytida e'tiborga olinadimi?

## 6-§ Er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi

Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:



- Nikoh shartnomasi.
- Nikoh shartnomasi shakli va mazmuni.
- Nikohning tugatilish asoslari.
- Nikohdan ajratish tartibi



O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha nikoh shartnomalarining qonunga muvofiqligiga e’tiroz bildirish, nikoh shartnomasini to‘liq yoki qisman haqiqiy emas, deb e’tirof qilish mumkin. Shartnomalar O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 31-moddasi talablariga zid bo‘lgan taqdirda, sud er-xotindan birining talabi bo‘yicha nikoh shartnomasini to‘liq yoki qisman haqiqiy emas, deb e’tirof qilishi mumkin. Er-xotin qonunda yo‘l qo‘yladigan barcha mulkiy-shartnomaviy munosabatlarga o‘zaro kirishishga haqlidir. Er-xotindan birining huquqlarini cheklab qo‘yishga qaratilgan shartnomalar haqiqiy emas.



Nikohni tegishli tartibda qayd et-tirmasdan turib, er-xotin bo‘lib yashash ularning mulkini er-xotining birgalikdagi umumiy mulki deb topish uchun asos bo‘lmaydi.

uni tuzgan shaxslar tomonidan ham, boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan ham e’tiroz bildirilishi mumkin.

Nikoh shartnomasida er-xotin oila xarajatlarini birgalikda ta’minalash va amalga oshirish, bir-birining daromadlarida ishtirok qilish bo‘yicha o‘z huquqlari va majburiyatlarini belgilab olish, nikoh bekor qilingan taqdirda er-xotinning har biriga beriladigan mulkni tayinlash, shuningdek, nikoh shartnomasiga er-xotining mulkiy munosabatlariga taalluqli boshqa qoidalarni kiritish huquqiga egalar.

Nikoh shartnomasi faqat shaxsan tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlar tarkibiga kiradi, shartnoma vakillar orqali tuzilishi mumkin emas.

Nikoh shartnomasi — nikoh bekor qilingandan so‘ng kimga qanday mulk tegishli bo‘lishini aniq belgilab beradi. Unda er-xotin o‘rtasida birgalikda orttirilgan mulk chegaralari belgilanadi, nikoh bekor qilingandan so‘ng do‘stona munosabatlar imkoniyati saqlanib qoladi.

## **Nikoh shartnomasining shakli va mazmuni**

Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuzilishi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.

### **Ijodiy faoliyat**



Aziz «Damas» rusumli avtomashinasining sotilganligini rasmiylashtirish uchun notariusga bordi. Notarius mashinaning hujjatlari va Azizing pasportini varaqlar ekan, avtomashinani sotishga rafiqasining roziliги kerakligini tushuntirdi.

Aziz: «Bu mening avtomashinam, mening nomimga olingan, o‘z mablag‘imga olganman. Xotinim ishlamaydi, uyda o‘tiradi», — deb tushuntirishiga qaramay, notarius oldi-sotdi shartnomasini rasmiylash-tirishdan bosh tortdi.

Notarius nima uchun shartnomani rasmiylashtirmadi?

Er va xotin nikoh shartnomasiga ko‘ra bиргаликдаги умумий мулкнинг қонунда бельгилangan тартиби о‘згартирishга, er va xotinning barcha mol-mulkiga, uning ayrim turlariga yoxud er va xotindan har birining mol-mulkiga nisbatan bиргаликдаги, ulushli yoki alohida egalik qilish tartibini o‘rnatishga haqlidir.

Nikoh shartnomalari, odatda, davlat ro‘yxatidan yoki boshqa maxsus ro‘yxatdan o‘tkaziladigan mulklarga nisbatan tuziladi. Nikoh shartnomasida qayd qilinmagan mulklarga nisbatan умумий bиргаликдаги mulk rejimi saqlanib qoladi. Nikoh shartnomasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar muayyan muddat bilan cheklanishi yoki muayyan shart-sharoitning yuzaga keliшини ham nazarda tutishi mumkin.

Notarial shakl shartnomaning ishonchlilagini anglatadi, taraflarning o‘zaro munosabatlariga aniq-ravshanlik kiritadi, nikoh shartnomasi tuzilganligi fakti va uning mazmuni bo‘yicha nizolar vujudga kelishi imkoniyatini istisno etadi. Nikoh shartnomasini tasdiqlashdan oldin notarius yuridik faktlarning zaruriy tarkibini tekshiradi.

U tomonlarning shaxsi, huquq layoqati, muomala layoqatini, ularning biridan ikkinchisiga o‘tayotgan



Nikoh shartnomasini notarial tasdiqlash uning қонуниyligini kafolatlaydi.

## Hуquq tarixidan



Nikoh shartnomasi ko‘p asrlardan beri xorijiy va milliy amaliyotda amal qilib kelmoqda. Qadimgi Rimdayoq bo‘lg‘usi er-xotinlarning mol-mulkiga oid bitimlar tuzilgan. Sharqiy va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida XVI-XIX asrlarda aholining turli qatlamlari o‘rtasida nikohdan oldingi kelishuvlar keng tarqalgan. Er-xotin mol-mulkining shartnomaviy rejimini tartibga soluvchi huquqiy vosita sifatida nikoh kontrakti institutining shakllanishi XVIII asrning oxiri-XIX asrning boshlarida Fransiya, Angliya, Germaniya, Avstriya va boshqa davlatlarda boshlangan.



Aziz va Shohista turmush davrida nikoh shartnomasini rasmiylashtirmoqchi bo'ldilar. Ular nikoh shartnomasi tuyayotgani to'g'risida o'z kreditorini (kreditorlarini) xabardor qilishlari shartmi?

Subyektiv huquqlarga egaligini aniqlashi lozim. Guvohlantirilgan nikoh shartnomasi notarial idoraning ish hujjalarda saqlanishi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi va agar taraflarga berilgan nusxalar yo'qotilsa, ular o'zlarining huquqlarini tasdiqlash uchun notarial arxivga murojaat qilishlari va nikoh shartnomasining dublikatini olishlari mumkin.

Er va xotinning mol-mulki huquqiy tartibini belgilaydigan nikoh shartnomasining shartlari uning mazmunini tashkil qiladi. Nikoh shartnomasi shartlarida tomonlarning nikohda va u bekor bo'lganida er va xotin mulkiy munosabatlarining muhim jihatlari bo'yicha nizomlar qayd etiladi. Qoidaga ko'ra, nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lg'usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin. Nikoh shartnomasiga er va xotin quyidagi qoidalarni kiritishga haqlidirlar:

- ➔ o'zaro moddiy ta'minot berish;
- ➔ oila xarajatlarini taqsimlash;
- ➔ bir-birining daromadida ishtirop etish;
- ➔ boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish;
- ➔ birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olish;
- ➔ nikohdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mol-mulkni aniqlab olish;
- ➔ er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqa qoidalar.

Nikoh shartnomasi er-xotinning kelishuvi bilan istalgan vaqtida o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Nikoh shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uning o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi ham

shunday shaklda amalga oshiriladi. Nikoh shartnomasini bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo‘l qo‘yilmaydi. Nikoh shartnomasi er-xotindan birining talabi bilan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan asoslar va tartibda sudning hal qiluv qarori bilan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

## Nikohning tugatilish asoslari.

### Nikohdan ajratish tartibi

Qonun hujjatlarida nikohni tugatish, bekor qilish va nikohdan ajratish to‘g‘risida normalar mavjud. Bunda nikohni tugatish umumiy va keng ma’no kasb etadi. Nikohning tugatilishi deganda ma’lum yuridik faktlar tufayli er-xotin o‘rtasida vujudga kelgan nikoh huquqiy munosabatlarining tugallanishi tushuniladi. Nikoh tugatilgan paytdan boshlab nikoh shartnomasining amal qilishi ham tugaydi. Agar nikoh shartnomasida nikoh tugatilganidan keyingi davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar ko‘rsatilgan bo‘lsa, ular yuridik kuchi ni yo‘qotmaydi. Vafot etish yuridik fakt bo‘lib, er-xotin o‘rtasidagi nikoh munosabatini bekor qiladi. Er-xotindan biri vafot etgan yoki sud tartibida vafot etgan deb e‘lon qilingan hollarda ular o‘rtasidagi nikohning huquqiy munosabati tugallanadi.

Oila kodeksida nikohdan ajralish uchun aniq asoslar ko‘rsatilmagan va buning iloji ham yo‘q, chunki er yoki xotin keltirgan asos ayrim hollarda nikohdan ajratish uchun yetarli deb topilsa, boshqa hollarda ajratish uchun asos bo‘la olmaydi. Shuning uchun Oila kodeksida nikohdan ajralishning sud amaliyoti quyidagicha belgilangan: «Agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo‘q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi».



Oila kodeksining 43-moddasiga muvofiq, agar er-xotindan biri:

- sud tomonidan bedarak yo‘qolgan deb topilsa;
- sud tomonidan ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomala-ga layoqatsiz deb aniqlansa;
- sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo‘lmagan mud-datga ozodlikdan mahrum qilingan bo‘lsa, o‘rtada voyaga yetmagan bolalari bor-yo‘qligidan qat‘i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko‘ra ular fuqarolik holati dalolat-nomalarini yozish organlarida nikohdan ajratiladi.



Nikohdan ajralish ariza beruvchilarning yashash joyidagi Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga ariza berilgan kundan boshlab uch oy muddat o'tgach qayd etiladi.

**Nikohdan sud tartibida ajratish.** Oila kodeksi nikohdan ajralishning asosiga qarab, buning quyidagi tartibini belgilaydi:

- 1) er-xotinlar o'rtasidagi mulkiy nizolar mavjud bo'lgan hollarda (masalan, mol-mulkni bo'lish, er-xotinlar o'rtasidagi hamda voyaga yetmagan bolalarga mod-diy ta'minot bilan bog'liq bo'lgan holatlar yuzasidan (aliment undirish masalasida) va boshqalar) sud tartibida ajratiladi;
- 2) nizo bo'lmanan taqdirda, jumladan, agar:
  - a) er-xotin o'rtasida voyaga yetmagan farzandlari bo'lmasa va ular ajralishga o'zaro rozi bo'lgan;
  - b) taraflar (er yoki xotin) sud tomonidan bedarak yo'qolgan, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan;
  - c) sodir etgan jinoyati uchun eri yoki xotini uch yildan kam bo'lmanan muddatga ozodlikdan mahrum qilib turishadi;
  - d) sodir etgan jinoyati uchun eri yoki xotini uch yildan kam bo'lmanan muddatga ozodlikdan mahrum qilib turishadi;


## Ijodiy faoliyat



Z. va A. erta turmush qurishdi. Nikohga kirishish vaqtida ikkovi 17 yoshda bo'lishgan. Z. 16 yoshligidan emansipatsiyaga ega bo'lib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib kelar edi. Shu sababli Z. nikohga kirishish vaqtida A.ga nikoh shartnomasi tuzishni taklif qildi.

Z. va A. nikoh shartnomasi tuzish va uni rasmiylashtirish maqsadida notarial idoraga murojaat qilganlarida, notarius ularning hali voyaga yetmaganliklarini, notarial tasdiqlangan bitim tuzish uchun ular hali yoshligini, yana ikki yildan so'ng kelishlari mumkinligini ta'kidlab, nikoh shartnomasini notarial tasdiqlashni rad etdi.


Notariusning harakatlari to'g'rimi?



lingan taqdirda, Oila kodeksining 42-43-moddalarida belgilanganidek, ma'muriy tartibda (FHDY organi orqali) nikohdan ajratiladi.

**Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohdan ajratish.** Nikohdan ajralishning sud bilan birga ma'muriy tartibi mavjud. Mazkur tartib er-xotinlik munosabatlarini bekor qilishning nisbatan oddiy va soddalashtirilgan tartibi hisoblanadi. Bunda nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida ajratiladi va sud jarayoni bo'lmaydi.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi arizani qabul qilgan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari ariza berilgan kundan uch oy o'tgandan keyin ajralishni rasmiylashtiradi va ularga nikohdan ajralish to'g'risidagi guvohnomani beradi. Shu vaqtidan boshlab nikoh tuggallangan hisoblanadi va sobiq er-xotin yangi nikohdan o'tish huquqini oladi. Uch oylik muddat er-xotinning yarashib ketishi uchun imkoniyat yaratish maqsadida belgilanadi.



## Savol va topshiriqlar



1. Nikoh shartnomasini fuqarolik huquqidagi boshqa shartnomalar bilan taqqoslang va nikoh shartnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan hamda kiritilishi mumkin bo'lmagan shartlarning o'zaro farqini tahlil qiling.
2. Nikoh shartnomasida nikoh tugatilganidan keyingi davr nazarda tutiladimi?
3. Nikohni tegishli tartibda qayd qilmay turib er-xotin bo'lish mumkinmi?
4. Nima uchun nikoh shartnomasi faqat shaxsan tuzilishi zarur bo'lgan bitimlar tarkibiga kiradi?

## II bo'lim. JINOYAT HUQUQI

### 7-§ Jinoyat huquqining maqsadi, vazifasi va tamoyillari

#### Ijodiy faoliyat



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida kafolatlangan fuqarolarning huquq va manfaatlarini, ularning himoya qilinishi va amalga oshirilishi mexanizmini aniqlang. Bu jarayonning buzilishi qanday huquqiy oqibatlarga olib kelishini O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi asosida aniqlab ko'ring.

Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jinoyat huquqining asosiy manbayi.
- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Jinoyat kodeksining vazifalari va prinsiplari.



#### O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jinoyat huquqining asosiy manbayi

Jinoyat hamda konstitutsiyaviy huquqlarning o'zaro bog'liqligi shubhasizdir. Jinoyat huquqining konstitutsiyaviy qonun-qoidalar bilan o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi ko'p qirrali bo'lib, u Konstitutsiyada mustahkamlangan hamda jinoyat qonuning asosiy vazifalari ni o'z ichiga oladi.

Jinoyat huquqi prinsiplari xalq hokimiyatchiligi, qonun ustunligi, ijtimoiy adolatlilik, insonparvarlik, demokratizm, fuqarolar tengligi, umuminsoniy qadriyatlar hamda umum e'tirof etilgan xalqaro huquq normalarining ustunligi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan boshqa shu kabi prinsiplarga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasida jinoyat huquqi prinsiplarining asosini Konstitutsiyada mustahkamlangan qonuniylik va fuqarolarning tengligi prinsipi tashkil etadi (O'ZR Konstitutsiyasining 14, 15, 18-m.). So'ngra jinoiy javobgarlik, jazo tayinlash va uni ijro etish, jazo-

dan ozod qilish kabi qoidalarni o‘zida mujassamlashtirgan prinsiplar aks ettirilgan.

Mazkur tizimga kiritilgan barcha prinsiplar o‘zaro teng qimmatlidir, zero, ularning har biri mustaqil mohiyatga ega bo‘lib, davlatning jinoyat huquqiga oid siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bir qator vazifalarni bajaradi.

Jinoyat huquqiga oid ko‘rsatmalarni qo‘llash vakolatlariga ega bo‘lgan davlat idoralarining mansabdor shaxslariiga normativ prinsiplarning ta’siri ularning faoliyatida Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan qoidalarni aniq va to‘g‘ri qo‘llashni, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida kafolatlangan fuqarolarning huquq va manfaatlariiga barcha choralar bilan rioya qilishni, o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishda shaxsiy mas’uliyat va tablabchanlik tuyg‘ularini oshirishni taqozo etadi.

Jinoyat qonunchiligining asosiy vazifalari sifatida shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, xususiy mulk, tabiiy muhit, tinchlik-osoyshtalik hamda insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash nazarda tutilgan.



Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlарини, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun kodeks javobgarlikning asoslarini va prinsiplarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralarini belgilaydi.

## O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 2-modda



Aybsizlik prezumpsiyasining ikki jihat mavjud, bиринчидан, muayyan jinoyat tarkibini aniqlash va shaxsni uni sodir etganlikda aybdor deb topish qonunga muvofiq ravishda amalga oshirilishi shart va, ikkinchidan, faqat sud hukmiga ko‘ra, shaxs aybdor deb topilib, Jinoyat kodeksida ko‘rsatilgan jinoiy javobgarlikka, jazoga yoki boshqa huquqiy ta’sir choralariga tortilishi mumkin.

Jinoyat qonunlarining vazifalari qatoriga jinoyat larning oldini olish kiradi. Ushbu vazifalar jinoyat huquqiga oid taqiqdan kelib chiqadi hamda ba’zi toifadagi shaxslarni jinoyat sodir etishdan qaytarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Jinoyat qonuni vazifalarini bajarish quyidagilar orqali amalga oshiriladi: javobgarlik asoslari va prinsiplarini aniqlash; jinoyat toifasiga kiritilgan qilmishlar doirasini aniqlash; jinoiy jazo choralarini tayinlash; jazodan tashqari huquqiy ta’sir choralarini tayinlash va hokazo. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda Jinoyat kodeksi qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga asoslanadi.

Mazkur tizimga kiritilgan barcha prinsiplar o‘zaro teng qimmatlidir. Ularning har biri mustaqil mohiyatiga ega bo‘lib, davlatning jinoyat huquqiga oid siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bir qator vazifalar ni bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqining asosiy prinsiplariga:

- ➔ *qonuniylik* — sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi. Hech kim sud hukmi bo‘lmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emas;
- ➔ *fuqarolarning qonun oldida tengligi* — jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega;

- ➔ *demokratizm* — jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari yoki ja-moalar jinoyat sodir etgan shaxslarni ahloqni tu-zatish ishiga qonunda nazarda tutilgan hollarda jalb qilishlari mumkin;
- ➔ *insonparvarlik* — jazo va boshqa huquqiy ta’sir chorralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko‘zlamasligi;
- ➔ *odillik* — jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi odilona bo‘lishi, ya’ni jinoyatning og‘ir-yengilligiga, aybning va shaxsnинг ijtimoiy xavflik darajasiga muvofiq bo‘lishi;
- ➔ shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo‘lishligi;
- ➔ *javobgarlikning muqarrarligi* — qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shartligi kiradi.

Jinoyat huquqi huquqning boshqa sohalaridan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

***birinchidan***, jinoyat sodir etilishi munosabati bilan vujudga kelgan jinoiy-huquqiy munosabatlarda, bir tomonidan jamiyat, davlat, ikkinchi tomonidan esa jinoyat sodir etgan shaxs subyekt bo‘ladi;

***ikkinchidan***, jinoiy-huquqiy norma bilan belgilab qo‘yilgan taqiqlarni buzganlik uchun sud davlat nomidan belgilangan jinoiy jazoni tayinlaydi.

Jinoiy huquq normalari o‘z mazmuniga ko‘ra ikki qismga bo‘linadi. Ulardan biri jinoyat huquqining umumiyligi o‘rnini, qoida va tartibini belgilab beradi. Ikkinchisi esa aniq jinoyatlar belgilarini ta’riflab, mazkur jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llani-

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida hech kim sud hukmisiz va qonunga nomuvofiq holda jinoyat sodir etishda aybdor deb topilishi va jinoiy jazoga tortilishi mumkin emasligi qayd etiladi? Ushbu moddaning aybsizlik prezumpsiysi bilan qanday aloqasi bor?

## Huquq tarixidan



O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunlari kodifikatsiya qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining asosiy jinoyat qonuni 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan hamda 1995-yil 1-apreldan kuchga kirgan Jinoyat kodeksi hisoblanadi.

ladigan jazolarni aniqlaydi. Birinchi normalar jinoyat huquqining umumiyligini, ikkinchi normalar esa maxsus qismini tashkil etadi.

Jinoyat huquqida jinoiy qilmishni aniqlash ham muhim rol o‘ynaydi. Jinoiy qilmish — bu jinoyat qonunlari bilan muhofaza qilinuvchi ijtimoiy munosabatlarga tahlid qiluvchi jamiyatga qarshi va inson ahloq qoidalari dan chetga chiquvchi harakatdir. Jinoiy qilmish o‘zining obyektiv xossalariiga ko‘ra jamiyat uchun xavfli harakat yoki harakatsizlik, subyektiv xossalariiga ko‘ra esa hamisha muayyan maqsad va sabablarga ko‘ra sodir etilgan aybli amal hisoblanadi.

Jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan har qanday ijtimoiy munosabat jinoyatning obyekti hisoblanishi mumkin. Har qanday ong bilan boshqarilgan qilmish ichki va tashqi mohiyatdan iborat bo‘lib, uning ichki mohiyati subyektiv tomoni, tashqi mohiyati esa obyektiv tomoni deb ataladi. Jinoyatning obyektiv tomoni ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi tomoni sifatida jinoyatning qanday sodir etilganligini aniqlaydi.

## Savol va topshiriqlar



1. Aybsizlik prezumpsiysi nima? Fikringizni asoslang.
2. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqining asosiy prinsiplarini tushuntiring.
3. Jinoyat qonun hujjatlarining asosiy vazifalari nimadan iborat?
4. Jinoiy huquq normalari o‘z mazmuniga ko‘ra necha qismga bo‘linadi va ularning vazifalari nimalardan iborat?

## 8-§ Jinoyat belgilari

### Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:



- Jinoyat belgilari. Ayb, ayb shakllari, qasd.
- Qilmishning jinoiyligini istisno etadigan holatlar.
- Ehtiyyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etish va uning oqibatlari.

Jinoyat boshqa qonunbuzarliklardan o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Bu qilmishning ijtimoiy xavfliligidir. Chunki jinoyat natijasida jamiyat va shaxs uchun ham moddiy, ham ma’naviy zarar yetkaziladi. Shuning uchun jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi jinoiy oqibatda aks etadi.

Jinoyatning qonunga xilofligi uning yuridik huquqiy belgisidir. Bundan tashqari, jinoyat sodir etgan shaxsning aybdor deb topilishi jinoyatning muhim belgilardan biridir. Shundagina unga nisbatan jinoiy jazo qo’llaniladi. Ijtimoiy xavfli qilmish faqat qonunda



### Ijodiy faoliyat



8-sinfda «O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari» fanidan olgan bilimlar ringizga tayanib, quyidagi savollarga javob berishga harakat qilib ko‘ring.

1. Jinoyat nima? Huquqbuzarlik bilan jinoyat o‘rtasida qanday farq bor?
2. Quyidagi voqealardan qaysi biri jinoyat bo‘lishi mumkin?
  - A. 9-sinf o‘quvchisi A. muntazam ravishda dars qoldirib kelgani uchun uning ota-onasi javobgarlikka tortildi.
  - B. Z. ismli 7-sinf o‘quvchisi qo‘shti hovlida o‘g‘rilik sodir etilayotganini bilgan bo‘lsa-da, bu haqida hech kimga xabar bermadi.
  - C. K. ismli fuqaro ifloslantiruvchi moddalarni ikki chelakda olib chiqib, uyi oldidan oqib o‘tayotgan kanalga to‘kib yubordi.



Jinoyat kodeksiga binoan ushbu kodeks bilan taqilangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

ko'rsatilgan jinoyat belgilari mavjud bo'lgan taqdirda, ya'ni uning tarkibi aniqlanganida jinoyat deb topiladi.

Jinoyat tarkibi jinoyat to'g'risidagi qonunlarda aniq bir ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb ta'riflovchi eng kam va yetarli obyektiv va subyektiv belgilar yig'indisidir. Jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilar o'rtasida o'zaro aloqa va uzviy bog'liqlik mavjud.

Jinoyat tarkibi tuzilishi bo'yicha to'rt elementdan iborat: obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomon.

Obyektiv, ya'ni tashqi belgilar jinoyatning obyekti va obyektiv tomonini ta'riflaydi.

Subyektiv (ichki) belgilar jinoyatning subyekti va subyektiv tomonini aniqlaydi.

Har bir belgi boshqalari bilan birlgilikda mavjud va ajralmas bir butunlikning zaruriy qismini tashkil qiladi.

**Jinoyat tarkibining birinchi elementi** jinoyat obyektidir. Bu jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar bo'lib, jinoiy tajovuzlar shularga qaratiladi. Qasddan odam o'ldirishda jinoyat obyekti boshqa shaxsning hayoti, o'g'rilikda esa o'zgalar mulki bo'ladi va hokazo.



## Ijodiy faoliyat

1. *Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri Hamroh ko'chasi 4-uy oldida turgan «Vagon Depo» AJga tegishli «Damas» rusumli avtomobilda elektr simlarning qisqa tutashuvi natijasida yong'in sodir bo'ldi. YONG'in natijasida avtomobil butkul yonib bitdi. YONG'in o'chirish vaqtida avtomobil haydovchisi J.S.ning tani kuyib, shifoxonaga joylashtirildi.*

2. *Andijon viloyatining Xo'jaobod tumanida yashovchi A.T.ning ochiq qolgan eshigi orqali uyiga noma'lum shaxslar kirib, 25.000.000 so'm pulini o'g'irlab ketdilar.*

Ushbu vaziyatlarda jinoyat belgilari bormi? Fikringizni yuqorida jinoyatga berilgan ta'rif asosida izohlang.

**Jinoyat tarkibining ikkinchi elementi** jinoyatning obyektiv tomonidir. Jinoyatning obyektiv tomonini atrof muhitda biron muayyan o‘zgarishga olib keladigan va sabab bo‘ladigan shaxsning aqliy va irodaviy xatti-harakati tashkil qiladi. Ushbu elementning zaruriy belgisi qilmish (harakat yoki harakatsizlik) hisoblanadi. Qilmish orqali jinoyat sodir etiladi.

**Jinoyat tarkibining uchinchi elementi** jinoyat subyekti, ya’ni jinoyat sodir etgan jismoniy shaxsdir. Jinoyat subyekti faqat qilmish uchun javob bera oladigan, ya’ni jinoyat to‘g‘risidagi qonunlarda ko‘rsatilgan ma’lum yoshga yetgan va aqli raso shaxs bo‘lishi mumkin.

**Jinoyat tarkibining to‘rtinchchi elementi** jinoyatning subyektiv tomonidir. Jinoyatning subyektiv tomoni shaxsning sodir etayotgan jinoyatiga nisbatan ruhiy munosabati hisoblanadi. Subyektiv tomon belgilari ayb, motiv va maqsad kiradi.

Jinoyat tarkibi deb topilishi uchun ko‘rsatib o‘tilgan to‘rtta elementning barchasi mavjud bo‘lishi shart. Umumiyl jinoyat tarkibida barcha belgilar asosiy va fakultativ belgilarga ajratiladi.

## Huquq tarixidan



«Jinoyat» tushunchasi ilk marotaba G‘arbiy Yevropa davlatlarining jinoyat to‘g‘risidagi qonun hujjalarda keltirilgan. Bu tushuncha birinchi marotaba Fransianing 1791-yildagi Jinoyat kodeksida uchraydi.

Jinoyat huquqi tarixida jinoyatga ta’rifni birinchi marta 1919-yilda Rossiya qonunshunoslari berishdi: «Jinoyat — jinoyat huquqi bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar tartibining buzilishidir».



Jinoyat — jazoga loyiq qilmish. Shunga ko‘ra, qilmishning jinoyat sifatidagi eng muhim belgisi uning jazoga loyiqligidir. Jinoyat boshqa huquqbuzarliklardan quyidagi belgilari bilan farqlanadi: 1) obyekti; 2) ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyati; 3) g‘ayriqonuniylik ko‘rinishi.





Barcha jinoyatlarning umumiy obyekti jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarning umumiy yig'indisidan iborat bo'la-di. Umumiy obyekt hamma jinoyatlar uchun birdir, sababi har qanday jinoyat u yoki bu ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadi.

Jinoyatning subyektiv tomoni faqat ayb shakllari, ya'ni qasd va ehtiyyotsizlik bilan cheklanib qolmaydi, u motiv va maqsadlarni ham o'z ichiga oladi. Lekin subyektiv tomonning ajralmas belgilari bo'lmish qasd va ehtiyyotsizlikdan farqli o'laroq, motiv va maqsad ikkinchi darajali belgilarga kiradi.

Jinoyat sodir etgan shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan va shunga qaramay, uni sodir etishni istagan bo'lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Jinoyat qonunchiligidagi to'g'ri yoki egri qasd degan tushunchalar mavjud. Shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishidan bosh tortmagan bo'lsa, bunday jinoyat to'g'ri qasddan sodir etilgan deyiladi.

Agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday jinoyat egri qasddan sodir etilgan deb topiladi. O'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik oqibatida sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish — ehtiyyotsizlik tufayli sodir etilgan jinoyat deb topiladi.



## Ijodiy faoliyat

### Mazkur vaziyatda jinoyat obyektini aniqlang.

Toshkent viloyatining Toshkent tumani «Ko'kterak» qishlog'i fuqarolarigina yig'ini hududidagi xonadonlarning biriga yuziga niqob kiygan nomalum shaxs bostirib kirdi. Shu vaqtda uyda yolg'iz bo'lgan xonadon egasining qizini pichoq bilan qo'rqitib, 300 AQSh dollari va ikki xil zargarlik buyumlarini olib ketdi. Olib borilgan tezkor tadbir natijasida, ushbu bosqinchilik jinoyatini sodir etgan 1994-yilda tug'ilgan A.N. qo'liga olindi. Unga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 164-moddasi 3-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

*O'zbekiston Respublikasi IIV Matbuot xizmati*

Qilmishda Jinoyat kodeksda nazarda tutilgan aلومатлар рasmий jihatdan mavjud bo‘lsa-da, lekin u ijtimoiy xavfli, g‘ayriqonuniy yoki aybli bo‘lmasa, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb topiladi. Ya’ni kam ahamiyatlari qilmishlar; zaruriy mudofaa; oxirgi zarurat; ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash chog‘ida zarar yetkazish; buyruq yoki boshqacha tarzdagи vazifani bajarish; kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilik; jismoniy yoki ruhiy majburlash yohud qo‘rqtish natijasida qilmish sodir etish jinoyatni istisno qiluvchi holatlar deb topiladi.

## Savol va topshiriqlar



1. Jinoyat boshqa huquqbuzarliklardan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?
2. Jinoyat belgilarini tushuntirib bering.
3. Aybli qilmish deganda nimani tushunasiz?
4. To‘g‘ri va egri qasd deganda nimani tushundingiz?
5. Quyida berilgan vaziyatlarda jinoyat aلومатлари bormi? Ulardan qaysi biri ehtiyoitsizlik oqibatida sodir etilgan?
  - 1) *Noma'lum shaxs eshigi ochiq holda qoldirilgan VAZ-21099 avtomashinasini haydar qochgan.*
  - 2) *Bir qiz ishdan qaytayotgan paytda noma'lum shaxs qo‘lidagi sumkani yulib olib qochgan. Sumka ichida esa oziq-ovqatlar va uyali telefon bo‘lgan.*
  - 3) *Xususiy korxonaga qarashli ko‘piklangan polietilen ishlab chiqarish sexida yong‘in sodir bo‘layotganligi haqida habar kelib tushgan. Yong‘inni o‘chirish vaqtida xususiy korxona ishchisining jasadi topilgan. Yong‘inni bartaraf etishga 19 ta yong‘inni o‘chirish texnikasi jalgan.*



Subyektiv tomonning mazmunida jinoyat motivi va maqsadlari alohida o‘rin tutadi. Motiv va u bilan bog‘liq maqsad aybdor shaxs xatti-harakatini boshqaruvchi butun irodaviy jarayonga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shaxs uchun u sodir etgan qilmish qanday ma’no va ahamiyatga ega ekanligi aynan motivga bog‘liq.

## 9-§ Jinoiy javobgarlik va jazo tizimi

**Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:**



- Jismoniy shaxslarning jinoiy javobgarligi.
- Jazo tushunchasi va uning turlari.



Jinoiy oqibat deganda ijtimoiy xavfli qilmish natijasida jinoiy-huquqiy qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar (ziyon) yetkazish tushuniladi.



Jinoyat huquqiga oid munosabat bu jinoyat huquqi normalari orqali tartibga solinadigan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs va davlat orasidagi munosabatdir.

Jinoyatni har doim aniq jismoniy shaxslar sodir etadi. Shuning uchun ham jinoyat sodir etgan shaxs jinoyatning subyekti deb tan olinadi. Jinoyat subyekting yo‘qligi jinoyat tarkibi va jinoyatning o‘zi mavjud emasligini bildiradi.

Jinoyatga oid qonunlarda subyektga nisbatan aybdor, mahkum, jinoyat sodir etgan shaxs, jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxs kabi tushunchalar ishlataladi.

Yuridik shaxslar, ya’ni tashkilotlar, korxonalar, muassasalar va jamoat birlashmalari jinoyat subyekti bo‘la olmaydi. Shuning uchun ijtimoiy xavfli harakat davlat korxonasi, muassasa, tashkilot va jamoat birlashmalarida xizmat yoki ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq holda sodir etilsa, mazkur vazifaga mas’ul bo‘lgan tegishli mansabdar shaxslar yoki boshqa xizmatchilar jinoyat subyektiga aylanadi.

Jinoyat subyektining aqli raso bo‘lishi shart, ya’ni u o‘z harakati yoki harakatsizligining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan bo‘lishi va ularni boshqara olishi shart.

Aqli rasolik ayb va jinoiy javobgarlikning zaruriy shartidir. Faqat o‘z harakati yoki harakatsizligining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va ularni boshqara olgan shaxslar, aybdorni tuzatish maqsadida, jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Shaxsning qonun bilan belgilangan jinoiy javobgarlik yoshiga yetganligi jinoyat subyektining zaruriy belgilaridan biri hisoblanadi.

Qonunda yosh chegarasi aniq tartibga solinganligi jinoyat sodir etgan shaxsning yoshini (kun, oy, tug‘ilgan yilini) to‘g‘ri belgilash zaruratini tug‘diradi. Bu zarurat Jinoyat-protsessual kodeksining 314-moddasida qayd etilgan.

Jinoyat kodeksida mustahkamlangan fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi konstitutsiyaviy prisipning takrori bo‘lmay, balki uning joriy etilishidir.

Jinoyat kodeksiga binoan ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi. Jinoyatda ishtirokchilik avvaldan til biriktirish, qasddan sodir etish kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Jinoyat qonunida to‘rt turdag‘i jinoyat ishtirokchilarri farqlanadi: bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi. Mazkur turlarni ajratish asosiga obyektiv mezon qo‘yilgan bo‘lib, u har bir ishtirokchining jinoyat sodir etishda ishtirok etish darajasi va xususiyati bilan bog‘liq.

Jinoyatni bajaruvchilar deb: a) bevosa o‘zlari to‘liq yoki qisman jinoyat sodir etgan shaxslar; b) bevosa o‘zlari jinoyat sodir etmagan, biroq shu maqsadda jinoyat qonunlariga muvofiq, jinoiy javobgarlikka tortiliishi mumkin bo‘limgan shaxslardan foydalangan shaxslar tan olinadi.

Yoshi yoki aqli norasoligi tufayli jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘limgan yoki ehtiyyotsizlik yoxud aybsiz harakat qilgan shaxslarni qasddan jinoyat sodir etishga jalb etgan shaxs sodir etilgan jinoyatning ishtirokchisi deb tan olinadi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs tashkilotchi deb topiladi.



## Jismoniy shaxslarning javobgarligi

Jinoyat sodir etgunga qadar o‘n olti yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

Jinoyat sodir etgunga qadar o‘n uch yoshga to‘lgan shaxslar javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirganliklari (97-modda ning ikkinchi qismi) uchungina javobgarlikka tortiladilar...

**O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 17-modda**



Jinoyatning subjekti deb jinoyat qonunida ko‘rsatilgan, ijtimoiy xavfli harakatni qasddan yoki ehtiyyotsizlik oqibatida sodir etgan, ma’lum yoshga to‘lgan, aqli raso, alohida hollarda Jinoyat kodeksi Maxsus qismi tegishli normalarida ko‘rsatilgan maxsus belgilarga ega bo‘lgan jismoniy shaxsga aytildi.



Tug‘ilgan kuni ning ertasi soat 00:00 dan boshlab shaxs jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan hisoblanadi.

Jinoyat sodir etishda rahbarlik qilish bajaruvchilar va hamkor bajaruvchilar kuchini bevosita jinoiy qilmishni bajarishga yo‘naltirish bo‘yicha faoliyatni bildiradi.

Dalolatchilik boshqa shaxsni jinoyat sodir etish yoki jinoiy faoliyatda ishtirok etishga undashda o‘z aksini topadi. Undash dalolatchining boshqa shaxslarda jinoyat sodir etishda ishtirok etish yoki jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish ishtiyoqini shakllantirishga qaratilgan faol va tashabbuskor xatti-harakatidan iborat.

Jinoyatni sodir etishda ko‘maklashgan shaxs yordamchi hisoblanadi.

Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo‘llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburiy chorasidir.

Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to‘sinqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo‘llaniladi.

Majburiy jamoat ishlari pensiya yoshiga yetgan shaxslarga, o‘n olti yoshga to‘limgan shaxslarga, homilador ayollarga, uch yoshga to‘limgan bolalari bor ayollarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga, harbiy xizmatchilarga, chet el fuqarolariga va O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Ozodlikni cheklash voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan asosiy jazo chorasi sifatida olti oydan ikki yilgacha muddatga tayinlanadi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi olti oydan o‘n yilgacha muddatga tayinlanadi.

O‘n uch yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan vaqtida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyatlar maj-

muyi tariqasida jazo tayinlanganda ozodlikdan mahrum qilishning eng ko‘p muddati o‘n yilgacha, agar sodir etgan jinoyatlarining bittasi o‘ta og‘ir jinoyat bo‘lsa, o‘n ikki yilgacha tayinlanadi.

O‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan vaqtida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyatlar majmuyi tariqasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi — o‘n ikki yilgacha muddatga, agar sodir etgan jinoyatlarining bittasi o‘ta og‘ir jinoyat bo‘lsa, o‘n besh yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin.

Jinoyat sodir etish paytida o‘n uch yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan bir necha hukm yuzasidan tayinlanadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddati o‘n besh yildan oshmasligi kerak.

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o‘n uch yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan og‘ir jinoyat uchun — olti yilgacha, o‘ta og‘ir jinoyat uchun — o‘n yilgacha muddatga tayinlanadi.



Jinoyat sodir etishga qiziqti-ruvchi shaxs dalolatchi deb topiladi.



Jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralar jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko‘zlamaydi.



## Huquq tarixidan

Shu yilning o‘zida mahalla fuqarolari yig‘inlari kafilligi asosida – 152 nafar, Yoshlar ittifoqi kafilligi asosida – 18 nafar, xotin-qizlar qo‘mitalari kafilligi asosida – 3 nafar, jami 173 nafar fuqaroga nisbatan jazo tayinlashda jamoatchilik kafilligi e’tiborga olindi. Bu fuqarolarning 38 nafarini yoshlar, 18 nafarini voyaga yetmaganlar, 11 nafarini ayollar tashkil etadi. Masalan, birgina Shayxontohur tumanida 15 nafar shaxsga nisbatan jazo tayinlashda mahalla fuqarolar yig‘inlarining kafilligi e’tiborga olindi.

**Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdag‘i nutqidan**



Jarima aybdordan davlat daromadiga qonunda belgilangan miqdorda pul undirishdir.



Majburiy ja-moat ishlari mahkumni haq to‘lanmaydigan foydali jamoat ishlarini bajarishga majburiy tarzda jalg qilish.

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan og‘ir jinoyat uchun — yetti yilgacha, o‘ta og‘ir jinoyat uchun — o‘n yilgacha muddatga tayinlanadi.

Voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo‘lмаган jinoyat sodir etgan, ehtiyoitsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan yoxud qasddan uncha og‘ir bo‘lмаган jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi.

Hukm chiqarish paytida o‘n sakkiz yoshga to‘lмаган shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazo-sini tarbiya koloniyalarda o‘tash tayinlanadi.

## Savol va topshiriqlar



Berilgan vaziyatlarni o‘qing va jinoyat ishtirokchilarini aniqlang.

- 1. N.B. IIBga murojaat qilib, noma'lum shaxs uning mobil telefonini qo‘lidan tortib olib qochganini ma'lum qildi. Ko‘rilgan choralar natijasida ushbu jinoyatni N. ismli shaxs sodir etganligi aniqlanib, qo‘lga olindi.*
- 2. Noma'lum shaxs tadbirkor U.X.ga qo‘ng‘iroq qilib, undan katta miqdorda pul va 6 ta qopda un mahsulotini qarzga olgan. U tez orada bu unni bir korxonaga sotishi va qarzni qaytarib berishini bildirgan. Ammo na pulni, na unni qaytargan. U.X. bu haqda ichki ishlar organlarini xabardor qilgach, ko‘rilgan choralar natijasida ushbu jinoyatni Q. ismli shaxs sodir etganligi aniqlanib, qo‘lga olingan.*

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar boshqarmasi ma'lumotlari asosida*

## Qo'shimcha ma'lumot uchun



T/r	Afv	Amnistiya
1.	Muayyan shaxslar uchun, ularning shaxsini tavsiflovchi ma'lumotlarni (yoshi, sog'ligining holati, oilaviy ahvoli) inobatga olib jazodan ozod qilish hisoblanadi.	Amnistiya aniq shaxslarga emas, umumiy toifalarga e'lon qilinadi. Bunda amnistiyaga necha kishi tushishi, kimlar tushishi oldindan aniq bo'lmaydi.
2	Afv faqat sud hukmi bilan jazo tayinlangan mahkumlarga e'lon qilinadi	Amnistiya jinoyat jarayonining istalgan bosqichida – dastlabki tergov, surishtiruv, tergova qadar tekshiruv va hattoki jinoyat ishini qo'zg'atishgacha bo'lgan bosqichda ham qo'llanilishi mumkin.
3	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga binoan afv faqat Prezident tomonidan e'lon qilinadi.	Amnistiya akti Prezident taqdimnomasiga binoan Oliy Majlisning Senati tomonidan e'lon qilinadi.
4	Afvni qo'llash uchun odatda jinoyat sodir etgan shaxslarning iltimosnomasi asos bo'ladi.  Afvni qo'llash masalasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi afv etish masalalari bo'yicha maxsus komissiya hal qiladi.	Amnistiya aktini qo'llashda hech qanday iltimosnomalar talab etilmaydi.  Amnistiya aktlarini qo'llash masalasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jazoni ijro etish muassasalari va sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi. 2008-yildan boshlab, amnistiya aktini qo'llashga oid yakuniy qarorni faqat sudlar chiqarishi belgilab qo'yilgan.

## Xalqaro e'tirof

O'zbekiston dunyoning eng xavfsiz mamlakatlari ro'yxatida 2-o'rinni egalladi. Tahlil davomida 135 ta mamlakat maydoni, xavfsizlik holati, qonun ustuvorligi va tartib kabi bir necha toifalar bo'yicha so'rovnomalar o'tkazilib, baholandi. Mamlakatlar 100 ball tizimida baholandi. Ro'yxatning 1-o'rnnini 97 ball bilan Singapur egalladi. O'zbekiston 95 ball bilan 2-o'rinda joylashdi. Islandiya 92 ball bilan 3-o'rinda. Dunyoning eng xavfli mamlakati deb esa Venesuela e'lon qilindi.

T/r	Afv	Amnistiya
5	Afvni qo'llash qabul qilinishi bilan darhol ijro etiladi, Buning uchun yana alohida bosqichlardan o'tish shart emas.	Amnistiya akti chiqqandan keyin, uni kimlarga qo'llash masalasini hal qilish uzoqqa cho'ziladi va ko'plab tashkiliy jarayonni o'z ichiga oladi.
6	Afv huquqiy oqibatlari kamroq bo'ladi. Bular: 1) asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazodan to'liq yoki qisman ozod etiladi; 2) jazodan muddatdan ilgari shartli ravishda ozod etiladi; 3) umrbod ozodlikdan mahrum etish yoki boshqa o'talmagan jazoni nisbatan yengilroq jazo bilan almashtiriladi; 4) sudlanganlik olib tashlanadi.	Amnistiya aktining huquqiy oqibatlari kengroq bo'ladi: 1) shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi; 2) mahkum asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazodan ozod etiladi; 3) mahkumga tayinlangan asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazo qisqartiriladi (kamaytiriladi); 4) mahkum jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etiladi; 5) mahkumga tayinlangan jazoning o'talmagan qismi yengilrog'i bilan almashtiriladi; 6) jinoyat sodir etgan shaxsdan sudlanganlik muddatidan ilgari olib tashlanadi.



Odamgarchiligi  
bor mard ki-  
shi o'zidan va  
o'ziniki ekan-  
ligiga hech kim  
tortishib o'tir-  
maydigan nar-  
sadan boshqasiga  
egalik qilmaydi.

Quyidagi jadvalni daftaringizga chizing va to'ldiring. Amnistiya va afvning asosiy farqlari bo'yicha sa-vollarga javob bering.

Savollar	Afv	Amnistiya
Kim qabul qiladi?		
Kimlarni qamrab oladi?		
Kimlarga qo'llanadi?		
Kechirim hujjatining tashabbuskorি kim bo'ladi?		
Shaxsiy omillar (tavsif) qarorga ta'sir qiladimi?		

# 10- Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan 11-§ huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar

Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:




- Shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar.
- Xat-yozishmalar, telefonda so‘zlashuv, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibi.
- Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzishning huquqiy oqibati.

Shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlarga:

- odam savdosi,
- ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to‘sqinlik qilish,
- odam o‘g‘rilash,
- zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodlik-dan mahrum qilish,
- tuhmat,
- haqorat qilish kiradi.

Ushbu jinoyatlarning obyekti shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmati hisoblanadi. Jinoyatlar to‘g‘ri qasd bilan amalga oshiriladi.

Odam savdosi bugungi kunda eng global muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Odam savdosi odamni olish-sotish yoxud undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishda





Odamlarni ekspluatatsiya qilish – boshqa shaxslardan o‘z niyatiga ko‘ra foydalanish yoki jinsiy majburlashning turlari, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qulchilik, erkidan mahrum qilish yoki inson a’zo-to‘qimalari ning transplantatsiyasi hisoblanadi.

namoyon bo‘ladi. Bunda odamlarni o‘g‘irlash zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Jinoyat shaxsning hayoti va sog‘lig‘i daxlsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlarga nisbatan sodir etiladi. Jinoyat boylik orttirish va boshqa g‘arazli maqsadlarda aldash yo‘li bilan odam savdosini amalga oshirishda ifodalanadi.

Odam savdosiga odam oldi-sotdisi, ya’ni uni sotuvchiga berilgan ma’lum miqdordagi pul mablag‘i yoki boshqa mulkiy ekvivalent evaziga boshqa odam ixтиyoriga topshirish kiradi.

### **Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to‘sinqinlik qilish**

Ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish, ayolning roziliginiz uyylanish maqsadida uni o‘g‘rilash, shuningdek, ayolning erga tegishiga to‘sinqinlik qilish ham jinoyat sanaladi.

Mazkur jinoyatning sodir etilish motivi jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.



Barcha odamlar qonun oldida teng va hech qanday kamsitishlarsiz qonun bilan teng himoyalanish huquqiga egadirlar. Shu munosabat bilan har xil kamsitishlar qonun yo‘li bilan man etilishi va qonun barcha shaxslarga biror-bir belgi bo‘yicha, aytaylik, irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e’tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy mavqeyi, tug‘ilishi yoki boshqa sharoitlar bo‘yicha kamsitishlarga qarshi teng va samarali himoyani kafolatlashi lozim.

### **Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 26-moddasi**

## Odam savdosi jinoyati bo'yicha jabrlanuv-chilarning ekspluatasiya jarayoni

- Ishlab chiqarish va qishloq xo'jalik ishlarida foydalanish
- Uy-ro'zg'or ishlarida foydalanish
- Tilamchilikka majburlash
- Sun'iy onalik va bola tug'ishga majburlash
- Majburiy nikoh, jinsiy erkinligiga qarshi harakatlar
- Inson to'qimalarini transplantatsiya qilish

Aksariyat hollarda jinoyat ayolning ota-onasi, aka-ukasi, opa-singillari, yaqin qarindoshlari, kuyov tomonidan sodir etiladi.

## Odam o'g'rakash

Mazkur jinoyatning obyekti odamning erkinligi, ya'ni istagan yerida bo'lishi erkinligini kafolatlovchi ijtimoiy munisabatlар hisobланади.

Bu jinoyatga Jinoyat kodeksining 245-moddasida nazarda tutilgan hollardan tashqari barcha turdag'i odam o'g'rakashlar kiradi.

Odam shaxsiy erkinligidan mahrum qilingan paytdan e'tiboran jinoyat tugallangan hisobланади.

## Zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish

Tahlil etilayotgan jinoyatning obyekti jabrlanuv-chining shaxsiy ozodligi hisobланади. Jinoyatning obyektiv tomoni zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda shaxsni harakat qilish erkinligidan mahrum etish, jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatish, uning



Ayolni erga tegishga yoki nikohda birga yashashni davom etti-rishga majbur qilish deganda unga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik ishlatilishini tushunish lozim.





Odamni o‘g‘rilash deganda, odamning yashirincha, oshkora yoki aldash yoxud ishonchini suiiste‘mol qilish yo‘li bilan shaxsiy erkinligidan mahrum qilinishini tushunish zarur.



Tuhmatchi bir soatda bir oyga tatigulik fitna qo‘zg‘atadi.

**Alisher Navoiy**

qayerda bo‘lishini erkin tanlash huquqini cheklash kabi xatti-harakatlarni sodir etishda ifodalanadi.

Jabrlanuvchi ozodlikdan mahrum qilingan paytdan e’tiboran jinoyat tugallangan, deb hisoblanadi. Ushbu jinoyat to‘g‘ri qasd bilan ta’magirlik niyatida sodir etiliishi bilan ajralib turadi.

## **Tuhmat**

O‘rganilayotgan jinoyat uch qismdan iborat. Tuhmatning obyekti shaxsning sha’ni va qadr-qimmati hisoblanadi. Sha’n insonning ichki axloqiy qadr-qimmati, halolligi, oliyjanobligi, vijdoni, umuman olganda, sha’n insonning ma’naviy va ijtimoiy fazilatlarini belgilovchi tushuncha. Jinoyat tuhmat yolg‘onligini bila turib, boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalarni tarqatishda ifodalanadi. Aniq dalillarga ishora qilinmagan umumiylumotlarni oshkor etish tuhmat hisoblanmaydi. Uydirmalarni tarqatish usuli har xil, masalan, og‘zaki, yozma, biror tasvir ko‘rinishidagi lavha va hokazo bo‘lishi mumkin. Jinoyat yolg‘onligi oldindan ayon bo‘lgan ma’lumotlar tarqatilgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.



Har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o‘tkazishi yoki uni ko‘zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so‘zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 27-modda**

## Haqorat qilish

Haqorat qilish shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlashdan iboratdir. Haqorat qilish og'zaki yoki yozma ravishda bo'lishi mumkin. Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan tahqirlashga qaratilgan xatti-harakat sodir etilgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi.

Haqorat qilish odatda bevosita sodir etiladi, ammo jabrlanuvchi bu haqda xabar topadi, degan taxmin bilan sirdan sodir etilishi ham mumkin. Vositachi orqali haqorat qilingan hollar ham uchraydi. Xafa qilish har xil bo'lishi mumkin, ammo ularning hammasi ham haqorat bo'lavermaydi. Haqorat har doim ma'lum bir shaxsga qaratilgan bo'ladi.

## Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariiga qarshi jinoyatlar tarkibiga mamlakatimiz Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan huquqlarni buzish kabi jinoyatlar kiradi. Bular:

### Ijodiy faoliyat

1. Tuhmat va haqorat qilishning bir-biridan farqi nimadan iborat?
2. Quyidagi vaziyatlardan qaysi birini tuhmat, qaysi birini haqorat deb tavsiflash mumkin?

*A. ko'pchilik oldida G. ismli o'rtoq 'ini: «Sen kecha mening mobil telefonimdan foydalanib, qaytarib bermading. Sen o'g'risan!» – deb aybladi. G. esa o'zini oqlash uchun: «Men sening telefoningni olganim yo'q, men ga ham kecha shunaqa telefon sovg'a qilishgandi», – deb javob berdi.*

*Aslida A. o'zining telefonini sport kiyimining cho'ntagida qoldirgan, telefoni esa quvvatsizlanib qolganligi uchun ishlamayotgandi.*



Insonning qadr-qimmati deganda dunyo-qarashining darajasi, aql-zakovati, turmush tarzi kabi insonning obyektiv jihatlarini tavsiflovchi ijobiy sifatlar yig'indisini tushunish zarur.





Fuqarolar teng huquqliligining buzilishi ularga o‘z huquqlarini amalga oshirish imkonini bermaslik yoxud ularning o‘z huquqlarini amalga oshirishlariga to‘sinqilik qilish (masalan: jinsi, irqi, millati va h.k. kelib chiqib, ishdan bo‘shatish, istiqomat joyida ro‘yxatdan o‘tishiga, ishga qabul qilinishiga, o‘qishga kirishi-ga yo‘l qo‘ymaslik) dan iborat bo‘lishi mumkin.

- ➔ fuqarolarning teng huquqlilagini buzish;
- ➔ shaxsiy hayot daxlsizligini buzish;
- ➔ fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish;
- ➔ xat-yozishmalar, telefonda so‘zlashuv, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish;
- ➔ jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish;
- ➔ vijdon erkinligini buzish;
- ➔ saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o‘tkazish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish;
- ➔ saylov huquqining yoki ishonchli vakil vakolatlarining amalga oshirilishiga to‘sinqilik qilish;
- ➔ mehnat qilish huquqini buzish;
- ➔ mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish.

### **Fuqarolarning teng huquqlilagini buzish**

Mazkur jinoyatlarning obyekti fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklaridir.

Fuqarolarning teng huquqlilagini buzish jinoyat jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeyidan, kelib chiqishi-



dan qat'i nazar fuqarolarning huquqlarini buzish yoki cheklash yoxud fuqarolarga bevosita afzalliklar berishda ifodalanadi.

## **Shaxsiy hayot daxlsizligini buzish**

Bu jinoyat shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uning roziligesiz qonunga xilof ravishda yig‘ish yoki tarqatishda ifodalanadi.

## **Fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish**

Jinoyat yashovchilarining erkiga qarshi zo‘rlik ishlatab, g‘ayriqonuniy ravishda turar joyga bostirib kirishda ifodalanadi.

## **Xat-yozishmalar, telefonda so‘zlashuv, telegraf yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish**

Jinoyat shaxslarning pochta-telegraf xabarları yoki telefonda so‘zlashuvning mazmuni va hokazolar bilan g‘ayriqonuniy tanishuvida yoxud fuqarolarning xatlari, telegrammalari, telefaks orqali, elektron pochta va h.k. orqali xabar qilinayotgan ma’lumotlarni shu axborotlar egasining roziligesiz oshkor etilishida ifodalanadi.

## **Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish**

Mazkur modda fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan ariza berish, davlat hokimiyat organlari, korxonalari, muassasalari va jamoat hayotining boshqa sohalari faoliyatini erkin tanqid qilish huquqini jinoyat huquqi tomonidan himoya qilishning muhim vositasi hisoblanadi.

Jinoyat fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonunni buzishga qaratilgan har xil harakatlar bo‘lib, u



G‘ayriqonuniy ravishda bostirib kirish deganda, aybdor shaxsning turar joy egasining ruxsatlisiz va ularning erkiga xilof ravishda, huquqiy asoslarsiz shaxsning turar joyiga kirishga qaratilgan xatti-harakatlarning (masalan, g‘ayriqonuniy ravishda ko‘chirish, ruxsatnomasiz tintuv o‘tkazish, o‘zganing turar joy maydoniga o‘zboshimchalik bilan ko‘chib kirish va h.k.) sodir etilishini tushunish lozim.



Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dingga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dingga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 31-modda**

fuqarolar, jamiyat va davlatning qonun bilan muhofaza etiladigan huquqlariga jiddiy zarar yetkazishda ifodalanadi.

### **Vijdon erkinligini buzish**

Jinoyat diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyatiga yoki diniy marosimlarning o'tkazilishiga to'sqinlik qilishda ifodalanadi. Vijdon erkinligi diniy faoliyatning faqat qonun doirasida amalga oshirilishidir.

Voyaga yetmagan shaxslarni diniy tashkilotlarga jalb etish, diniy tashkilot faoliyatida ishtirok etishga ko'ndirishga qaratilgan qilmish sodir etilgan paytdan boshlab tugallangan jinoyat, deb e'tirof etiladi.

Qonunga xilof ravishda diniy ta'limotga o'qitish deganda voyaga yetmagan shaxslarga ularning xohishiga qarshi, ota-onalari yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslarning xohish-irodasiga qarshi din to'g'risidagi bilimlarni singdirishning har xil ko'rinishlarini tushunish lozim.

### **Saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish**

Fuqarolarning erkin ovoz berish huquqi, saylovlar yoki referendumlarni tashkil etish, o'tkazishning belgilangan tartibiga qarshi harakat yoki harakatsizlikdir.



O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi...

### **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 32-moddasidan**

Jinoyat:

- 1) ovoz berishning yashirinligini buzishga;
- 2) saylov yoki referendum hujjatlarini qalbakilash-tirishga;
- 3) saylov yoki imzo varaqalariga soxta yozuvlar kiritishga;
- 4) saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish vaqtida berilgan ovozlarni ataylab noto'g'ri hisoblashga qaratilgan xatti-harakatlarni sodir etishda ifodalanadi.

Jinoyatning saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazishda ishtirok etuvchi mansabdar shaxs, siyosiy partiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillari, tashabbuskor guruhlar, saylov komissiyalari yoxud referendum komissiyalarining a'zolari tomonidan sodir etilishi mumkin.

### **Saylov huquqining yoki ishonchli vakil vakolatlarining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish**

Jinoyat obyekti – insonning saylash yoki saylanish, saylovoldi tashviqotini olib borish, referendumni o'tkazishda ishtirok etish, saylovoldi tashviqot olib borish, nomzod shaxs ishonchli vakillarining o'z vakolatlarini



Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi.



### **Ijodiy faoliyat**

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining maxsus qism VI–VII boblarida berilgan moddalarini o'qing.

1. Ushbu jinoyatlar subyektlarini va subyektiv tomonlarini aniqlang.
2. Mazkur jinoyatlarning obyektlari va obyektiv tomonlarini aniqlang.
3. Ushbu boblarda ko'rsatilgan jinoyatlarning oldini olish uchun qanday choralar ko'rish kerak deb o'ylaysiz?
4. Jinoyat sodir etmaslik uchun shaxsning huquqiy ongi yoki huquqiy madaniyati yuqori bo'lishi kerakmi? Javobingizni asoslang.



amalga oshirish huquqini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir. Jinoyat zo'rlik ishlatish, qo'rqitish, aldash yoki og'dirib olish yo'li bilan fuqarolarning o'z saylash huquqlarini erkin amalga oshirishlariga to'sqinlik qilishda yoki deputatlikka yoxud O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning ishonchli vakillari o'z vakolatlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilishda ifodalanadi.

### **Mehnat qilish huquqini buzish**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning mehnat qilish huquqi kafolatlangan.

## **Ijodiy faoliyat**



1. Berilgan vaziyatlardan inson sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlarni ajrating.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasiga asoslanib, mazkur jinoyatlarning subyektlarini aniqlang.
3. Jinoyatlar sodir etilishining subyektiv tomonlarini aniqlang.
  - 1) *Buxoro viloyati IIB xodimlari tomonidan olib borilgan tezkor surishtiruv tadbirlari davomida aniqlanishicha, Buxoro tumani, Gulshanobod QFYda yashovchi, 1969-yilda tug'ilgan, muqaddam sudlangan F.N. Kogon shahri, Istiqlol MFYda yashovchi fuqaro N.G.' hamda Shofirkon tumani, Qalmaqon QFYda yashovchi, muqaddam sudlangan G.Y.larni Tailand davlatida behayolik orqali mo'may daromad orttirishi mumkinligini bildirgan holda qiziqtirib, chet davlatga borishi, ya'ni u yerda yeb-ichish hamda ijaraga turishi uchun qilinadigan sarf-xarajatlarning hammasini o'zi ko'tarishini aytgan.*
  - 2) *Tuman vakillik organlariga saylov oldi targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borayotgan N.ning ishonchli vakillari Gulobod mahallasidagi fuqarolarga N. ga ovoz berishlari evaziga turli oziq-ovqat mahsulotlarini ularshdi. Tuman vakillik organiga o'z nomzodini qo'ygan X. N. ning bu harakatlaridan norozi bo'lib, sudga shikoyat qildi.*
  - 3) *Voyaga yetmagan shaxslar Internet tarmog'i orqali sinfdoshlari haqida bo'xtton ma'lumotlarni joylashtirib, ma'naviy zarar yetkazdilar.*

Asosiy qonunning 37-moddasida: «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash,adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir», deb belgilab qo'yilgan.

Ushbu jinoyatning obyekti fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan mehnat qilish huquqi hisoblanaadi. Jinoyatning subyekti ishga qabul qilish yoki ishdan bo'shatish huquqiga ega bo'lgan shaxs bo'lishi mumkin.

## Mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish

Fuqaroning intellektual mulkini himoya qilishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqi, xususan, mualliflik yoki ixtirochilik huquqining buzilishidir.

Jinoyat mualliflik huquqini o'zlashtirib olish, ham-mualliflikka majburlash, shuningdek, tafakkur mulki obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ular rasman ro'yxatdan o'tkazilgunga yoki e'lon qilingunga qadar muallifning roziligesiz oshkor qilinishida ifodalanadi.

### Savol va topshiriqlar


1. Fuqarolarning turar-joy daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlikka tortishning shartlari nimalarda ifodalanadi?
2. Fuqarolarning xususiy hayoti to'g'risidagi axborotni tarqatish jinoiy javobgarlikka asos bo'ladimi? Fikringizni asoslang.
3. Saylov huquqini yoki ishonchli vakil vakolatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilish harakatlari nimalarda ifodalanadi?
4. Voyaga yetmagan 16 yoshli shaxs birovning xatini so'roqsiz o'qigani va mazmunini do'stlariga gapirib bergenligi uchun javobgarlik mavjud bo'ladimi?




Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi ga g'amxo'rlik qiladi.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-mod-dasidan**



# 12-§ Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar



Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:



- Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tov lash.
- Ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tov lash.
- Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish.

## Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tov lash

Ushbu jinoyatning obyekti voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarning manfaatlari, ya'ni ularning sog'lig'i, normal jismoniy rivojlanishi uchun sudning hal qiluv qarori yoki buyrug'iga muvofiq mablag' olish huquqiga ega shaxslarning moddiy ta'minoti hisoblanadi.

Jinoyat sudning hal qiluv qarori yoki buyrug'iga muvofiq moddiy yordamga muhtoj bo'lgan voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz shaxslarni boqish uchun undiriladigan mablag'larni jami ikki oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslikda ifodalanadi.

Sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki buyrug'iga binoan moddiy yordamga muhtoj bo'lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni boqish uchun undirilishi lozim bo'lgan mablag' jami ikki oy mobaynida to'lanmagan taqdirda jinoyat tugallangan deb hisoblanadi. Jinoyat qasddan sodir etiladi.

Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgullariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-ning 64-mod-dasidan**



## 122-modda. Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash

Moddiy yordamga muhtoj bo'lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib ikki oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —

ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi...

## O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi

Mazkur jinoyatning subyekti sudning hal qiluv qarori yoki buyrug'iga binoan moddiy yordamga muhtoj voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlash vazifasi zimmasiga yuklangan 18 yoshga to'lgan, aqli raso har qanday shaxs (ota-onalar, farzandlikka oluvchilar) bo'lishi mumkin. Shaxsni ota-onalik huquqidan mahrum qilish alimentlarni to'lashdan ozod etmaydi.



Ota-onalik huquqidan mahrum qilish alimentlarni to'lashdan ozod etmaydi.

**O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, 100-moddasi**

## Ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tov lash

Sudning hal qiluv qaroriga binoan mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj bo'lgan ota-onani yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlash uchun undiriladigan mablag'ning voyaga yetgan shaxslar tomonidan jami ikki oydan ortiq muddat mobaynida to'lanmasligida ifodalanadi.

Jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyatning sodir etilish motivi va ko'zlangan maqsad uni kvalifikatsiya qilishda ahamiyat kasb etmaydi.

Jinoyatning subyekti sudning hal qiluv qaroriga binoan ota-onalarini yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlash majburiyati yuklangan voyaga yetgan tug'ishgan farzandlar, farzandlikka olingan o'g'il va qizlar, o'gay o'g'il va qizlar bo'lishi mumkin.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

### O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasi

#### 123-modda. Ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tov lash

Voyaga yetgan shaxslarning mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj bo'lgan ota-onani yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tov lashi, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib uch oydan ortiq muddat mobaynida to'lamasligi, — eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmisht soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

**O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi**

## **Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish**

Bu jinoyatning obyekti voyaga yetmagan shaxsning normal, axloqiy rivojlanishi, uning sog'lig'i hamda ja-moat xavfsizligi va tartibi hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarni spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyovandlik yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol etishga jalb qilish deganda, voyaga yetgan shaxsning voyaga yetmagan shaxsni yuqorida nomi aytilgan ichimliklar, vosita va moddalarni bir necha marta iste'mol qilishga o'rgatish yoki ularni voyaga yetmaganlar uchun bir necha marta olinishi va voyaga yetmagan shaxsni aldash, mehmon qilish, ko'ndirish kabi yo'llar bilan shu predmetlarni iste'mol qilishga undashga qaratilgan harakatlarini tushunish zarur.

Voyaga yetmagan shaxsni jinoyatga jalb etish deganda voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jismoniy zo'rlikni qo'llash yoki unga ruhiy tazyiq o'tkazish, qo'rqtish, pul berib og'dirish, avrash, aldash, o'ch olish, hasad, rashk tuyg'ularini va boshqa salbiy niyatlarini qo'zg'atish, jinoyat sodir etishni taklif qilish, o'g'irlangan narsalarni



Tilamchilik qilish deganda, voyaga yetmagan shaxsni begona shaxslardan pul, oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar va h.k. tilab, so'rab olishga jalb qilishni tushunmoq zarur.

sotib olish yoki sotib berishni va'da qilish, jinoyatni sodir etish joyi va usullari yoki jinoyat izlarini yashirish haqidagi maslahatlar berish yo'li bilan uning bir yoki bir nechta jinoyatlarning sodir etilishida ishtirok etish niyatini rag'batlantirishga qaratilgan harakatlar va jinoyatni sodir etishga og'dirish maqsadida voyaga yetmagan shaxslar bilan spirtli ichimliklar ichilishini tushunish zarur.



### **127-modda. Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakat-larga jalb qilish**

Voyaga yetmagan shaxsni tilamchilikka, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyovandlik yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol etishga jalb qilish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, — eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmis soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar iste'mol etishga jalb qilish — uch yuz oltmis soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni jinoyat qilishga jalb etish, shuningdek ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) ilgari giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda muomalaga chiqarish bilan bog'liq har qanday jinoyatni sodir etган shaxs tomonidan;

b) ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;

v) o'quv yurtlarida yoki o'quvchilar, talabalar o'quv-tarbiya, sport yoki jamoat tadbirlari o'tkazadigan boshqa joylarda sodir etilishi — besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

**O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi**



Otang pandlariga sen qilg‘il amal,  
Yurarsan baxtiyor bo‘lib har mahal.  
Onangni, otangni sevintir tamom,  
Bu hikmat yetqurg‘ay tilakka mudom.

**Yusuf Xos Hojib**

Jinoyat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi, ya’ni aybdor voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatga jalb qilayotganini biladi va shunday bo‘lishini xohlaydi. Ayni paytda aybdor g‘ayriijtimoiy xatti-harakatga jalb qilinayotgan shaxsning voyaga yetmaganligini bilgan holdagina uni mazkur modda bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortish mumkin ekanligiga e’tibor bermoq kerak.

Ushbu jinoyatning subyekti 18 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso shaxs bo‘lishi mumkin.


Yosh boladan foydalangan holda jinoyatni sodir etish JK 56-modda «j» bandiga muvofiq jazoni og‘irlashtiruvchi holat deb hisoblanadi va jazo tayinlash vaqtida sud tomonidan inobatga olinadi.

## Savol va topshiriqlar



1. Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta’minalashdan bo‘yin tov lash tushunchasi va uni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik masalasiga nimalar kiradi?
2. Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta’minalash jinoyatidan ota-onani moddiy ta’minalashdan bo‘yin tov lash jinoyatining farqi nimadan iborat?
3. Voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish deganda nimalarni tushundingiz?

# 13-§ Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar



G‘ofil odam ko‘z yumib g‘aflat uyqusiga botadi, ey, irodali mard, g‘ofil bo‘lma, hushyor bo‘l.

**Yusuf Xos  
Hojib**

Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:



- Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar.
- O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilishning huquqiy oqibatlari.

## Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining VIII bobi «Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar», IX bobi esa «O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar» deb nomlanadi. Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga urushni targ‘ib qilish, agressiya, urushning qonun va udumlarini buzish, genotsid, chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o‘xshash boshqa organlariga xizmatga kirish, yollanish, terrorizm, tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik, terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o‘quvdan o‘tish, chiqish yoki harakatlanish, terrorizmni moliyalashtirish, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atishlar kirdi.

Ushbu jinoyatlarning obyekti har qanday davlat raqqiyoti va hayotiy faoliyatini amalga oshirishning sharti bo‘lgan tinchlik va tinch-totuv yashash, insoniyatning yashash huquqi hisoblanadi.

## O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar

O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlarga davlatga xoinlik qilish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish, josuslik, qo‘poruvchilik, davlat sirlarini oshkor qilish, davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo‘qotish kabilar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish Jinoyat kodeksining «O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar» bobiga kiritilganligi beziz emas, chunki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir.

Jinoyat obyekti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmatidir. Prezidentni ko‘pchilik oldida haqoratlash yoki unga tuhmat qilish haqorat yoki tuhmat xususiyatiga ega bo‘lgan harakatlar sodir etilgan paytdan e’tiboran tugallangan jinoyat deb hisoblanadi.

Jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyatning motivi va maqsadi uning kvalifikatsiyasi uchun ahamiyatli emas.

## O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «konstitutsiyaviy tuzum» atamasining qo‘llanilishi zamонавиy konstitutsiyaviy huquq fanida e’tirof etilgan ushbu termindan aksariyat davatlarda keng foydalanilayotganligi bilan izohlanadi.

Konstitutsiyaviy tuzumni tavsiflashda mamlakatning iqtisodiy ahvoli, jamiyat a’zolarining turmush tarzi va ijtimoiy holati, mavjud milliy an’analar va qadriyatlar



### Ijodiy faoliyat

Berilgan rasm-lardagi insonlarning hayoti va faoliyati tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning obyekti bo‘la oladimi?





Yaxshi ishlarning yana bir afzalligi shundaki, u qalbni yuksaltiradi va uni yanada ezgu ishlarga moyil qiladi.

**Jan Jak Russo**

mazmuni, davlat hokimiyatining mohiyati, boshqaruv shakli va usullari, inson huquq va erkinliklariga bo‘lgan munosabat, fuqarolik institutlarining rivojlanish darajasi, xalqning siyosiy-huquqiy ongi va tafakkuri hamda inson kamoloti kabi qator omillar xizmat qiladi.

Konstitutsiyaviy tuzum mohiyatan Konstitutsiyada belgilangan normalarning tabiatiga mos kelib, ularning amalda bo‘lishi konstitutsiyaviy tuzumning barqarorligini ta’minlaydi.

Konstitutsiyaviy normalar asosida konstitutsiyaviy tuzum himoya qilinadi, ya’ni qonunlar orqali mustahkamlab qo‘yilgan jamiyat hayotiga oid barcha ijtimoiy munosabatlar uzviylikda davom etadi.

Konstitutsiyaviy tuzumning huquqiy kafolati bo‘lgan konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, ularda inson huquq va erkinligining eng oliy qadriyat sifatida mustahkamlanishi, xalqaro huquqning umum e’tirof



## **159-modda. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish**

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof tarzda o‘zgartirishga, hokimiyatni bosib olishga yoxud qonuniy ravishda saylab qo‘yilgan yoki tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzishga ochiqdan-ochiq da’vat qilish, shuningdek, bunday mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash yoki tarqatish —

eng kam oylik ish haqining olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi...

**O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi**

etilgan normalarining tan olinishi kabi qoidalar bugungi kunda konstitutsionalizmning asosi sifatida qaralmoqda.

Konstitutsiyaviy tuzumga qaratilgan jinoiy harakatlar obyekti respublikamizning konstitutsiyaviy tuzumi asoslari, davlat hokimiyati tuzilishi va faoliyatining tarbi hisoblanadi.

Jinoyat qasddan sodir etiladi. Jinoyatni sodir etishdan maqsad O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini o'zgartirishdir. Jinoyat motivlari turlicha bo'lishi mumkin, ya'ni mavjud konstitutsiyaviy tuzumga, qonuniy saylab qo'yilgan davlat arboblariga nafrat bilan qarash va hokazo. Bu harakatlar chet el davlatining topshirig'iga binoan sodir etilgan taqdirda aybdor davlatga xoinlik qilganlik uchun ham javobgar bo'ladi.

Hokimiyatni bosib olish yoki O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini ag'darib tashlash



### Yaxshilar

mas'uliyat bilan ish qilishlari uchun qonunlarga muhtoj bo'lmaydilar. Yomonlar qonunlarga chap berish uchun yo'l topadilar.

### Aflatun



## 159-modda. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzmiga tajovuz qilish

...Hokimiyat konstitutsiyaviy organlarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki ularni Konstitutsiyada nazarda tutilmagan parallel hokimiyat tuzilmalari bilan almashtirishga qaratilgan zo'ravonlik harakatlari, shuningdek, davlat hokimiyati vakolatli organlarining O'zbekiston Konstitutsiyasida nazarda tutilmagan tartibda tuzilgan hokimiyat tuzilmalarini tarqatib yuborish to'g'risidagi qarorlarini belgilangan muddatda bajarmaslik —

eng kam oylik ish haqining ikki yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi...

## O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi



Fitna – ikki yoki undan ortiq shaxslarning hokimiyatni bosib olish yoki konstitutsiyaviy tuzumni ag‘darib tashlashga qaratilgan jinoiy harakatni sodir etish uchun o‘z kuchlarini birlashtirishga kelishishidir.

uchun jinoiy guruh tuzilgan paytdan e’tiboran, jinoiy maqsadga erishishga qaratilgan harakat sodir etilgan yoki etilmaganidan qat’i nazar, fitna tugallangan jinoyat deb hisoblanadi. Berilgan moddada davlat uchun xavfli oqibatlar yuzaga kelishini bartaraf etish, ya’ni hokimiyatni bosib olish yoki konstitutsiyaviy tuzumni ag‘darib tashlashning oldini olish maqsadida fitna to‘g‘risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar berish rag‘batlantiriladi.

Josuslik, qo‘poruvchilik, davlat sirlarini oshkor qilish, davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo‘qotish kabi jinoyatlar ham mamlakatimizning konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi jinoyatlar turkumiga kiradi.



### **159-modda. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish**

...Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar:

- a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlagan holda sodir etilgan bo‘lsa, —

besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Hokimiyatni bosib olish yoki O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini ag‘darib tashlash maqsadida fitna uyushtirish —

o‘n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Fitna to‘g‘risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar bergen shaxs, basharti, ko‘rilgan choralar natijasida fitnaning oldi olingan bo‘lsa, jazodan ozod qilinadi.

**O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi**



## «Bunday xalqni yengib bo‘lmaydi»

Frans Kafka:

- Qanaqa kitob o‘qiyapsiz?
- «Toshkent — non shahri»...
- Ajoyib kitob. Yaqinda men uni bir oqshomda o‘qib chiqdim.
- Menimcha, bu kitob san’at asaridan ko‘ra ko‘proq hujjatga o‘xshaydi.
  - Har qanday chinakam san’at — hujjat, guvohnoma. Bunday bolalari bor xalqni, xuddi bu kitobdagiday, yengib bo‘lmaydi.
  - Biroq gap, harqalay, sonda bo‘lmasa kerak.
  - Aksincha! Materianing ko‘rinishi atomdagι elektronlar soni bilan belgilanadi. Ommaning saviyasi sanoqli kishilarning ongliligiga bog‘liq.

*Chexiyalik musiqachi va adabiyotchi Gustav Yanouxning  
«Kafka bilan suhbatlar» asaridan parcha.*



## Savol va topshiriqlar

1. Yuqorida berilgan matndagi «Bunday bolalari bor xalqni, xuddi bu kitobdagiday, yengib bo‘lmaydi», degan jumlanı izohlab ko‘ring. Fikringizni bag‘rikenglik, insonparvarlik, kengfe’llik, mehri daryolik kabi tushunchalar orqali izohlang.
2. Davlatga xiyonat qilish nimalarda ifodalanadi?
3. Konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz qilish deganda nimani tushundingiz?
4. Tinchlikni asrashda sizning qanday ulushingiz bor?
5. O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar deganda nimani tushundingiz? Jinoyat uchun qanday jazo belgilangan?
6. Tinchlik va insoniyatga qarshi jinoyatlar qanday sodir etiladi?

# 14-§ Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar

## Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:



**Mulk** – huquq subyekti tomonidan o‘z mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlarining to‘liq majmuyidir.

- O‘zgalar mulkini talon-taraj qilish. Soxta tadbirkorlik.
- Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tov lash.
- Elektr, issiqlik energiyasi, gaz, suv ta’minotidan foydalanish qoidalarini buzish.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bozor munosabatlari rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi va davlat iste’molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqlilagini va huquqiy jihatdan teng muhofaza etilishini kafolatlashi alohida qayd etiladi. Shu bilan birga xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida deb belgilab qo‘yilgan. Demak,



## Ijodiy faoliyat

1. *Mamlakatimiz iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Mulk daxlsizdir va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi, unga qilingan har qanday tajovuz qonunga xilof deb hisoblanadi.*  
Mazkur qoida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida qayd etilganligini aniqlang.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining X, XI, XII, XIII, XIII<sup>1</sup> boblarini diqqat bilan o‘qing. Boblarda berilgan iqtisodiyot sohasiga oid jinoyatlarni turkumlang.

## Ijodiy faoliyat



1. *Mulk daxlsizdir va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi, unga qilingan har qanday tajovuz qonunga xilof deb hisoblanadi.*  
Mazkur jumlani sharhlab ko‘ring.
2. Berilgan rasmlarni diqqat bilan kuzatib, mulk shakllarini ajrating.  
Ulardan qaysilari shaxslarga tegishli bo‘lishi mumkin? Qaysilari esa davlatga tegishli?
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida berilgan qoidaga asoslanib, bu mulklarning qaysilarini xalq mulki deyish mumkin? Fikringizni asoslang.

o‘zganing mulkiga tajovuz qilish qonun doirasida ja-vobgarlikka tortilish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga o‘zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog‘liq bo‘lgan va bo‘limgan jinoyatlar, iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar, xo‘jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar, tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog‘liq jinoyatlar hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar kiradi.

**O‘zgalar mulkini talon-taroj qilish.** *Talon-taroj qilish* – bu birovning mulkini o‘zining yoki boshqa shaxslarning foydasi uchun, mulkdorga yoki ushbu mulkning boshqa egasiga zarar keltirib, qonunga zid va haq to‘lamay undirishdir.

*Obyektiv tomonidan talon-taroj qilish* o‘zganing mulkini qonunga xilof ravishda, tekinga o‘zi yoki boshqa shaxs foydasi uchun olishda ifodalananadi.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat to‘g‘risidagi qonunlari talon-taroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlar-





Qanoat – harom bilan halolning chegarasini belgilaydigan vijdon qozisi.

### Hikmat



**Talon-taroj qilishning yashirinligi**  
deganda, jinoyat mol-mulk egasi yoki mol-mulk ishonib topshirilgan yoxud ixtiyyorida turgan shaxsiga sezdirmasdan yoki mulkdor yoxud mol-mulkning talon-taroj qilinishidan manfaatdor bo‘lмаган бoshqa shaxslар yo‘q vaqtida sodir etilishi tushuniladi.

ga javobgarlikni belgilashda uning qaysi usulda sodir etilganligiga ko‘ra ajratadi. Masalan, bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-taroj qilish, firibgarlik, o‘g‘rilik. Har qanday talon-taroj qilishning zaruriy belgisi uning huquqqa xilofligidir.

O‘zganing mulkini talon-taroj qilishning tugallangan vaqtি talon-taroj qilishning shakliga bog‘liq bo‘ladi.

Talon-taroj qilish subyektiv tomondan to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Motivi – g‘arazgo‘ylik.

Muomalaga layoqatli hamda qonunda ko‘rsatilgan yoshga to‘lgan har qanday shaxs talon-taroj qilishning subyekti hisoblanadi.

Bosqinchilikning o‘ta ijtimoiy xavfiliги avvalo shu bilan bog‘liqki, bu jinoyat sodir etilganida jabrlanuv-chilarning hayoti yoki sog‘lig‘iga ham ziyon yetkaziladi yoxud bunday ziyon yetkazilishi uchun real xavf vujudga keladi va o‘zganing mol-mulki egallab olinadi.

Obyektiv tomondan bosqinchilik o‘zganing mol-mulkini talon-taroj qilish maqsadida shu mulkning egallanishiga qarshilik ko‘rsatgan shaxsning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan jismoniy zo‘rlik ishlatalish yoxud shunday zo‘rlik ishlatalish bilan qo‘rqitib hujum qilishda ifodalanadi. Bosqinchilikning obyekti o‘zganing mol-mulki, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘idir.

Tovlamachilik mulkka qarshi g‘arazli jinoyatlaridan biri hisoblanadi. Tovlamachilikning ijtimoiy xavfiliк xususiyati uning nafaqat mulkchilikka, balki mulkchilik manfaatlarining mustaqil shakli sifatida namoyon bo‘luvchi boshqa (majburiyat yuklovchi, meros bo‘lib o‘tuvchi, uy-joy kabi) mulkiy munosabatlarga ham tajovuz qilishidan iborat.

Obyektiv tomondan tovlamachilik aybdorning mulkdordan bila turib, g‘ayriqonuniy ravishda o‘ziga yoki u ko‘rsatgan shaxslarga muayyan mulkni, mulkka bo‘lgan huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud ular foydasiga muayyan mulkiy yo‘sindagi harakatlar sodir etishni talab qilishda ifodalanadi.

Talonchilikning ijtimoiy xavfliligi shundan iboratki, bunda jinoyatchi mulkka tajovuz ochiqdan ochiq, shu bilan birga o‘rnatilgan tartibni, huquqiy va axloqiy qoidalarni va jamiyat qadriyatlarini mensimaslik bilan amalgalashiriladi.

Obyektiv tomondan talonchilik o‘zganing mulkini oshkora talon-taroj qilishda ifodalanadi.

O‘zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish yoki o‘g‘rilik iqtisodiyot sohasidagi eng keng tarqalgan jinoyatlardan biridir.

Obyektiv tomondan o‘g‘rilik o‘zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilishda ifodalanadi.

Soxta tadbirkorlikka ustavida ko‘rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko‘zlamasdan ssudalar, kreditlar olish, foydani (daromadni) soliqlardan ozod qilish (soliqlarni kamaytirish) yoki boshqacha mulkiy manfaat ko‘rish maqsadida korxonalar va boshqa tadbirkorlik tashkilotlari tuzish kiradi.

Subyektiv tomondan jinoyat faqat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi.

## Ijodiy faoliyat

Bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o‘g‘rilik jinoyatlarining ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlab ko‘ring. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 15-moddasi qoidalalariga murojaat qiling.



**O‘zganing mulki**  
deganda, aybdorga qonuniy ravishda tegishli bo‘limgan mulk tushuniladi.

**Huquqqa xi洛flik**  
(g‘ayriqonuniylik) – egallana-yotgan mulkka nisbatan hech qanday huquqi bo‘limgan aybdor shaxs tomonidan bu mulknинг egallanishidir.





G‘arazgo‘ylik talon-taroj qilishning zaruriy belgisi hisoblanadi.

**G‘arazgo‘ylik** – bu o‘zi uchun yoki boshqa shaxslar uchun moddiy manfaat undirish.



Insonning eng katta dushmani — bu uning nafsi.

### Hikmat

### Ijodiy faoliyat



O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi- dan yurtimiz hududida qanday umum davlat soliqlari, mahal- liy soliqlari va yig‘imlar borligini aniqlang.

Soxta bankrotlik jinoyati ham to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Bu jinoyat xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z majburiyatlarini iqtisodiy jihatdan bajara olmasligi haqida bila turib, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan e’lon berishi kreditorlarga ko‘p miqdorda zarar yetkazilishda ifodalanadi.

Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash jinoyati foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirishda, kamaytirib ko‘rsatishda, shuningdek davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlashda ifodalanadi. Jinoyat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi.

Elektr, issiqlik, gaz yoki suv ta’motidan foydalaniш qoidalarini buzish jinoyati umumiyligi foydalaniшda ги elektr, issiqlik, gaz yoki suv ta’moti tarmoqlariga o‘zboshimchalik bilan ularish yoxud elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, sovuq yoki issiq suvni hisobga olish asboblariga, shu jumladan ularning plombalari ga qasddan shikast yetkazish, ularning ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish maqsadida tashqaridan aralashishda ifodalanadi. Jinoyat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi.

### Ijodiy faoliyat



### Matnni o‘qing, mulohaza qiling va munosabat bildiring.

1. A. ismli shaxs elektr hisoblagich ko‘rsatkichlarini orqaga surib qo‘ydi.
2. G. ismli shaxs ko‘cha boshidan o‘tgan gaz quvuriga yashirinchcha ulanib, issiqxonasini isita boshladi.

## Ijodiy faoliyat



1. Matnni o‘qing va munosabat bildiring.
2. Matnga sarlavha qo‘ying.
3. Siz hikoya ishtirokchilarining o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutar edingiz?
4. Maktabingizda zaruratsiz yonib turgan elektr chirog‘ini yoki oqayotgan ichimlik suvini hech o‘chirib qo‘yganmisiz?

*Samarqandga xizmat safari bilan yo‘lga chiqdik. Haydovchi mashinani 100-120 km/soat tezlikda hayday boshladi. Orqa o‘rindiqda o‘tirgan, chamasni 60 yoshlar ni qoralab qolgan otaxon: «O‘g‘lim, mashina tezligini oshirishingiz shart emas, Samarqand hech qayerga ketmaydi, joyida turaveradi», – dedi. Mashina haydovchisi esa otaxonning gapidan norozi bo‘lgandek bir qarab qo‘ydi-da, tezlikni kamaytirdi.*

*Yo‘lda tamaddi qilish uchun to‘xtadik. Choyxonaga kirishda qo‘limizni yuvdik, lekin qo‘l yuvgichning jo‘mragi nosozligi tufayli suvni to‘xtata olmadik. Boyagi hamrohimiz jo‘mrakni tuzatishga kirishib ketdi. Biz yengil tamaddi qilishga ulgurdik hamki, otaxon suvning jo‘mragini tuzatish bilan ovora edi. Hamma mashinaga borib o‘tirdi, lekin otaxon hamon jo‘mrakni tuzatishdan bo‘samasdi. Haydovchining toqati toq bo‘ldi, shekilli, yukxonadan allaqanday temir-tersaklarni olib, otaxonning oldiga bordi. Biz ham u kishiga yordam berish uchun beixtiyor mashinadan tushdik.*

*Nihoyat, qo‘l yuvgichning jo‘mragi tuzaldi. Otaxon mammun ohangda: «Ana endi suv isrof bo‘lmaydi», deb tabassum bilan bizga o‘girildi. Biz yana yo‘lda davom etdik.*



Tabiiy gaz va elektr energiyasi muhim moddiy texnika resurslarining strategik turlari hisoblanadi.



Umumiyl foydalinishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki suv ta’minoti tarmoqlariga o‘zboshimchilik bilan, ya’ni qonunda o‘rnatilgan tartib asosida vakolatli organ ruxsatisiz ularish ijtimoiy xavflis hisoblanadi.

## Savol va topshiriqlar



1. Berilgan vaziyatlarni tahlil qiling. Ularning o‘xhash va o‘ziga xos tomonlarini aniqlang.
2. Ulardagi jinoyatlarning belgilarini, obyekti va subyektini, obyektiv va subyektiv tomonlarini aniqlang.
3. Bu voqealarning jamiyat rivojiga qanday ta’siri bor? Ularning oldini olish mumkinmidi?

*A) Denov tumanining «Buyuk Ipak yo‘li» mahallasida yashovchi A.S. ariza bilan huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilib, kollej o‘qituvchisi J. M. uni 2000 AQSh dollari evaziga Rossiyadagi universitetlarning biriga o‘qishga kiritib qo‘yishni va ’da bergenini bayon qiladi.*

*B) Termiz shahar IIB navbatchilik qismiga shahardagi bozorlarning birida joylashgan savdo do‘koniga notanish bir qiz kelib, o‘zini xaridordek tutib, uni hech kim kuzatmayotganiga ishonch hosil qilgach, do‘kon rastasida turgan 295 000 so‘mlik 3 dona ayollar ko‘ylagini o‘g‘irlab ketganligi haqida xabar kelib tushadi.*

*D) Tunda soat to‘rt yarimlar atrofida Farg‘ona viloyatining Qo‘shepa tumanida uch nafar noma’lum shaxs yuzlariga niqob kiygan va pichoq bilan qurollangan holda, Yangiariq mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi xonadonlarning biriga devor orqali oshib tushib, xonadon egasi G.Y. va uning turmush o‘rtog‘i S. Y.lar uxbab yotgan xonaga bostirib kiradilar.*

*Uy egalari uyg‘onib qolganlarida G.Y.ni urib, tan jarohati yetkazadilar. S.Y. va ushbu xonadonda birga yashovchi qizi M.Y.ning qo‘l-oyoqlarini arqon bilan bog‘lab, xonadagi sandiq ichidan 10 mln so‘m pul va 1,5 ming AQSh dollarilik turli zargarlik buyumlarini olib ketadilar.*

**Manba: O‘zbekiston Respublikasi IIV Matbuot xizmati**

# 15-§ Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar

Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:

- Korrupsiya va uning belgilari.
- Korrupsiyaga olib keladigan holatlar: pora olish va berish, pora olish va berishda vositachilik qilish.



Asosiy Qonunimiz konstitutsiyaviy tuzum asoslari ni mustahkamlagan holda O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati Prezident, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi hamda respublika sndlari tomonidan amalga oshirilishini belgilab bergan. Davlat hokimiyatining oliy organlari esa joylardagi hokimiyat organlarini shakllantiradi.

O'zbekistonda davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo'lingan holda amalga oshiriladi.

Davlat hokimiyati organlari mansabдор shaxslarlaridan tashqari mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxona, muassasa va tashkilotlarda o'z faoliyatini amalga oshiruvchi mansabдор shaxslarning nojo'ya xatti-harakatlari ham jinoyatga tortilishi mumkin.

Korxona, muassasa va tashkilotlardagi mansabдор shaxslarning faoliyati boshqaruv funksiyasi berib qo'yilgan ichki organlar doirasida ham olib boriladi.

Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyatining obyekti davlat hokimiyati, boshqaruv va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan ijtimoiy mun-



**Hokimiyat** deganda ma'lum bir vositalar – iroda, nufuz, huquq, majburlov, siyosiy hukmronlik, davlat organlari tizimi orqali insonlar faoliyatiga, xulq-atvoriga ta'sir etish qobiliyati va imkoniyati tushuniladi.



Hokimiyatni yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdon shaxsining o'z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishi fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ziyon yetkazilishdir.

sabatlar, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari hisoblanadi.

Jinoyat obyektiv tomondan quyidagi uch muqarrar belgidan iborat:

- shaxsning o'z mansab vakolatidan foydalanishi ko'rinishidagi qilmish;
- fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy zarar yetkazish shaklidagi jinoiy oqibatlar;
- qilmish hamda kelib chiqqan jinoiy oqibatlar o'rtasida sababiy bog'lanishning mavjudligi.

Mansabdor shaxsning o'z mansab vakolatidan foydalanishi ikki shaklda:

- hokimiyat vakolatini;
- mansab vakolatini suiiste'mol qilish shakllarida namoyon bo'ladi.

Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilishning subyektiv tomoni qasddan sodir etilishi bilan tavsiflanadi.

Jinoyat motivlari qilmishning huquqiy baholanishiga va jinoiy javobgarlikka o'z ta'sirini ko'rsatmaydi.



Mansabdor shaxsning mansab mavqeyidan kelib chiqqan va bu shaxs egallagan lavozimi vakolatiga berilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirish bilan bog'liq, biroq o'z mazmuni bo'yicha tegishli or-ganning faoliyat olib borishidan ko'zlangan maqsad va vazifalarga zid keluvchi harakatlari mansab vakolatini suiiste'mol qilish deb tavsiflanadi.

2003-yil Nyu-Yorkda qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi muqaddimasida korrupsiya jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illat ekanligi hamda u demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazishi, inson huquqlari buzilishiga olib kelishi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qilishi, hayot sifatini yomonlash-tirishi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyush-gan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib berishi ta'kidlanadi.

Obyektiv tomondan pora olish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdar shaxsining o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishida ifodalanadi.

Jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Korrupsiya – hokimiyat va boshqaruv asoslarini yemiradigan, uning aholi oldidagi obro'siga putur yetkazadigan, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qiladigan xavfli jinoy hodisaning nisbatan ko'p tarqalgan va o'ziga xos hodisasi hisoblanadi.

Jinoyat obyekti – davlat hokimiyyati va boshqaruv organlari faoliyatining o'rnatilgan tartibi.

Qonun sharhanayotgan jinoyat predmetini mansabdar shaxsning o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan



Mansabdar shaxsning o'z mansab mavqeyidan fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlariga qarshi qasddan foydalaniши hokimiyat vakolatini suiiste'mol qilish deb ataladi.



Pora faqat nohaqlig-u zolimlarga yordam beruvchidir.

**Mahmud Zamaxshariy**



Davlat hokimiya-ti organlarining normal faoliyatini buzish orqali ayb-dor shaxs davlat hokimiyatiga tajovuz qilgan hisoblanadi.



Pora o'nglanib ketgan ishlarni buzadi, bitayot-gan ishlarni barbod qiladi.

**Yusuf Xos  
Hojib**

harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy naf ko'rish tushuniladigan «pora» atamasi bilan belgilaydi.

Har qanday moddiy qimmatliklar: pul, xorijiy va-lyuta, qimmatbaho buyumlar, qimmatli qog'ozlar, oziq-ovqat yoki sanoat mahsulotlari va boshqalar pora pred-meti bo'lishi mumkin.

Pora olishning subyektiv tomoni – to'g'ri qasd: aybdor (pora oluvchi) moddiy qimmatliklar yoki mulkiy foyda unga o'zining xizmat mavqeyidan kelib chiqib pora beruvchi manfaatida biror-bir harakatni sodir etish yoki etmaslik uchun pora sifatida berilayotganligini anglaydi va buni xohlaydi.

Pora berish jinoyatining obyekti va predmeti pora olish jinoyati tarkibi belgilari bilan bir xil.

Jinoyat obyektiv tomondan mansabdor shaxsga be-vosita yoki vositachi orqali pora berishda ifodalanadi.

Pora berish, mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lган muayyan harakatni pora bergen shaxsning manfaatini ko'zlab bajarishi yoki uning mulkiy manfaatdor etilishida ifodalanadi.

Yolg'on vositachi, ya'ni mansabdor shaxsga pora berish zarurligini ro'kach qilib, birorta odamdan pora olgan, biroq aldash yo'li bilan uni o'zlashtirgan shaxs firibgarlik uchun javobgarlikka tortiladi. Pora bergen shaxsning harakatlari pora berishga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Pora berish orqali harakat yoki harakatsizlikka erishish uchun boshqa shaxsga pora taklif etgan shaxs pora beruvchi sifatida javobgarlikka tortiladi. Pora evaziga ma'lum harakatlarni bajarishga kelishgan shaxs va pora-

ni topshirgan shaxs pora berishda ishtirokchilar sifatida javobgarlikka tortiladi.

Pora oluvchi va beruvchidan farqli ravishda, vositachi moddiy qimmatliklar va boshqalar evaziga o‘z manfaatlari yo‘lida mansabdar shaxs bilan bir harakatni bajarish yoki bajarmaslik uchun harakat qilmaydi, balki faqatgina pora oluvchi ko‘rsatmasi bilan pora predmetini bevosita beradi. Pora olish-berishni tashkil etuvchi shaxs, dalolatchilik yoki yordamchilik qilib, bir vaqtning o‘zida vositachilik qilsa, pora bergen yoki olganlikda ishtirokchilik qilganligi uchun javobgarlikka tortiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor uning harakatlari pora olish-berish haqidagi kelishuvga erishish hamda pora oluvchi va beruvching topshirig‘i bilan pora berishga yo‘naltirilganligini biladi hamda buni xohlaydi.

## Savol va topshiriqlar

1. Mansabdar shaxsning o‘z vakolatlaridan qonunga xi洛f tarzda foydalanishi qanday harakatlarda ifodalanadi?
2. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish bilan mansab vakolatini suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-taroj qilish jinoyati o‘rtasida qanday farqlar bor?
3. Pora berish va pora olishning qanday umumiyligi tomonlari mavjud?
4. Pora berishning xizmatchini pora evaziga og‘dirishdan farqi nimada?



Pora – pora beruvchi manfaatlarida muayyan harakatlar sodir etish uchun berilgan g‘ayriqonuniy mukofot bo‘lib hisoblanadi.



Mansabdar shaxs tomonidan o‘z mansab mavqeyidan foydalanish deganda nafaqat mansabdar shaxs vakolatiga kiradigan harakatlarni sodir etish, balki pora beruvchi manfaatlarida boshqa mansabdar shaxslarga ta’sir etish orqali ularning vakolatlaridan foydalangan holda muayyan harakatlar sodir etish ham tushuniladi.

# 16-§ Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar



Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalarini shu qoidalarga rioya etilishi uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan buzilishi tushuniladi.

## Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:



- Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish.
- Sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish.
- Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish.

### Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish

Ushbu jinoyatning obyekti mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda ishlayotgan shaxslarning mehnat sharoitlarini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda nafaqat doimiy, shu bilan birga vaqtincha ishlayotgan shaxslar ham jabrlanuvchi bo'lishlari mumkin.

Jinoyat obyektiv tomondan o'rtacha yoki og'ir tan jarohati yetkazilishiga sabab bo'lgan:

- texnika xavfsizligi;
- sanoat sanitariyasi;
- mehnatni muhofaza qiluvchi boshqa qoidalarining buzilishidan iboratdir.



Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining  
37-moddasi**

Subyektiv tomondan jinoyat aybning qasd yoki ehtiyoitsizlik shakllari orqali sodir etiladi.

Jinoyatni sodir etish motivi va undan ko‘zlangan maqsad jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta’sir etmaydi.

## **Sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish**

Jinoyatning obyekti jamoat xavfsizligi, odamlarning hayoti va sog‘lig‘idir.

Obyektiv tomondan jinoyat odamlarning ommaviy kasallanishiga yoki zaharlanishiga olib kelgan:

- sanitariyaga oid qonun hujjatlarini;
- epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzishda ifodalanadi.



## **Ijodiy faoliyat**



Berilgan vaziyatlarni diqqat bilan o‘qing va mavzu bilan bog‘lang.  
Voqealarning oldini olish uchun nima qilish kerak edi?

1. *Farg‘ona viloyati Toshloq tumanida yashovchi fuqaro Sh. A.ning uyida maishiy gaz balloonidan ehtiyoitsizlik bilan foydalanish oqibatida yong‘in sodir bo‘lib, uyning 100 kv. metr maydonidagi tomi, shift qismi va uy jihozlari yonib zararlangan.*
2. *Namangan viloyatining Namangan shahrida haydovchi Sh.Q. boshqaruvida bo‘lgan GAZ-53 rusumli yuk avtomobilining gaz jihozlari nosozligi natijasida yong‘in sodir bo‘lgan. Yong‘in oqibatida haydovchi Sh.Q. va yo‘lovchi B.Q. tan jarohati olib, kasalxonaga joylashtirilgan.*
3. *Toshkent viloyatida joylashgan mas’uliyati cheklangan jamiyatga tegishli lak-bo‘yoq mahsulotlarini ishlab chiqarish sexida yong‘in sodir bo‘ldi.*
4. *Toshkent shahrining Uchtepa tumanida yashovchi fuqaro S.T.ning molxonasi elektr simlarining qisqa tutashuvi natijasida yong‘in sodir bo‘lib, molxonaning 30 kv. metr hamda qo‘shti xonadonning 90 kv. metr maydonida tom qismlari yonib zararlangan.*



Ommaviy kasallanish deganda ma'lum bir hududdagi ko'p sonli kishilarning ma'lum bir vaqt ichida kasallani shini tushunish zarur.



Yong'in xavfsizligi qoidalari – yong'inning oldini olishga qaratilgan talablar, me'yorlar va standartlarga rioya qilish tarbibini belgilovchi muayyan qoidalari majmuyi.

Ushbu modda dispozitsiyasi blanketli bo'lib, har bir holda sanitariyaga oid qonun hujjatlari yoki epidemiya ga qarshi kurash qoidalarining qaysi bandi buzilganligi alohida aniqlanishi lozim.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan yoki ehtiyo sizlik natijasida sodir etiladi.

## **Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish**

Jinoyatning obyekti yong'in xavfsizligi, ya'ni odamlarning, jamoat va davlat mulkining yong'indan muhofaza qilinganlik holati hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat yong'in xavfsizligi qoidalaring shu qoidalari bajarilishi uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan buzilishi badanga o'rtacha yoki og'ir shikast yetkazilishiga olib kelishida ifodalanadi.

## **Savol va topshiriqlar**



1. Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish qanday huquqiy oqibatlarga olib keladi?
2. Ommaviy kasallanish deganda nimalar nazarda tutiladi? Fikringizni tasdiqlash uchun misollar keltiring.
3. Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatining subyektiv tomonlarini tushuntiring.
4. Mehnatni muhofaza qilish, sanitariyaga oid qonun hujjatlarini, epidemiyaga qarshi kurash, yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlari qanday hollarda qasddan sodir etilgan hisoblanadi?

# 17-§ Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar

Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:



- Axborotdan erkin foydalanish huquqi.
- Axborotlashtirish qoidalarini buzish. Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish.
- Kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalar ni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash yoxud o'tkazish va tarqatish.

## Axborotdan erkin foydalanish huquqi

Hozirgi kunda axborot jamiyat hayotini tashkil etishning zaruriy omillaridan biriga aylanib bormoqda. Binobarin, inson faoliyatining axborot olish va uni qayta ishlash jarayonlari bilan bog'liq bo'lmagan biror bir tarmog'i qolmagan. Tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi dunyoda fuqarolarning yangi sharoitlarga moslashishlariga ko'maklashish, ularga bo'layotgan voqealar, jarayonlar, hodisalar to'g'risida axborot berib borish, shuningdek, fuqarolar, ijtimoiy institutlar va davlat hokimiyyati organlari o'rtaSIDA samarali munosabatlar tizimini o'rnatishga sharoit yaratishda, eng avvalo, fuqarolarning axborotdan foydalanish bilan bog'liq konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish va kafolatlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot nafaqat muayyan ma'lumotlardan iborat obyekt, masalan, maqola yoki xabar sifatida, balki



O'zbekiston Respublikasining «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi Qonunini diqqat bilan o'qib chiqing va undagi «axborot erkinligi» tushunchasiga e'tibor qarating.



**Axborot** – inson o'z sezgi organlari orqali qabul qiladigan barcha signallar majmuasi demak.



Axborotdan erkin foydalanish huquqi insonning dunyoga kelishi bilan unga beriladigan, qonun bilan taqiqlanmagan har qanday axborotni olish, saqlash, tarqatish, yangilash mumkin bo‘lgan harakatlarning fundamental hamda kompleks huquqidir. Tabiiyki, bunday holat boshqa shaxslar, davlat va jamiyatning axborot bo‘yicha xavfsizligiga zarar yetkazmasligi zarur.



subyektning o‘zi o‘rganayotgan obyekt bilan o‘zaro aloqa qilish jarayoni sifatida ham tushunilishi lozim.

XX asrning oxirlariga kelib, axborot jamiyatda tabiiy, moliyaviy, mehnat va boshqa resurslarga nisbatan ham kuchli va sezilarli mustaqil ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida namoyon bo‘la boshladи.

Axborot «kim», «qachon», «nima», «qayerda», «qancha», degan so‘zlar bilan boshlanuvchi savollarga javob ko‘rinishida ifoda etiladi.



Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir...

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining  
29-moddasidan**

Bilim esa o‘z navbatida, «qanday» degan so‘z bilan boshlanadigan savollarga javob ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Demak, axborotdan foydalanish bilim olishning o‘zgargan shaklidir.

## Axborotlashtirish qoidalarini buzish

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolarning axborotga bo‘lgan huquqlarini e’tirof etgan holda, uning asosiy mazmunini bir qancha normalarda belgilab beradi. Lekin ba’zida berilgan huquqdan to‘g‘ri foydalanmaslik oqibatida ham huquqiy javobgarliklar kelib chiqadi. Masalan, kompyuter tizimidan foydalanishga ruxsati bo‘lgan shaxs tomonidan ushbu tizimdan foydalanish qoidalarining buzilishi oqibatida kompyuterdagagi axborot yo‘qolsa, to‘sib qo‘ylsa, kompyuter uskunasining ishi buzilsa, u Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 155<sup>1</sup>-moddasiga ko‘ra javobgarlikka tortiladi. Xat-yozishmalar, telefonda so‘zlashuv, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish esa

## Xalqaro huquq

Hech kim insonning shaxsiy yoki oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashishi, insonning uy-joyi daxlsizligiga, uning xatlaridagi sirlarga yoki or-nomusi va sha’niga o‘zboshimchalik bilan tajovuz qilishi mumkin emas. Har bir inson ana shunday aralashish yoki tajovuzdan qonun yo‘li bilan himoyalanish huquqiga egadir.

**Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi,  
12-modda**



Axborot – bu bizning tashqi dunyoaga moslashish jarayonida undan oladigan ma’lumotlarni o‘zida ifoda etadigan tushunchadir.

**N. Viner,**  
*Kibernetika fanining asoschilaridan biri*



Sir tutiladigan fan-texnika, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, savdoga oid yoki boshqa shu kabi axborotni egasining roziliginiz oshkor qilish yoki undan foydalanish maqsadida har qanday usulda to‘plash ham jinoiy javobgarlikka tortilish uchun asos bo‘ishi mumkin.



## 155-modda. Axborotdan foydalanish qoidalarini buzish

Axborot tizimidan foydalanish maqsadida unga ruxsatsiz kirib olishda ifodalangan axborot va axborot tizimlaridan foydalanish qoidalarini buzish —

fuqarolarga eng kam ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Axborot tizimlarining ishini buzishga olib kelgan xuddi shunday huquqbuzarlik, xuddi shuningdek kirish cheklangan axborot tizimlarini axborot-hisoblash tarmoqlariga ulash chog‘ida tegishli himoya choralarini ko‘rmaganlik —

fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.


Yuridik va jismoniy shaxslarning axborot tizimlarini xalqaro axborot tarmoqlariga qonunga xilof ravishda ulash, bu tarmoqlarga tegishli himoya choralarini ko‘rmasdan ulanish, xuddi shuningdek ulardan ma’lumotlarni qonunga xilof ravishda olish —

fuqarolarga eng kam ish haqining ikki baravaridan besh baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

O‘zganing elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturi yoki ma’lumotlar bazasini o‘z nomidan chiqarish yoxud qonunga xilof ravishda undan nusxa olish yoki bunday asarlarni tarqatish —

fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

**Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks**



jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo‘lishi mumkin. Axir bunday jinoyat faqat qasddan sodir etiladi. Jinoyatning sodir etilish motivi va bundan ko‘zlangan maqsad uning kvalifikatsiyasi uchun ahamiyatga ega emas. Mazkur jinoyatning obyekti fuqarolarning xat-yozishmalari, telefonagi so‘zlashuvlari, telegraf


## Ijodiy faoliyat



1. Quyidagi voqeani o‘qing. Voqeа ishtirokchilari-ning faoliyatiga huquqiy baho bering.
2. Kimning qanday huquqlari buzilgan?
3. Siz ana shunday voqeaga guvoh bo‘lsangiz, qan-  
day yo‘l tutardingiz?

*Katta tanaffus vaqtida Nodira o‘zining «Adabiyot» darsligi uyda qolib ketganligi sababli dugonasi Gulnoradan darsligini berib turishni so‘radi. Gulgora oshxonaga ketayotganligini aytib, darslikni sumkasidan olishga ruxsat berdi. Nodira dugonasining sumkasida-  
gi chiroyli bezatilgan daftarni ko‘rib qoldi va uni olib o‘qidi. Bu daftar dugonasining yon daftarchasi bo‘lib, unga u o‘zining kechinmalari va she’rlarini yozardi. Gulgora oshxonadan qaytganida, sinfdagi hamma qizlar bir bo‘lib nimanidir o‘qishar, ba’zilari masxaromuz kulishar, boshqalari esa: «Voy, zo‘r she’r yozar ekan», – deb qo‘yishar edi. Gulgora qizlarga yaqinlashar ekan, ularning qo‘lida o‘zining yon daftarchasini ko‘rdi.*

*Uning yuzlari qizarib, lovullab yona boshladi, yura-  
gi tez-tez urib, oyog‘ida majoli qolmadi. Qo‘li bilan yu-  
zini berkitsa, xuddi hammasi o‘tib ketadigandek, qo‘lini  
beixtiyor yuziga olib bordi. Gulgora chuqur bir nafas  
oldi. Oyoqlariga birdan jon bitib, uni Nodira tomonga  
boshladi. Gulgora dugonasining qo‘lidagi darslikni tor-  
tit olar ekan, yuziga tarsaki toritib yubordi-da: «Uyat-  
siz, men senga ishonibman-a!» – dedi...*





yoki boshqa xabarlarining sir saqlanishiga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlari hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat shaxslarning pochta-telegraf xabarlari yoki telefonda so‘zlashuvining mazmuni bilan g‘ayriqonuniy tanishuvida yoxud fuqarolarning xatlari, telegrammalar, telefaks, elektron pochta va boshqalar orqali yuborilayotgan ma’lumotlarni shu axborotlar egasining roziligesiz oshkor etilishida ifodalanadi.

## Savol va topshiriqlar



1. Xat-yozishmalar, telefonda so‘zlashuv, telegraf yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish deganda nimani tushundingiz?
2. Berilgan rasmlarda axborot turlari ifodalandan. Ulardan qaysilari qonun tomonidan himoyalanadi?
3. Axborotlarni ijobjiy va salbiylarga ajratish mumkinmi? Fikringizni asoslang.
4. Axborot xavfsizligi masalasi va globallashish o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
5. Axborot «huruji»dan siz qanday himoyalangansiz?
6. Oilangizga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar himoya qilinishi shart deb hisoblaysizmi? Nima uchun?
7. Sizga bir tanishingizdan xat keldi. Xatni olgанингизда конверт ким томонидандир очилганлигини билб олдингиз. Qanday yo‘l tutar edingiz?
8. Sizga kimdandir xat kelibdi. Lekin pochtachi manzilni adashtirib xatni sizning pochta qutingizda qoldiribdi. Siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

## III bo'lim. MOLIYA HUQUQI

### 18-§ O'zbekistonda moliya-kredit tizimi

Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:



- Konstitutsiya moliya-kredit huquqining asosiy manbayi.
- Moliya va davlat moliyaviy faoliyati.

#### Konstitutsiya moliya-kredit huquqining asosiy manbayi

Moliya huquqi mustaqil huquq tarmog'i hisoblana-di. Moliya huquqi O'zbekiston Respublikasi qonun huj-jatlarining tegishli sohasi sifatida qayd etiladi. Moliya huquqiy normalari yordamida davlat tomonidan moliyaviy tizim harakatga keltiriladi va undan foydalanila-di. Bu soha turli huquq sohalari bilan tartibga solinadi.

#### Huquq tarixidan



Moliyaning vujudga kelishi tovar-pul munosabatlaring rivojlanishi va davlatning o'z funksiyalarini bajarishining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liq. Dastlab bu atama XII-XV asrlarda Italiyada pay-do bo'ldi, Genuya, Venetsiya, Florensiya kabi shaharlar savdo, pul hisob-kitoblari va banklarining faoliyatida muomalaga kiritildi. Keyinchalik uni davlat tomonidan o'z vazifalarini hal qilish uchun yo'naltiriladigan pul munosabatlari tizimi, pul jamg'armalarini hosil qilish bilan bog'liq tushuncha sifatida qo'llay boshladilar.

Moliya – pul mablag'lari jamg'armalarini yaratish va ulardan foydalanish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriyadir.



Moliya umum-davlat ehtiyoj-larini moliyalash uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘lari jamg‘armalarini yaratish, taqsim-lash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar tizimidir.



Davlat moliyaviy faoliyati deganda markazlashgan va markazlash-magan pul jamg‘armalar ni maqsadga muvofiq va rejali tashkil etish, uni taqsimlash va foydalanishni tushunamiz.

Moliya sohasi moliya huquqini butunlay qamrab olsa ham, moliyaviy tizimning turli pog‘onalarida uning normalari turlicha qo‘llaniladi. Xullas, moliya huquqi predmetini davlat va ma’muriy-hududiy tuzilmalarining moliyasi tashkil etadi. Moliya huquqi moliyaviy tizimning boshqa bo‘g‘inlari bilan chambarchas bog‘liq.

Moliya tushunchasi juda keng bo‘lib, o‘z mohiyatiga ko‘ra, iqtisodiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Bunday kategoriyalarga «pul», «foyda», «tannarx» kabi boshqa iqtisodiy tushunchalar ham kiradi. Bular kategoriyaning mohiyatini va jamiyat rivojlanishidagi rolini belgilovchi turlicha vazifalarini bajaradi.

Davlat va mahalliy hokimiyat organlari pul jamg‘armalarida mablag‘larni yig‘ish va undan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar moliya huquqi bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moliyaviy qonun hujjatlarining negizini tashkil etadi. Davlat moliyaviy munosabatlar va faoliyatini huquqiy tartibga solishning asoslari Konstitutsiyaning XXV «Moliya va kredit» bobida mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasi moliya tizimi quyidagi bo‘g‘inlardan tarkib topgan:

- a) davlat byudjeti, uning tuzilmasiga kiruvchi respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar;
- b) davlat maqsadli jamg‘armalari va byudjetdan tashqari jamg‘armalar;
- c) xo‘jalik yurituvchi subyektlar va iqtisodiyot tarmoqlari moliyasi;
- d) kredit (davlat krediti va bank krediti);
- e) mulkni sug‘urta qilish va shaxsiy sug‘urta.

## Davlat moliyaviy faoliyati

Davlat o‘z oldida turgan vazifalarni bajarish jarayonida ma’lum bir faoliyat turini amalga oshiradi. Moliyaviy faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi huquqiy munosabatlarni moliya huquqi tartibga soladi.

Mazkur munosabatlarni quyidagi guruhlarga taqsimlash mumkin:

- 1) davlat va ma’muriy-hududiy tuzilmalarning byudjet sohasidagi faoliyati;
- 2) davlat va ma’muriy-hududiy tuzilmalarning soqliq sohasidagi faoliyati;
- 3) davlat va ma’muriy-hududiy tuzilmalarning kredit sohasidagi faoliyati;
- 4) davlat va mahalliy korxonalarining moliyaviy faoliyati;
- 5) majburiy sug‘urta sohasidagi davlat faoliyati;
- 6) davlat va mahalliy organlarning byudjetdan tashqari jamg‘armalar sohasidagi faoliyati.

Davlatning moliyaviy faoliyati davlat zimmasidagi funksiyalarning bajarilishini ta’min etish yo‘lida pul mablag‘larini to‘plash, taqsimlash (qayta taqsimlash) sohasidagi tadbirdardan iborat. Bu faoliyat moliyaviy mablag‘larni to‘plash va sarflash orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy mablag‘larni sarflash uchun moliyalashtirish va kreditlashtirish usullari qo‘llaniladi.

Moliyalashtirish asosida asosan byudjet tashkilotlariga davlat byudjetidan pul mablag‘lari qaytarib bermaslik sharti bilan ajratiladi.

Kreditlashtirish asosida ajratilgan pul mablag‘lari korxona, tashkilot va fuqarolar tomonidan muayyan vaqtgacha qaytarilishi lozim. Pul mablag‘i ma’lum muddatga, ma’lum summada qaytarish sharti bilan ajratiladi.



**Markazlashgan fondlar** respublikasi, viloyatlar, tumanlar fondlaridan iborat bo‘lib, ulardan faqat shu hududlarining ehtiyojlari uchungina foydalaniлади.

**Markazlashmagan fondlar** korxona va tashkilotlar pul fondlari bo‘lib, ular ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy maqsadlarga ishlatiladi.

## Ijodiy faoliyat



«Iqtisodiy bilim asoslari» fanidan olgan bilimlar ringizga tayaniq, quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling.

1. Mam-lakatimizda qanday soliqlar joriy etilgan?

2. Majburiy to'lovlar deganda nimani tushunasiz?

Qanday majburiy to'lovlarni bilasiz?

Davlatning moliyaviy faoliyati quyidagi bir necha prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

- ➔ qonuniylik prinsipi;
- ➔ demokratik prinsip;
- ➔ fuqarolarning va mehnat jamoalarining ishtiroki prinsipi;
- ➔ milliy siyosat prinsipi.

O'zbekiston davlatining moliyaviy faoliyati — bu respublikada ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalardagi vazifalarni amalga oshirish, davlatning xavfsizligi va mudofaasini ta'minlash maqsadida pul jamg'armalarini rejali tashkil etish, uni taqsimlash va undan maqsadga muvofiq foydalanishdir.

## Savol va topshiriqlar



1. O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi bo'g'inlarini tushuntirib bering.
2. Huquq tizimida moliya huquqining tutgan o'rni nimada?
3. Moliya huquqi qanday munosabatlarni tartibga soladi?
4. Davlat o'zining moliyaviy faoliyatini qanday amalga oshiradi?
5. Sizning hayotingizda davlatning moliyaviy faoliyati qanday aks etadi?
6. Ta'lim sohasida davlat qanday moliyaviy faoliyatni amalga oshiradi?
7. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy faoliyati tushunchasi.
8. Pul mablag'larini to'plash va uning turlari.
9. Pul mablag'larini taqsimlash va uning turlari.

# 19-§ Moliyaviy-huquqiy munosabatlar

Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:



- Moliyaviy-huquqiy munosabatlar tushunchasi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.
- Moliyaviy-huquqiy munosabatlarning turlari.
- Moliya huquqi subyektlari tushunchasi va tizimi.

## Moliyaviy-huquqiy munosabatlar tushunchasi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari

Moliyaviy-huquqiy munosabatlar huquqiy munosabatlarning muayyan bir turini tashkil etadi. Shuning uchun har qanday huquqiy munosabatga xos bo‘lgan umumiy narsalar unga ham xosdir.

Moliyaviy-huquqiy munosabatlar ayrim o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega bo‘lib, bu xususiyatlar ularni huquqiy munosabatlarning boshqa turlaridan ajratish uchun imkon beradi.

Ushbu xususiyatlar ularning yuzaga kelish sohasi (davlat moliyaviy faoliyati), moliyaviy-huquqiy tartibga solishning o‘ziga xosligi (davlat moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi organ xohish-irodasining imperativligi va bir tomonlamaligi), huquqiy tartibga solish obyekti kabilalar bilan belgilanadi.

Moliyaviy munosabatlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iboratdir:

- *birinchidan*, moliyaviy-huquqiy munosabatlar faqat davlat pul jamg‘armalarini rejali yaratish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladi;
- *ikkinchidan*, moliyaviy-huquqiy munosabatlar ko‘pincha mulkiy munosabatlarning turlaridan hisobla-



Moliyaviy-huquqiy munosabat – bu davlat moliyaviy faoliyatida yuzaga keladigan, mulkiy xususiyatga ega bo‘lgan moliyaviy-huquqiy norma bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatdir.



Moliyaviy-huquqiy munosabatlar hamma vaqt pul mablag‘lari sababli yuzaga keladi.



Moliyaviy-huquqiy munosabatlarni belgilovchi xususiyati shundan iboratki, ular asosan davlat va ijtimoiy hayotning maxsus sohasida, ya’ni davlatning aynan moliyaviy faoliyati sohasida tarkib topadi.

nadi, chunki ushbu munosabatlar obyekti sifatida pul mablag‘lari qatnashadi;

— *uchinchidan*, moliyaviy-huquqiy munosabatlar tomonlaridan biri sifatida hamma vaqt davlat yoki uning vakolatli organi qatnashadi.

## **Moliyaviy-huquqiy munosabatlarning turlari. Moliya huquqi subyektlari tushunchasi va tizimi**

Moliyaviy-huquqiy munosabatlarning bir qancha turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Masalan, moliya tizimining tegishli bo‘g‘iniga qarab, byudjet, soliq, davlat kreditini tashkil etish bo‘yicha, sug‘urta, pul muomalasi va hisob-kitoblar, valyutani tartibga solish kabi huquqiy munosabatlar va hokazo.

Moliyaviy-huquqiy munosabatlarni moddiy va protsessual huquqiy munosabatlarga ajratish qabul qilingan.

Moddiy moliyaviy-huquqiy munosabatlar moliya huquqi subyektlarining moliyaviy-huquqiy normalar materiallarida mustahkamlangan huquq va majburiyatlarini amalga oshirish vositasi hisoblanadi.

### **Ijodiy faoliyat**



Moliyaviy-huquqiy munosabatlarning asosiy obyekti hisoblangan moliyaviy faoliyat to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita davlatning xohish-irodasi va manfaatlarini ifodalaydi.

1. Davlatning xohish-irodasi va manfaatlarini ifodalaydi, deganda nimani tushundingiz?
2. «Davlatning xohish-irodasi» iborasini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasi bilan bog‘lab tushuntiring.

Protsessual moliyaviy-huquqiy munosabatlar davlat pul jamg‘armalarini taqsimlash tartibi, ulardan foydalanishni nazorat qilish shakl va uslublarini belgilash munosabati bilan yuzaga keladi.

Moliyaviy-huquqiy munosabatlar o‘z obyektlariga ega. Bu obyektlar, eng avvalo, pul va pul majburiyatlaridir, ammo faqat bu bilan kifoyalanmay, ularga pul mablag‘larining to‘planishi va sarflanishini ta’minlovchi tartib-qoidalar, moliyaviy munosabat ishtirokchilarining qonun doirasidagi xatti-harakati ham kiritilishi mumkin.

Moliyaviy-huquqiy munosabatlar ikki tomonlama munosabat bo‘lib, unda majburiyatlarning bajarilishini hammadan va har doim talab qilish vakolatiga ega bo‘lgan davlat (uning moliya, soliq, kredit muassasalari), ikkinchi tomondan esa moliyaviy-huquqiy normalar qaratilgan boshqa shaxslar (davlat va jamoat idoralari, yuridik va jismoniy shaxslar) ishtirok etadi.

Moliyaviy-huquqiy munosabatlar – munosabat obyekti, munosabat subyekti, munosabat mazmunini tashkil etadi.

Moliya huquqi normalari talablari moliyaviy-huquqiy munosabatlarning ko‘p turliligi orqali ro‘yobga chiqib, ushbu munosabatlarning tegishli subyektlarisiz yoki qatnashchilarisiz ularning mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Moliya huquqida an’anaviy ravishda moliya huquqiy subyektlarining uchta assosiy guruhi ajratiladi.



Pul munosabatlari markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag‘lari jamg‘armalarini yaratish va ular dan foydalanish bilan bog‘liq holda yuzaga keladi.



Moliyaviy-huquqiy munosabatlar davlat hokimiyati xususiyatisiz mavjud bo‘lishi mumkin emas.



Aynan qanday munosabatlarda davlat moliya huquqining subyekti bo‘la oladi? Savolga javob berishda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi moddalaridan foydalaning.

**1. Ijtimoiy-hududiy tuzilmalar** — O‘zbekiston Respublikasi va uning ma’muriy hududiy birliklari. Shu o‘rinda ular moliyaviy-huquqiy qobiliyat egalari hisoblanadi.

Mazkur birliklar moliya huquqi subyekti sifatida ko‘proq O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Byudjet tizimi to‘g‘risida»gi va «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi qonunlarda mustahkamlangan byudjet munosabatlari sohasidagi vakolatlarni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi.

Shu tariqa aynan shu subyektlarga davlat va mahalliy byudjet huquqi mustahkamlab berilgan.

Ayrim huquqiy munosabatlarda faqat davlatning o‘zi moliya huquqiy subyekti sifatida qatnashishi mumkin.

**2. Jamoa subyektlari** — davlat moliyaviy faoliyati sohasida tegishli yuridik majburiyatlar va huquqlar majmuyini olish qobiliyatiga ega bo‘lgan hamda ularning amalga oshirilishi uchun mas’ul hisoblangan odamlarning tashkiliy va alohida ajratilgan turli xil birikmlaridir. Ular qatoriga, odatda, yuridik shaxs maqomiga



ega bo‘lgan davlat organlari va tashkilotlar (korxonalar, muassasalar) kiradi.

Davlat organlari moliya huquqi subyektlari jumlasiga kiradi, chunki ularning ishtirokisiz huquqiy munosabatlar amalda yuzaga kelishi mumkin emas.

Demak, davlat organlari moliyaviy-huquqiy munosabatlarning majburiy qatnashchilari qatoriga kirib, bu moliyaviy faoliyatning davlat-hokimiyat xususiyati va uning huquqiy tartibga solish uslubining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi.

Moliya huquqi jamoa subyektlarining eng ko‘p sonli guruhini ijroiya hokimiyati davlat organlari tashkil etadi.

**3. Individual subyektlar** — O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bo‘lib, ular teng moliyaviy-huquqiy subyektlikka ega va shu munosabat bilan qonunlarda jismoniy shaxslar sifatida belgilanadi. Moliya huquqi subyektlarining ushbu toifasi asosan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashga doir munosabatlarda ishtirok etadi. Shu tariqa jismoniy shaxslar daromad solig‘i, yer solig‘i, mol-mulk solig‘i va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lovchilar hisoblanadi.

### Savol va topshiriqlar

1. Kimlar moliyaviy-huquqiy munosabat ishtirokchilari hisoblanadi?
2. Moliyaviy munosabatlarning asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
3. Jismoniy shaxslar qachon moliyaviy-huquqiy munosabat ishtirokchilari bo‘lishlari mumkin?
4. Davlat qanday hollarda moliyaviy-huquqiy munosabat ishtirokchisi bo‘ladi?



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasing 100- va 122-moddalarini o‘qing va berilgan matn bilan muvofiqlashtiring.



Davlat ijroiya organlari ro‘yxatini shakllantirishga harakat qiling.



# 20-§ O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va byudjet huquqi



**Byudjet huquqi** – moliya huquqining bir qismi davlatning byudjet tuzilishini, turli darajadagi byudjetlarni, ularning daromad qismini shakllantirish va byudjet mablag‘larining sarflanishi, shuningdek umuman davlatning byudjet-moliya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish tartibini belgilovchi huquqiy normalar majmuyi.

## Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:

- Byudjet tushunchasi va huquqi.
- Davlat byudjeti va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.



## Byudjet tushunchasi va huquqi

Byudjet huquqini davlat byudjeti mablag‘larini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo‘yicha yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi moliyaviy-huquqiy normalar majmuyi sifatida belgilash mumkin.

Davlat byudjet tashkilotlari o‘z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun kerak bo‘lgan barcha mablag‘larni byudjetning tegishli xarajatlar qismidan oladilar.

Byudjet davlat hokimiyati organlari funksiyalarini ta’minlash maqsadida pul mablag‘larini tashkil etish va xarajat qilish shaklidir.

## Byudjetning asosiy vazifalari:

- milliy daromadni qayta taqsimlash;
- iqtisodiyotni tartibga solish;
- byudjet sohasini moliyaviy ta’minlash va davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish;
- markazlashgan pul mablag‘lari jamg‘armalarni tashkil etish va foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish.

Byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, ularning boshqa qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan normalari Byud-

jet kodeksiga muvofiq bo‘lishi kerak. Agar davlatimiz tomonidan imzolangan xalqaro shartnomalarda byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga zid qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

## Davlat byudjeti va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Davlat byudjeti har yili tasdiqlanadi va u 1-yanvardan 31-dekabrga qadar amalda bo‘ladi.

Davlatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi jarayonida byudjetdan foydalanish natijasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me’yorlar alohi-da guruhga ajratiladi hamda moliya qonun hujjatlarining asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lgan byudjet qonunlarini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- byudjet tizimining yagonaligi;
- byudjet tizimining O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;
- byudjet tizimi byudjetlarining balansliligi va o‘zaro bog‘liqligi;

## Huquq tarixidan

Byudjet so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib, «g‘azna» degan ma’noni anglatadi. Byudjet XVII asrning ikkinchi yarmida Fransiyadagi burjua revolyut-siyasidan keyin o‘rnatilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida byudjet atamasi Yevropa mamlakatlarida tarqaldi va XX asrdan deyarli barcha mamlakatlarda byudjet kategoriyasi foydalanila boshlandi.



**Byudjet jarayoni** — byudjet tizimi byudjetlari ni shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, turli byudjetlarning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayoni.



**Byudjet jarayoni ishtirokchilari** — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilar.



**Byudjet tashkiloti** – davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyaati organlarining qaroriga ko‘ra tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilotdir.



**Moliya yili** — 1-yanvardan 31-dekabr oxirigacha bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga oluvchi davr.

- ➔ byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini programmoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish;
- ➔ byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalananishning aniq yo‘naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati;
- ➔ byudjet tizimi byudjetlarining mustaqilligi;
- ➔ byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalananishning natijadorligi;
- ➔ kassaning yagonaligi;
- ➔ byudjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi;
- ➔ ochiqlik.

## О‘zbekistonning Davlat byudjeti tuzilmasi

Davlat byudjeti quyidagi darajadagi byudjetlardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasining byudjeti;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari.

Davlat byudjeti daromadlari:

- ➔ soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar;
- ➔ davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;

## Huquq tarixidan

2013-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi mablag‘larini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish va byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilishga oid munosabatlarni tartibga soluvchi «O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi.





- meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlari;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

## Savol va topshiriqlar



O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksini topping va quyidagi savollarga javob bering.

1. Byudjet sohasidagi vakolatlar qaysi davlat organlariga berilgan?
2. Davlat maqsadli jamg'armalarining daromadlari haqida ma'lumot to'plang.
3. Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi nimalidan iborat?
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining xarajatlari nimalardan iborat?



## Hududiy moliya organlari —

Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari.

## Moliyaviy majburiyatlar —

byudjet tashkilotlarida va byudjet mablag'lari oluvchilarda ularga pul mablag'larini o'tkazish majburiyatini yuklovchi hujjatlar, shu jumladan, ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar.



5. O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining vazifasi nimadan iborat?
6. Quyidagi jadvalda berilgan jumlalar to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.

1	<b>Moliya yili</b>	a	— byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayoni;
2	<b>Byudjet jarayoni</b>	b	— davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar;
3	<b>Byudjet jarayoni ishtirokchilari</b>	c	— byudjet tashkilotlarida va byudjet mablag‘lari oluvchilarda ularga pul mablag‘larini o‘tkazish majburiyatini yullovchi hujjatlar, shu jumladan ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar.
4	<b>Moliyaviy majburiyatlar</b>	d	— davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko‘ra tashkil etilgan, Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot.
5	<b>Byudjet tashkiloti</b>	e	— 1-yanvardan 31-dekabr kuni oxirigacha bo‘lgan vaqt ni o‘z ichiga oluvchi davr.

# 21-§ Davlat daromadlarini huquqiy tartibga solish

Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:



- Davlat daromadlari.
- Soliqlar tushunchasi va funksiyalari.
- Soliqlar va boshqa majburiy to‘lov larning elementlari.



**Davlat daromadlari** – bu davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalgalashirish, mamlakat mudofaasi va xavfsizligini, shuningdek, davlat organlari faoliyatini ta’minlash bo‘yicha masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan moliya bazasini yaratishga qaratilgan mamlakat milliy daromadining bir qismi.

Davlat o‘z oldida turgan vazifa va funksiyalarini amalgalashirish uchun ma’lum bir moliyaviy resurslarga ega bo‘lishi lozim. Shu sababli turli pul to‘lovlari va ajratmalar ko‘rinishidagi mamlakat milliy daromadining bir qismi uning ehtiyojlariga yo‘naltiriladi.

Natijada u o‘z daromadlariga, ya’ni davlat daromadlari ega bo‘ladi. Bu daromad davlat egaligida bo‘lib, tegishli davlat hokimiyati organlari tomonidan tasarruf qilinadi.

Davlat daromadlarining manbasi va tizimi, shuningdek ulardan har birining ahamiyati davlat iqtisodiy tizimiga bog‘liq bo‘ladi.

Davlat daromadlari yagona tizimdan iborat bo‘lib, uning elementlari pul mablag‘lari ayrim turlarining muayyan majmuyini tashkil etadi. Davlat daromadlarining yagona tizimi shu bilan izohlanadiki, amaldagi qonun hujjatlari davlat tomonidan o‘zining barcha daromadlarini shakllantirish uchun foydalaniladigan pul mablag‘larining aynan bir turini belgilaydi.

Davlat daromadlarining yagona tizimi ular mohiyating eng muhim xususiyatlarini aks ettiradigan belgilarga qarab har xil turlar bo‘yicha tasniflanadi.



**Markazlashgan daromadlar**  
deganda yagona umum davlat jamg‘armasiga, ya’ni mam-lakatning davlat byudjetiga kelib tushadigan moliyaviy resurslar tushuniladi.



**Davlatning markazlashtirilmagan daromadlariga**  
davlat korxonalarining daromadlari kirib, bu daromadlar qonunlarda belgilangan tartibda korxonalar ixtiyoriga kelib tushadi va ular tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqarish va ijtimoiy ehtiyojlar uchun foydalaniлади.

Shakllanish va foydalanish tartibiga qarab barcha davlat daromadlari markazlashtirilgan va markazlashti-rilmagan daromadlarga bo‘linadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘laganidan keyin korxonalar olgan foya va ular ixtiyorida bo‘lgan boshqa daromadlarni mustaqil ravishda tasarruf etishi mumkin.

Davlat daromadlari va ular o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar qonun hujjatlari me’yorlari, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, Soliq kodeksi va boshqa qonunlar va qonunosti hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Davlat daromadlari hududiylik xususiyatiga ko‘ra, respublika va mahalliy daromadlarga bo‘linadi.

Davlat daromadlari yuridik xususiyati va shakliga ko‘ra soliq to‘lovleri va soliqsiz tushumlarga bo‘linadi.

Soliqlarga majburiylik va individual qaytarib bermaslik xususiyatlari xosdir.

Soliqsiz to‘lovlar majburiy va ixtiyoriy bo‘lishi mumkin. Majburiy soliqsiz to‘lovlar davlat tomonidan ma’lum bir yuridik ahamiyatli xizmatlarni ko‘rsatish, bir faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini berish orqali undiriladi. Bunday to‘lovlarda ikki tomon ham huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi.

Davlat daromadlari to‘plash usuliga ko‘ra majburiy to‘lovlar va ixtiyoriy to‘lovlarga bo‘linadi.

Davlat va mahalliy organlarning ixtiyoriga kelib tushadigan daromadlarning katta qismini majburiy to‘lovlar tashkil qiladi. Bularga soliqlar, bojxona va boshqa to‘lovlar, turli xildagi jarimalar va moliyaviy sanksiyalar kiradi.

Ixtiyoriy to‘lovlar esa lotereya o‘yinlari o‘tkazishdan, turli aksiyalardan, yuridik va jismoniy shaxslarning xayr-ehsonlaridan, davlat qimmatli qog‘ozlarini sotishdan tashkil topadi.

Mulkka bo‘lgan munosabatni hisobga olgan holda, daromadlarni qaytarib berilmaydigan daromadlarga, vaqtincha foydalanimadigan va qaytarib beriladigan daromadlarga bo‘lish mumkin. Masalan, soliqlar, bojlar, yig‘imlar, davlat mulkini xususiylashtirishdan kelib tushadigan to‘lovlar va boshqa majburiy to‘lovlar qaytarib bermaslik sharti bilan davlat daromadlariga to‘planadi hamda davlat va ma’muriy-hududiy tuzilmalarning mulki hisoblanadi.

Vaqtincha foydalanimadigan daromadlar esa davlat va ma’muriy-hududiy tuzilmalarning daromadiga kiritilmagan bo‘lib, ular obligatsiyalar, zayomlarni tarqatishdan, banklar tomonidan byudjetdan tashqari mablag‘larni to‘ldirish uchun beriladigan kreditlardan hosil bo‘ladigan daromadlar va boshqalar.

Davlat byudjetida to‘planadigan markazlashtirilgan daromadlar mamlakat xarajatlarini qoplanishining asosiy manbayi hisoblanadi, ular bevosita va bilvosita soliqlar asosida shakllantiriladi.

## Soliqlar tushunchasi va funksiyalari

Davlatning eng muhim belgilaridan biri unda soliqlarning joriy qilinganligidir. Moliya huquqining huquqiy institutlaridan biri soliq huquqi bo‘lib, u soliq to‘lovlarini joriy etish va undirib olish vaqtida yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar amal qiladi.

Soliqlarga quyidagilar kiradi:

- ➔ yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
- ➔ jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- ➔ qo‘shilgan qiymat solig‘i;



«Iqtisodiy bilim asoslari» darslarida olgan bilimlaringizga tayanib, «bevosita soliq» va «bilvosita soliq» tushunchalariga ta’rif bering.



Soliqlar ularni to‘lovchi shaxslar uchun qullik emas, balki ozodlik alomatidir.

**A. Smit,**  
*soliq solish*  
*nazariyasining*  
*asoschisi*



Soliqlar davlat hokimiyatining ajralmas qismlari bo‘lgan armiya, sud, davlat apparati faoliyatini hamda davlatning boshqa ehtiyojlarini moddiy jihatdan ta’minlash uchun zarur.



Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning elementlari quyidagilardir:

- ✓ soliq solish obyekti;
- ✓ soliq solinadigan baza;
- ✓ stavka;
- ✓ hisoblab chiqarish tartibi;
- ✓ soliq davri;
- ✓ soliq hisobotini taqdim etish tartibi;
- ✓ to‘lash tartibi.

- ➔ aksiz solig‘i;
- ➔ yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;
- ➔ suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- ➔ mol-mulk solig‘i;
- ➔ yer solig‘i;
- ➔ benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy to‘lovlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- ➔ davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy to‘lovlar:
  - ✓ yagona ijtimoiy to‘lov;
  - ✓ byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga fuqarolarning sug‘urta badallari;
  - ✓ davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar;
  - ✓ Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar;
- ➔ davlat boji;
- ➔ bojxona to‘lovlari;
- ➔ ayrim turdagи tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagи xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im.

## Huquq tarixidan



Soliq huquqining ilk yozma me’yorlari Hammurapi qonunlarida (er. avv. XVIII asr) ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, birinchidan, soliqlarning ikki ko‘rinishi: podsho xazinasiga to‘lanadigan markazlashgan soliqlar va mahalliy oqsuyaklar xazinasiga to‘lanadigan mahalliy soliqlar; ikkinchidan, soliq subyektlari; uchinchidan, soliq obyektlari; to‘rtinchidan, soliqlarni undirish tartibi; beshinchidan, javobgarlik choralarri va boshqalar mustahkamlab qo‘yilgan.

Yurtimiz hududida Soliq kodeksida belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida quyidagi soliqlar to‘lanilishi mumkin:

- yagona soliq to‘lovi;
- yagona yer solig‘i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq.

Davlat umummilliy dasturlarini amalga oshirish davrida tegishli jamg‘armalar tashkil etilishi mumkin bo‘lib, ularga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburiy to‘lovlar belgilanadi.

## Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning elementlari

Soliq yoki boshqa majburiy to‘lov to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida uni to‘lovchilar, shuningdek uni hisoblab chiqish va to‘lash uchun zarur elementlar belgilab qo‘yilgan taqdirdagina ushbu soliq yoki to‘lov belgilangan deb hisoblanadi.

Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda soliq yoki boshqa majburiy to‘lov belgilanayotganda soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida soliq imtiyozlari, shuningdek ularning soliq to‘lovchi tomonidan qo‘llanilishi uchun asoslar nazarda tutilishi mumkin.



Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi o‘n olti yoshdan boshlab vujudga keladi.



Qonun qudratli, biroq ehtiyoj yanada kuchliroq

**Gyote**



**Soliq sohasidagi huquqiy munosabatlar** – soliq huquqi me'yorlari bilan tartibga solingan ijtimoiy moliyaviy munosabatlar bo'lib, bu munosabatlar soliqlarni joriy etish, yuridik va jismoniy shaxslardan, soliq to'lovchilarning boshqa toifalariidan soliqlarni undirish jarayonida yuzaga keladi.

Soliq to'lovchilar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari har bir soliq yoki boshqa majburiy to'lovga tatlbiqan belgilanadi.

Soliq huquqi munosabatlari quyidagi xususiyatlarga ega:

*birinchidan*, soliqlarni va boshqa majburiy to'lovarni o'rnatish va undirishga qaratilgan davlat faoliyati jarayonida yuzaga keladi;

*ikkinchidan*, maqsadli tizimga ega, ya'ni soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarning tizimi ma'lum bir maqsadga – soliqlarni o'rnatish va undirishga qaratilgan;

*uchinchidan*, ma'lum bir subyektlar o'rtasida bo'ladigan aniq aloqalarni tartibga soladi;

*to'rtinchidan*, davlatning majburlov kuchi bilan himoya qilinadi, ya'ni soliq qonunlari buzilganda davlatning majburlov choralar harakatga keladi.

## Savol va topshiriqlar



1. O'zbekiston Respublikasining Soliq, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslarini toping.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksidan soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari belgilangan qoidalarni o'qing va tushuntirib bering. Mazkur majburiyatlarni bajarmaganlik uchun qonunda qanday jazolar belgilanishi mumkinligini O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslaridan aniqlang.

2. O'zbekiston Respublikasi hududida Soliq kodeksida nazarda tutilgan qanday soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi?

## 22-§ Davlat kreditining huquqiy asoslari

Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:

- Davlat krediti tushunchasi.
- Davlat qarzi.



### Davlat krediti

Qo'shimcha pul mablag'larini yaratish maqsadida davlat ularni jalg etishning ixtiyoriy usullarini qo'llashi mumkin. Shu asosda moliyaviy munosabatlarning maxsus tizimi – davlat krediti vujudga keladi.

Davlat kreditida kredit munosabatlari subyektlari, bir tomonidan — davlat, ikkinchi tomondan — yuridik va jismoniy shaxslar bo'ladi. Bunda davlat ushbu munosabatlarda ko'rsatilgan subyektlarning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini qarzga oluvchi sifatida qatnashadi.

Davlat krediti bo'yicha yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar har qanday moliyaviy-

### Kredit

(lot. creditum – ssuda) – pul yoki tovarlarni, odatda, foizlar to'lab, qaytarish sharti bilan berish bo'lib, kreditor bilan qarz oluvchi o'rtaсидаги iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.



**Davlat krediti** – davlat tomonidan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim masalalari hamda byudjet tanqisligini qoplash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha moliyaviy resurslarni yo'naltirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh turgan pul mablag'larini qaytarishlik, muddat-lilik, g'arazlilik va ixtiyoriylik prinsiplariga asosan jalg etish bo'yicha moliya huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlardir.

**Kredit summasi** – bu qarzga beriladigan pul birligining hajmi.



**Kredit mexanizmi** – kredit munosabatlarini tashkil qilishda qo'llaniladigan elementlar majmuasidir.



**Kredit obyekti** – vaqtincha bo'sh turgan, berilishi mumkin bo'lgan pullar va tovarlardir.



**Kredit subyektlariga korxona, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.**

huquqiy munosabatlarga xos bo'lgan barcha belgilarga egadir. Bu, xususan, ularning obyektiga, davlat yoki u tomonidan vakolat berilgan organning ushbu munosabatlar majburiy subyekti sifatida mavjud bo'lishiga, davlat krediti sohasidagi huquqiy munosabatlarning davlat-hukmronlik xususiyatiga tegishlidir. Moliyaviy huquqiy munosabatlar, ma'lumki, mulkiy xususiyatga ega, chunki ular pul mablag'lari sababli yuzaga keladi. Biroq davlat krediti bo'yicha ushbu munosabatlar obyekti har qanday pul mablag'lari emas, balki yuridik va jismoniy shaxslarning faqat vaqtincha bo'sh turgan mablag'lari bo'lishi mumkin.

Davlat krediti sohasida nafaqat davlat qarz majburiyatları bo'yicha munosabatlar, balki davlat qarzi ishlashiga vositachilik qiluvchi huquqiy munosabatlar ham yuzaga keladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- ➔ Hukumat bilan Markaziy bank o'rtasida kelgusi moliya yilida kreditlashning ichki va tashqi manbalaridan qarz olish rejaliari to'g'risida maslahatlashish vaqtida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar;
- ➔ O'zbekiston Respublikasi davlat qarz majburiyatlarini chiqarish shartlari, davlat zayomlari bo'yicha xizmat ko'rsatish va ularni muomalaga chiqarish tartibini belgilash;
- ➔ davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bozorida dilerlik funksiyalarini bajarish uchun shartnomalar tuzish, shuningdek, davlat zayomlari obligatsiyalarini joylashtirish va muomalaga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish vaqtida Markaziy bank bilan tashkilotlar o'rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar va h.k.

## Davlat qarzi

Davlat qarzi – davlatning tashqi va ichki kredit operatsiyalari bo‘yicha qarzdorlik summasi. Davlat zayomlari kredit munosabatlarining bir turi bo‘lib, unda davlat yoki uning mahalliy organlari qarz oluvchi yoxud qarz beruvchi sifatida amal qiladi.

Xarajatlarni o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirish maqsadida davlat zayomlar va moliya bozoridan mablag‘larni jalb etadi.

Pul mablag‘larini jalb qilish davlatning moliya bozoridagi faoliyatining passiv shakli sifatida tavsiflanadi. Davlat pul mablag‘larini qarzga berishi uning moliya bozoridagi harakatining faol shakli sifatida qaraladi.



**Davlat qarzi –**  
O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi mablag‘larni jalb qilish natijasida vujudga kelgan majburiyatları.



## Savol va topshiriqlar

Berilgan matnni o‘qing va savollarga javob bering.

*Xalqaro valyuta jamg‘armasi eng yuqori davlat (ichki) qarzi mavjud bo‘lgan jahoning 20 ta mamlakatini belgilab berdi. Ushbu ro‘yxatda Yaponiya yetakchilik qilmoqda. 1990-yillarning boshidan Yaponiya uzlusiz turg‘unlikni boshidan kechirdi. Hozir Yaponiya hukumati mamlakatdagi soliq tushumlarining deyarli yarmini katta hajmdagi qarzni to‘lashga sarflamoqda. Shunga qaramay, 10 yillik yapon obligatsiyalari bo‘yicha daromadlilik 1%dan past darajada qolmoqda.*

1. 10 yillik yapon obligatsiyalari bo‘yicha daromadlilik hayratlanarli holda 1%dan past darajada qolishining sababi nimada deb o‘ylaysiz?
2. Yapon xalqining vatanparvarligi va dahldorligi yuzasidan fikr bildiring.
3. Ekspress test topshirig‘ini bajaring.

1	Kredit subyektlari	a	– vaqtincha bo‘shturgan, berilishi mumkin bo‘lgan pullar va tovarlar
2	Kredit obyekti	b	– bu qarzga beriladigan pul birligining hajmi
3	Kredit summasi	c	– davlatning tashqi va ichki kredit operatsiyalari bo‘yicha qarzdorlik summasi.
4	Davlat qarzi	d	– korxona, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi

## **IV bo'lim. EKOLOGIYA HUQUQI**

### **23-§ Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari**



**Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:**



- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ekologiya huquqining asosiy manbayi.
- Ekologiya huquqining maqsad-vazifalari va asosiy tamoyillari.

#### **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ekologiya huquqining asosiy manbayi**



Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

**O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 50-modda**

Ekologiya huquqining manbalari deganda atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladigan qonun hujjatlari tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ekologiya huquqining asosiy manbayi hisoblanadi.

Konstitutsiyamizda shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarning ijtmoiy, iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'rifiy sohalaridagi asoslari mustahkamlangan bo'lib, u atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha davlat-huquqiy mexanizmini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham Konstitutsiyada belgilangan qoidalar orqali jismoniy va yuridik shaxslar ekologiya huquqi, burchlari va erkinliklarini ifoda etadilar.

Konstitutsiyamizda fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo‘lishlari majburiyat sifatida qayd etiladi. Bu ekologiyaga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lish davlat siyosati darajasida qayd etilganidan dalolat beradi.

Konstitutsiyaning «Jamiyatning iqtisodiy negizlari» bo‘bining moddalarida mulk huquqining mazmuni e’tirof etilishi bilan bir qatorda, mulkdan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning xo‘jalik va ishlab chiqarish jarayonida atrof muhitga ziyon yetkazmasligi, ya’ni ularning ekologik majburiyatlari mustahkamlanadi.

Konstitutsiyaning 55-moddasida berilgan qoida ning ahamiyati shundaki, birinchidan, mustaqilligimizning moddiy asosini tashkil etuvchi tabiiy boyliklari xalqimizning boyligi, mulki ekanligi, ikkinchidan, tabiiy resurslardan faqat oqilona foydalanish zarurligi, uchinchidan, respublikamiz tabiatini davlat muhofazasiga olinganligi, ya’ni ekologik-huquqiy munosabatlarning davlat tomonidan kafolatlanishi kabi muhim tamoyillarni mustahkamlaydi.

Hozirgi kunda jahoning ko‘plab hududlarida toza ichimlik suvi tanqis bo‘lib bormoqda. Albatta, bularning bari suv havzalari ifloslanishi, ekologik me’yorlar buzilishi tufayli suv zaxiralari sifatining yomonlashuvi oqibatida yuz berayotgani bugun hech birimizga sir emas. Aytish joizki, sanoat chiqindilarri va o‘g‘itlardan intensiv foydalanish ko‘pgina hol larda suvda zararli kimyoviy moddalarining ortishiga sabab bo‘lib, noto‘g‘ri sug‘orishlar tuproq sho‘rlanishi va suvning bug‘lanish darajasini kuchayishiga olib keladi.



Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simplik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umum-milliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

**O‘zbekiston  
Respublikasining  
Konstitutsiyasi,  
55-modda**



Ekologik tahdid deganda nimani tushunasiz?

## Ekoliya huquqining maqsad-vazifalari va asosiy tamoyillari

Ekoliya huquqi tabiat va jamiyat tizimida paydo bo‘ladigan ekologik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan keng qamrovli va ko‘p tarmoqli huquq sohalaridan biri bo‘lib, tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishni o‘rganuvchi fandir.

Ekologik munosabatlar tizimida tabiiy resurslar, ya’ni yer, yer osti boyliklari, suv, o’simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish keng va muhim o‘rinni egallaydi.

Tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish oqibatida tabiatda turli ekologik muammolar paydo bo‘ladi va ekologik inqiroz keskinlashadi. Ekoliya huquqining tamoyillari tabiat-jamiyat tizimidagi o‘zaro munosabat-

## Huquq tarixidan



Respublikamiz bir qator tabiatni asrash sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlar, masalan, 1992-yildagi «Biologik xilma-xillik to‘g‘risida»gi Rio-de-Janeyro Konvensiyasi, 1972-yildagi «Dunyoning madaniy va tabiiy mersini himoya qilish to‘g‘risida»gi Konvensiya, 1995-yil 16-iyundagi «Osiyo va Afrika botqoqliklarida yashovchi va ko‘chib yuruvchi qushlarni himoya qilish to‘g‘risida»gi shartnoma, 1973-yil 3-martdagi «Yo‘qolish arafasidagi yovvoyi flora va fauna turlari bilan xalqaro savdo-sotiq qilish to‘g‘risida»gi Konvensiya, 1976-yil 10-dekabrdagi Atrof-muhitga nisbatan harbiy yoki boshqa zarar yetkazuvchi vositalar ishlatalishining oldini olishga doir Konvensiya, 1992-yil 9-maydagi BMT Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi Doiraviy konvensiyasi, 1985-yil 22-martdagi «Ozon qatlamini saqlash to‘g‘risida»gi Vena Konvensiyasi, «Ozon qatlamini buzuvchi moddalar to‘g‘risida»gi Montreal protokoli, YXHTning 1991-yil 17-dekabrdagi «Energetik xartiyasi», 1994-yil 17-iyundagi «Qattiq qurg‘oqchilikni boshdan kechirayotgan va/yoki cho‘lga aylanib borayotgan mamlakatlarda, ayniqsa Afrikada cho‘lga aylanib borishlarga qarshi kurash to‘g‘risida» Konvensiya va boshqalarga qo‘shilgan.

lar yo‘nalishi, chegaralarini belgilab berishda, ekologik-huquqiy mexanizmning barqarorligini kafolatlashda va qonunlar qoida-talablarining ekologik munosabatlarini tartibga solishda muhim ahamiyatga egadir.

Tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar juda xilma-xil va murakkab bo‘lganligi uchun ham ekologiya huquqining tamoyillarini quyidagi tizimlarga bo‘lishadi:

- davlat va huquqning umumiy tamoyillari;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid tamoyillar;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan tamoyillar.

Ekologiya huquqi huquq tizimining sohasi sifatida ekologik munosabatlarni tartibga solishda qonuniylik, ijtimoiyadolat, oshkoraliq, ishontirish va majburlov choralarining kombinatsiyasi, shaxslar huquq va burchlarining birligi va boshqalardan foydalanadi.

## Savol va topshiriqlar



1. Matnni o‘qing va ekologik halokatning jamiyatga ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy ta’sirlarini izohlang.

*Orol dengizining halokatga uchrashi tabiatga ham katta zarar yetkazmoqda. Mintaqada hayvonot va o‘simpliklar olami genofondining deyarli yarmidan ko‘pi, ya’ni balqlarning 11 ta, sut emizuvchilarning 12 ta, qushlarning 26 ta va o‘simpliklarning 11 ta turi yo‘q bo‘lib ketgan.*

2. Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlarini to‘plang va tanishib chiqing. Mazkur hujjatlarning qabul qilinishidan ko‘zlangan asosiy maqsadlarni aniqlang.
3. O‘zingiz atrof-muhitni, tabiatni muhofaza qilishda qanday ishtirok etasiz?



## Orol dengizi tarixidan

XX asrning 60-yillarda Amudaryo va Sirdaryodan Orol dengiziga har yili 56 kub. km suv quyilgan. Aholining sezilarli tarzda ko‘payishi, urbanizatsiya, yerlarning shiddat bilan o‘zlashtirilishi, ekologik oqibatlarni o‘ylamasdan Orol dengizi havzasida yirik gidrotexnik va irrigatsiya inshootlarining qurilishi sayyoradagi eng chiroyi havzaning qurishiga olib keldi.

## 24-§ Ekologik huquqbuzarlik uchun javobgarlik



**Ekologiya huquqi** – tabiat bilan jamiyat o‘rtasida paydo bo‘ladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishni o‘rganuvchi fandir. Ekologiya huquqi bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining huquq tizimida o‘z o‘rnini va salohiyatiga ega, alohida yo‘nalish va xususiyatlardan tarkib topgan huquq sohasi hisoblanadi.

Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:



- Ekologik javobgarlik tushunchasi, mohiyati va turlari.
- O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuni.
- Ekologik huquqbuzarlik uchun javobgarlik.

Ekologik javobgarlik deganda axloqiy qadriyatlar, milliy va xalqaro huquq normalari tomonidan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish maqsadida o‘rnatilgan qoida va me’yorlarning biron-bir davlat, yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan buzilishi oqibatida ularga nisbatan qo‘llaniladigan jazo choralarini tushuniladi.

Ekologik javobgarlik mazmun va mohiyatiga ko‘ra uch ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

- ekologik-ijtimoiy javobgarlik;
- ekologik-iqtisodiy javobgarlik;
- ekologik-huquqiy javobgarlik.

**Ekologik-ijtimoiy javobgarlik** kishilarning ja-moatchilik oldidagi javobgarligidir.

**Ekologik-iqtisodiy javobgarlik** esa iqtisodiy-huquqiy javobgarlikning bir turi bo‘lib, milliy yoki xalqaro huquq normalarida belgilangan qoida va me’yorlarni buzganlik uchun iqtisodiy javobgarlik cholarini o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy javobgarlik sifatida tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni ifoslantirish uchun to‘lovlar qo‘llaniladi.

**Ekologik-huquqiy javobgarlikka** milliy va xalqaro huquq normalarida belgilangan ekologik munosabat qatnashchilari uchun majburiy kuchga ega bo‘lgan qoida va me’yorlarni buzganlar uchun yuridik tusdagi jazo choralar qo’llanilishi kiradi.

## **O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuni**

O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuni tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi. Qonunning maqsadi inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar uyg‘unlikda rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim obyektlar muhofaza qilinishini ta’minalashdan, fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo‘lish huquqini kafolatlashdan iboratdir.

### **Tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarni buzganlik uchun javobgarlik**

Tabiatni muhofaza qilishning standartlari, normalari, qoidalari va boshqa normativ-texnik talablarini buzishda, shu jumladan:

- ➔ korxonalar, inshootlar, transport vositalari va boshqa obyektlarni rejalashtirish, qurish, tiklash va ta’mirlash, ulardan foydalanish yoki ularni tugatish chog‘ida, ekologiya nuqtayi nazaridan xavfli mahsulotlarni chet ellarga chiqarish va chet ellardan olib kelishda hududning belgilab qo‘yilgan ekologiya sig‘imini, ekologiya normalari, qoidalarni buzishda;
- ➔ tabiiy boyliklardan o‘zboshimchalik bilan foydalanishda, davlat ekologiya ekspertizasi talablari ni bajarmaganlikda;



Ekologik javobgarlik eko-logik xavfsiz muhitni ta’minalashdagi davlat, jamiyat va shaxslarning hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi burchlari va majburiyatları hamda ularni bajarmasligi tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy va yuridik xarakterdagи oqibatlardir.



**Ekologik jinoyatlar** – atrof tabiiy muhitga ijtimoiy xavfli zarar yetkazadigan ijtimoiy xavfli qilmishlar yig‘indisi.



O'tgan asrning o'rtalalida atmosfera tarkibida CO<sub>2</sub> ning miqdori 0,02% bo'lsa, hozirgi vaqtida bu raqam 0,03% gacha oshgan. Tashqi muhitga chiqariladigan CO<sub>2</sub> ning 31% ni AQSh, 18% ni MDH mamlakatlari, 7% ni Xitoy, 5,4% ni Germaniya, 4,7% ni Yaponiya, 3% ni Fransiya chiqarib tashlamoqda. Qolgan 31% esa boshqa mamlakatlarning hisobiga to'g'ri keladi.

- ➔ tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun belgilangan to'lovni, shuningdek atrof muhitni ifsollantirganlik va unga zararli ta'sir ko'rsatishning boshqa turlari uchun kompensatsiya to'lovlarini to'lashdan bosh tortganlikda;
- ➔ tabiatni muhofaza qilish obyektlarini qurish rejalarni, tabiatni muhofaza qilishga doir boshqa tadbirlarni bajarmaslikda;
- ➔ atrof tabiiy muhitni tiklash, unga bo'ladigan zararli ta'sir oqibatlarini bartaraf etish va tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish choralarini ko'rmaganlikda;



## **12-modda. Insonning yashash uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqi va bu muhitni saqlab qolish borasidagi burchi**


O'zbekiston Respublikasi aholisi o'z salomatligi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o'z salomatligini atrof muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish huquqiga ega.

Ana shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi aholisi tabiatni muhofaza qilish bo'yicha jamoat tashkilotlariga birlashish, atrof tabiiy muhitning ahvoli hamda uni muhofaza qilish yuzasidan ko'rileyotgan chora-tadbirlarga doir axborotlarni talab qilish va olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi aholisi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, tabiat boyliklariga ehtiyyotlik bilan munosabatda bo'lishi, ekologiya talablariga rioya etishi shart.

**O'zbekiston Respublikasining  
«Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni**

- ➔ tabiatni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirayotgan idoralarning ko'rsatmlarini bajarmaganlikda;
- ➔ tabiatni muhofaza qilish obyektlari va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy rejimini buzganlikda;
- ➔ atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirni hisobga olish qoidalarini buzganlikda;
- ➔ chiqindilarni, kimyo lashtirish vositalarini, shuningdek radioaktiv va zararli kimyoviy moddalarni saqlash, tashish, ulardan foydalanish, ularni zararsizlantirish va ko'mib yuborish vaqtida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzganlikda;
- ➔ atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshiruvchi mansabdar shaxslarning obyektlarga borishiga, ayrim shaxslar va tabiatni muhofaza qilish jamoat tashkilotlariga esa o'z huquq va vazifalarini ro'yobga chiqarishlariga to'sqinlik qilganlikda;
- ➔ atrof tabiiy muhitning holati va uning resurslaridan foydalanish to'g'risida o'z vaqtida va to'g'ri axborot berishdan bosh tortganlikda aybdor bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlariga binoan intizomiy, ma'muriy, jinoiy va boshqa yo'sindagi javobgarlikka tortiladilar.





## Savol va topshiriqlar



1. Fan-texnika ta'sirida atrof-muhitning o'zgarishi jarayoni mazmunini tushuntiring.
2. Ekologik inqiroz deganda nimani tushinasiz?
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiining 193-196-moddalarini o'qing va jinoyat subyektlarini aniqlang. Jinoyatning subyektiv tomoniga baho bering.

Voyaga yetmagan shaxslarning javobgarlik doirasini aniqlang.

1. A., K. va B. ismli shaxslar (*barchasi 16 yosh*) o'rmonga dam olishga chiqdilar. Ular gulxan yoqishdi va unga ko'plab yangi kesilgan daraxt shoxlarini tashlashdi. Tez orada olovni boshqarib bo'lmay qoldi va shamol ta'sirida u o'rmon sathida tez tarqala boshladi. Buning natijasida tabiatga ko'p miqdorda zarar yetkazildi.

2. Voyaga yetmagan N. ismli shaxs ishlab chiqarish korxonasidan chiqarilgan chiqindilarni belgilangan o'raga to'kmasdan, yaqin yerdagi suv havzasiga to'kib yuborishi qishloqda odamlar orasida yuqumli kasallik epidemiyasining tarqalishiga sabab bo'ldi, shuningdek chorva mollarining ham kasallanishiga olib keldi.

3. Kuzgi ta'til kunlarida G. ota-onasi va ukalari bilan dala hovliga dam olishga bordi. Kech kuz bo'lganligi uchun hamma yoqni daraxt barglari qoplagan. G. ukalari bilan hovlidagi va ko'chadagi barglarni dalaning bir chekkasiga to'pladi-da, yoqib yubordi. Bu holatni ko'rgan otasi darhol kelib, gulxanni o'chirdi va o'g'liga tanbeh berdi. Chuqurroq o'ra qazishni va barglarni ana shu o'raga ko'mib yuborishni buyurdi. Agar barglar yoqib yuborilsa, qanday huquqiy oqibat kelib chiqishi mumkin edi?

# V bo‘lim. PROTSESSUAL HUQUQ

## 25- Jinoyat-protsessual 26-§ qonun hujjatlari

Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi protsessual huquqning asosiy manbayi.
- Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplarining protsessual qonunchilikda e’tirof etilishi. Aybsizlik prezumpsiyasi.
- Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari.
- O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual va Jinoyat protsessual kodekslari.

### O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi protsessual huquqning asosiy manbayi

Jinoyat-protsessual huquq — sudda ishlarning yutilishi, shuningdek, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida ishtirokchilar va boshqa manfaatdor shaxslarning huquqlarini nazarda tutadi. Protsessual huquq O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan shaxsiy huquq va erkinliklarni zaruratsiz va asossiz cheklanmasligiga xizmat qiladi.

Protsessual huquqlar demokratik xarakterda bo‘lib, da’vo va nizolarni, huquqbuzarlik, shu jumladan, ji-



O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oly qadriyat hisoblanadi.

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-ning 13-mod-dasidan**



Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi...

### **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 26-modda**

noyat ishlarining tez va to'g'ri tekshirilishi, asosli, qonuniy va odilona hal qilinishini kafolatlaydi.

Protsessual huquq yuridik shaxslarning manfaatlari ni himoyalashga ham xizmat qiladi. Jinoyat ishida gumon qilinuvchi shaxs va ayblanuvchining tegishli eng muhim protsessual huquqi himoyalanish va himoya-chining yordamidan foydalanishdan iborat.

### **Umumqabul qilingan xalqaro huquq prinsiplarining protsessual qonun hujjatlarida e'tirof etilishi**

Insonlarning siyosiy huquq va erkinliklarini ta'minlovchi muhim xalqaro huquqiy hujjat 1966-yil 16-dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt hisoblanadi. Mazkur Pakt 5 qism, 53 moddani o'z ichiga oladi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt birinchi navbatda barcha fuqarolarning siyosiy huquqlarini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirokini ta'minlab beradi.

Mazkur Paktning 14-moddasi uchinchi qismi hamda Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasining 6-moddasi

### **Xalqaro huquq**



Barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir. Barcha odamlar ushbu Deklaratsiyaga zid bo'lgan har qanday kamsitishdan va shunday kamsitishga undaydigan har qanday gij-gijlashdan teng himoya qilinish huquqiga egadir.

### **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 7-moddasidan**

uchunchi qismiga muvofiq jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsning sud ishi asossiz kechiktirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ayblanuvchining bu huquqi adolatning asosiy kafolatlaridan birini o‘zida ifodalaydi. Sud tomonidan jinoyat ishining qo‘sishimcha tergov o‘tkazish uchun qaytarilishi esa ushbu kafolatga ziddir.

## Aybsizlik prezumpsiysi

Aybsizlik prezumpsiyasiga ko‘ra aybdorning jinoyati qonuniy tartibda isbot qilinmaguncha u aybsiz deb hisoblanadi. Guman qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyatda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va sud hukmi bilan qonuniy kuchga kirgunga qadar aybsizdir. U o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas. Aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyati bo‘lmasa, guman qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qo‘llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinadi.



23-modda.

Aybsizlik

prezumpsiysi

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

O‘zbekiston

Respublikasi

Jinoyat protsesual kodeksidan



## Xalqaro huquq

1. Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta’minlangan holda, ochiq sud majlisi yo‘li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir.

2. Hech kim, sodir etilgan vaqtida milliy qonunlar yoki xalqaro huquqlarga ko‘ra jinoyat deb topilmagan xatti-harakati yoki faoliyatsizligi uchun jazoga hukm qilinishi mumkin emas. Shuningdek, jinoyat sodir etilgan vaqtida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan jazoga nisbatan og‘irroq jazo berilishi mumkin emas.

**Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 11-moddasidan**



## Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari

Har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 44-modda**

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari jinoyatlarni tez va to‘la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minlashdan iboratdir.

Jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunlarda belgilangan tartibi qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga yordam qilmog‘i lozim.

Jinoyat protsessi — protsess ishtirokchilarining muayyan jinoyat protsessual faoliyati hamda shu faoliyatga tegishli bo‘lgan huquqiy munosabatlar tizimini tashkil qildi.

Jinoyat protsessining vazifalari — jinoyatlarni ochish, aybdorlarni adolatli jazolash, shuningdek boshqa jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni qonuniylikka rioya etish ruhida tarbiyalashdan iborat.

Jinoyat protsessining ajralmas xususiyatini uning huquqiy tabiatи — mazkur faoliyat va tegishli ijtimoiy munosabatlarning qonun jihatdan qat’iy tartibga solishi tashkil etadi.

Jinoyat protsessual qonuni muayyan protsessual harakatlarni rasmiylashtiradigan tegishli hujjatlar: surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida — qarorlar va bayonnomalar, sud muhokamasi bosqichida — ajrimlar, hukmlar va boshqalarni nazarda tutadi.

## Savol va topshiriqlar



Mashinasida shifoxona eshigigacha kelgan Sh. ismli shaxs orqa o'rindiqda o'tirgan, boshidan qon sizib chiqayotgan, kiyimlari chang, oyoq-qo'li shilingan, o'zi bemajol 10 yoshlardagi bir qizchani dast ko'tarib oldi-da, yugurganicha qabulxonaga shoshildi. Yoshi qirqlardan oshgan o'rta bo'yli vrachning: «Nima bo'ldi?» — deb bergen savoliga: «Bilmayman, ko'chadan shu ahvolda topdim», — deb javob berdi. Vrach qizchani ko'zdan kechirib, hamshiraga uni zudlik bilan rentgen xonasiga olib borishni buyurdi.

O'zi esa Sh. ismli shaxsdan voqeа tafsilotini so'rab, navbatchilik daftariга qayd etib borarkan: «Hammangiz shunaqa deysiz. Qilg'ilikni qilgandan keyin javobini ham berish kerak-da, uka! — deb qo'ydi. — Biz ichki ishlar organlariga xabar beramiz. Mana bu yerga imzo qo'ying. Mashinangiz va telefoningiz raqamini yozishni unutmang. Hech qayerga ketib qolmang, men qizchadan xabar olaman».

Vrach qizchaning oldidan qaytganida Sh. ismli shaxs allaqachon ketib ulgurgan edi. «Bu bola g'irt jinoyatchi ekan-ku, qochib ketdi», — degan fikr o'tdi vrachning ko'nglidan. Shu payt eshikdan ichki ishlar xodimlari kirib kelishdi. Ular bir odam mashina urib ketgan qizchani bu yerga olib kelganligi haqida xabar bergenini aytishdi. Voqeа joyidagi video yozuvidan aniqlanishicha, «Lasetti» rusumli oq mashina qizchani urib, voqeа joyidan yashiringan. Orqasidan kelayotgan «Matiz» avtomashinasi haydovchisi esa qizchani kasalxonaga olib kelgan. Ichki ishlar xodimlari oq «Lasetti» egasini topishganini ham aytib o'tishdi. Vrach begunoh yigitni asossiz ayblagani uchun tilini tishlab qoldi.

1. Voqeа ishtirokchilariga o'z munosabatingizni bildiring.
2. Sh. ismli shaxsni jinoyatchi deyish mumkinmi?
3. Oq rangli «Lasetti» haydovchisini-chi?
4. Vrach to'g'ri ish qildimi?
5. Bu yerda aybsizlik prezumpsiyasi buzilganmi? Fikringizni asoslang.

## 27-§ Jinoyat protsessi ishtirokchilari



Jinoyat protsessi quyidagilar bilan tavsiflanadi-gan bir nechta bosqichlardan iboratdir:

- a) jinoyat protsessining umumiy vazifalaridan kelib chiqadigan o‘zining alohida vazifalari bilan;
- b) ishtirok-chilarning alohida tarkibi bilan;
- c) bu ishtirok-chilarning o‘ziga xos harakatlari va huquqiy munosabatlari bilan;
- d) bu faoliyatga yakun yasaladi-gan o‘ziga xos hujjatlar bilan.

### Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:



- ➔ Jinoyat protsessi ishtirokchilari.
- ➔ Protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar.

Jinoyat protsessida surishtiruvchi, tergovchi, sudya, sud majlisi kotibi, prokuror ishtirok etadi. Jinoyat ishi-ni yuritishda jamoalar va ularning vakillari ham ishtirok etishi mumkin.

Shuningdek, jinoyat protsessida o‘z manfaatlari ni himoya qiladigan shaxslar, himoyachilar va vakillar ishtirok etadi. Bularga ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vogar, fuqarovi-y javobgar, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining, jabrlanuvchining qonuniy vakillari, jabrlanuvchining, fuqaroviy da’vogarning va fuqaroviy javobgarning vakillari kiradi.

Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar sifatida guvoh, guvohning advokati, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolislarni olishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat protsessida ishtirok etuvchilarning huquq va majburiyatları alohida qayd etilgan.

Quyidagi hollarda sudya, shuningdek xalq maslahat-chisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, sud majlisining kotibi jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas va uni rad qilish lozim, basharti:

1) u shu ish bo‘yicha jabrlanuvchi, fuqaroviylar da’vogar, fuqaroviylar javobgar, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, guvoh, himoyachi sifatida, guman qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining qonuniy vakili yoki jabrlanuvchi, fuqaroviylar da’vogar, fuqaroviylar javobgarning vakili sifatida ishtirok etayotgan yoki ilgari ishtirok etgan bo‘lsa;

2) u ushbu ishni yuritish uchun mas’ul bo‘lgan biror mansabdar shaxsning yoki Jinoyat protsessual kodeksning 76-moddasi birinchi qismining 1-bandida ko‘rsatilgan o‘zga shaxslarning qarindoshi bo‘lsa;

3) uning xolisligiga va beg‘arazligiga shubha tug‘diradigan boshqa holatlar mavjud bo‘lsa.

Sudya ilgari shu ishni yuritishda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdar shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud majlisining kotibi sifatida ishtirok etgan bo‘lsa, o‘sha ishni kelgusida ko‘rishda qatnasha olmaydi. Birinchi instansiya, appellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudida yoxud nazorat tartibida ishni ko‘rishda ishtirok etgan sudya uning ishtirokida chiqarilgan hukm, ajrim (qaror) bekor qilinganidan keyin o‘sha ishni ko‘rishda ishtirok eta olmaydi.



O‘ylab ko‘ringchi, jinoyat protsessining bosqichlari bir-biridan keyin qat’iy ketma-ketlik bilan amalga oshirilsa, qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?



Agar tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdar shaxsi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 76, 79-moddalarida ko‘rsatilgan holatlar mavjudligi sababli o‘zini o‘zi rad etmasa, uni rad qilish masalasi manfaatdar shaxslarning arizalariga ko‘ra tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ boshlig‘i yoki prokuror tomonidan hal qilinadi. Rad qilishni qanoatlantirish yoki qanoatlantirmaslik haqida qaror chiqariladi.

  
Xijolat va tortinchoqliq qayg‘u va yomonlik tufayli tinchlikning buzilishidir. Bundan inson o‘zining o‘tmishi, hozirgi payti va kelajakdagi mavqeyi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zini o‘zi koyiydi.

**Abu Ali ibn Sino**

Jinoyat ishini birinchi instansiya sudida ko‘rishda ishtirok etgan sudya shu jinoyat ishini appellatsiya yoki cassatsiya instansiyasida yoxud nazorat tartibida ko‘rishda ishtirok eta olmaydi.

Jinoyat ishini appellatsiya instansiyasi sudida ko‘rishda ishtirok etgan sudya shu jinoyat ishini birinchi instansiya yoki cassatsiya instansiyasi sudida yoxud nazorat tartibida ko‘rishda ishtirok eta olmaydi.

Jinoyat ishini cassatsiya instansiyasi sudida ko‘rishda ishtirok etgan sudya shu jinoyat ishini birinchi instansiya yoki appellatsiya instansiyasi sudida yoxud nazorat tartibida ko‘rishda ishtirok eta olmaydi.

Jinoyat ishini nazorat tartibida ko‘rishda ishtirok etgan sudya shu jinoyat ishini birinchi instansiya, appellatsiya yoki cassatsiya instansiyasi sudida ko‘rishda ishtirok eta olmaydi.

Surishtiruvchining, tergovchining, shuningdek sud majlisi kotibining o‘z protsessual majburiyatini bajariishi, basharti, ushbu ish qo‘srimcha tergov yuritish yoki sudda yangidan ko‘rish uchun yuborilgan bo‘lsa, ular tomonidan tegishlicha surishtiruv, dastlabki tergov yuritishga, shuningdek sud majlisi bayonnomasini tuzishga monelik qilmaydi.





1. Tezkor ma'lumotni o'rghanish maqsadida Andijon viloyatining Bاليقchi tumanida yashovchi, 1979-yilda tug'ilgan M.A.ning yashash xonadoni tekshirilganda qurilishi bitmagan uyidan qog'oz parchasiga o'rالgan, og'irligi 326,5 g bo'lган giyohvandlik moddasi topilib, daliliy ashyo sifatida olindi.

2. 2018-yilning 16-fevral kuni Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent viloyati sudida A.T. hamda uning jinoiy sheriklari sifatida gumon qilinayotganlar ustidan navbatdagi sud majlisi bo'lib o'tdi.

Sud majlisida jinoiy ish bo'yicha sudlanuvchilar o'zlarining so'nggi so'zlarini aytishdi. Ular Jinoyat kodeksi 177-moddasi 3-qismining «a» va «b» bandi, 188-moddasi, 189-moddasi, 190-moddasi 2-qismining «a» va «v» bandlarida ko'zda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda ayblandilar.

1. Mazkur jinoyatlar jinoyat protsessining qaysi bosqichida hisoblanadi?
2. Ular qaysi bosqichlardan o'tib bo'lgan?
3. Jinoyat protsessida qaysi shaxslar ishtirok etgan deb o'ylaysiz? Fikringizni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining moddalari asosida asoslang.
4. Ushbu jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslarni ajratib ko'rsating.
5. Qanday hollarda sudya, shuningdek, xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabдор shaxsi, sud majlisining kotibi jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas va uni rad qilishi lozim?
6. Jinoyat ishini birinchi instansiya sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya shu masala bo'yicha qaysi instansiya sudlarida ishtirok eta olmaydi?

## 28-§ Jinoyat protsessual qonunchilikda aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar



**Isbot qilish**  
ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashdan iboratdir.



Ma’lumotlar va narsalar tergov harakati bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida qayd etilganidan keyingina ularidan dalil sifatida foydalanish mumkin.

### Bugun darsda quyidagilar bilan tanishasiz:



- Dalillar va isbot qilinishi lozim bo‘lgan holatlar. Dalillar va ularning turlari.
- Isbot qilishning umumiylar shartlari.
- So‘roq qilish va uning tartibi.
- Voyaga yetmagan shaxsni so‘roq qilish tartibi, aybni e’lon qilish shartlari.

### Dalillar va isbot qilinishi lozim bo‘lgan holatlar

Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergenmi yoki yo‘qligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo‘ladigan har qanday haqiqiy ma’lumotlar jinoyat ishi bo‘yicha dalil hisoblanadi.

Bu ma’lumotlar guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining ko‘rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanadi.

Qonunda belgilangan talablarga rioya etilgan holda o‘tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari Jinoyat protsessual kodeks normalariga muvofiq tekshirilganidan va baholanganidan so‘ng jinoyat ishi bo‘yicha dalillar deb e’tirof etilishi mumkin.



...Protsessual qonunchilikni jiddiy buzgan holda yoki noqonuniy uslublar bilan, shu jumladan:

jinoyat protsessi ishtirokchilari yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish, psixologik va jismoniy tazyiq va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlarini qo‘llagan holda;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining himoyaga bo‘lgan huquqini, shuningdek, tarjimon xizmatidan foydalanish huquqini buzgan holda;

jinoyat protsessida ishtirok etayotgan shaxsga huquq va majburiyatlarini tushuntirmaslik oqibatida uni chalg‘itgan holda;

mazkur jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan protsessual harakatlarni o‘tkazish oqibatida;

noma’lum manbadan yoxud jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo‘lmagan manbadan;

dastlabki tergov jarayonida jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining sudda mavjud dalillar majmuyi bilan o‘z tasdig‘ini topmagan ko‘rsatuvaridan;

mavjud dalillar majmuyi bilan tasdiqlangan hollardan tashqari, jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining taxmin, faraz yoki mish-mishlarga asoslangan ko‘rsatuvaridan olingan hamda tegishli ravishda yuridik kuchga ega bo‘lmagan ma’lumotlardan jinoyat ishlari bo‘yicha dalil sifatida foydalanishga yo‘l qo‘yilmasin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi  
«Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari  
kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar  
to‘g‘rida»gi PF-5268-son Farmonidan**



So‘roqning umumiy davom etish vaqtি bir kunda sakkiz soatdan oshmasligi lozim. Dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan bir soat tanaffus bu hisobga kirmaydi.

Isbot qilishda quyidagilar taqiqlanadi:

1) shaxslarning hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan yoki ularning sha’ni va qadr-qimmatini kamshituvchi xatti-harakatlar sodir etish;

2) zo‘rlik, po‘pisa qilish, aldash va qonunga xilof boshqa yo‘llar bilan ko‘rsatuv, tushuntirish, xulosalar olishga, eksperimental harakatlarni bajarishga, hujjatlar yoki buyumlar tayyorlanishiga va berilishiga erishish;

3) tungi vaqtida, ya’ni kech soat 22-00 dan ertalab soat 6-00 gacha tergov harakatlari olib borish. Tayyorlanayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyatning oldini olish, jinoyat izi yo‘qolishiga yoki gumon qilinuvchining qo‘chib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, eksperiment jarayonida tekshirilayotgan hodisaning holatini qaytadan tiklash zarrati bo‘lgan hollar bundan mustasno.

Tergov yoki sud harakatlari jarayonida olib qo‘yildigan narsalar va hujjatlar tegishli bayonnomalarda aniq ko‘rsatiladi. Shu bilan birga narsa yoki hujjat egasiga bayonnomaga nusxasi yoki uning ko‘chirmasi topshirilib, tilxat olinadi. Ishga aloqasi bo‘lmagan narsa va hujjatlar qonuniy egasiga darhol qaytariladi. Fuqarolar saqlashi taqiqlangan narsa va hujjatlar yo‘q qilinadi yoki ularni saqlashga vakolati bo‘lgan va ularni tasarruf etadigan muassasalar yoki tashkilotlarga beriladi.

## **So‘roq qilish**

Surishtiruvchi yoki tergovchi guvohni, jabrlanuvchini, gumon qilinuvchini va ayblanuvchini surish-tiruv, dastlabki tergov o‘tkaziladigan joyda yoki so‘roq qilinuvchi qayerda bo‘lsa, o‘sha joyda, sud esa sud muhokamasi yuritilayotgan joyda so‘roq qiladi.



Voyaga yet-magan gumon qilinuvchini, ayblanuvchini so‘roq qilishga ketgan umumiyl vaqt kun davomida, dam olish va ovqatlanish uchun bir soatlik tanaffusni hisobga olmaganda, olti soatdan oshmasligi kerak.

Surishtiruvchi, tergovchi va sud so‘roq qilish oldidan so‘roq qilinuvchidan uning familiyasi, ismi va otasining ismini, tug‘ilgan vaqtini (yili, oyli, kuni) va tug‘ilgan joyini, yashash joyi va ish joyini, mansabi, mashg‘ulot turi, ma’lumoti, oilaviy ahvolini, sudlanganligi yoki sudlanmaganligini aniqlashi hamda bu ma’lumotlarni jinoyat ishidagi yoki so‘roq qilinuvchining shaxsiy hujjatlaridagi ma’lumotlar bilan solishtirib ko‘rishi yoxud so‘roq qilinuvchi o‘zini kim deb tanishtirgan bo‘lsa, aynan o‘sha shaxs ekanligiga boshqa yo‘llar bilan ishonch hosil qilishi lozim.

So‘roq qilinuvchi ish yuritilayotgan tilni biladimi, u qaysi tilda ko‘rsatuv bera olishi mumkinligini ham aniqlashtirishi lozim.

So‘roq qilinuvchining shaxsi aniqlangandan keyin unga Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar tushuntiriladi. Bu huquq va majburiyatlar tushuntirilganligi so‘roq bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi.

So‘roq qilinuvchining ko‘rsatuvlari raqamlar yoki xotirada saqlanishi qiyin boshqa ma’lumotlarga taalluqli bo‘lsa, u so‘roq jarayonida o‘zidagi yoki ishga qo‘sib qo‘yilgan hujjatlardan yoxud boshqa yozuvlardan foydalanishi mumkin.

So‘roq qilinuvchiga so‘roq qilish jarayonida o‘zida-gi hujjatlar va boshqa yozuvlarni o‘qib eshittirishga ruxsat etilishi mumkin.

Surishtiruvchi, tergovchi va sud so‘roq qilinuvchidan so‘roq qilish jarayonida u foydalanayotgan hujjatlar va boshqa yozuvlarni talab qilishi, ularni keyin qaytarib berishi yoki ishga qo‘sib qo‘yishi mumkin.

O‘n olti yoshgacha bo‘lgan guvoh yoki jabrlanuvchini so‘roq qilish qonuniy vakili yoki katta yoshdagisi yaqin qarindoshi, pedagog yoki jabrlanuvchining vakili ishtirokida ularning roziligi bilan o‘tkaziladi. Ko‘rsa-

tilgan shaxslar so‘roq qiluvchining ruxsati bilan guvoh yoki jabrlanuvchiga savollar berishlari mumkin.

Voyaga yetmagan gumon qilinuvchi va ayblanuvchi himoyachi ishtirokida so‘roq qilinadi.

So‘roq qilish chog‘ida surishtiruvchining, tergovchining ruxsati bilan voyaga yetmaganning qonuniy vakili ishtirok etishi mumkin.

Himoyachi va qonuniy vakil gumon qilinuvchiga va ayblanuvchiga savollar berishga haqli. So‘roq oxirida himoyachi va qonuniy vakil bayonnomaga bilan tanishish va u haqda o‘z mulohazalarini bildirishga haqlidir.

### Savol va topshiriqlar



1. Dalillar nima uchun kerak? Isbot qilishning umumiy shartlarini tushuntirib bering.
2. Voyaga yetmaganlarning ishlari bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarni tushuntirib bering?
3. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini so‘roq qilish shartlari nimadan iborat?
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida Farg‘ona qanday munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi?

Z. ismli 14 yoshli shaxs pirotexnika buyumlarini davlat chegarasidan noqonuniy yo‘llar bilan qo‘shni davlatdan olib kirish jarayonida qo‘lga tushdi.

Voyaga yetmagan Z. ismli shaxs Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasidagi Qoplonbek postidan nar-kotik muddasini olib o‘tishda ishtirok etayotganida bojxona xizmatchilarini tomonidan qo‘lga olindi.

Mazkur masala ishtirokchilarining aybini isbotlash uchun qanday harakatlar qilinadi?



Vaqtni «essiz», «qaniydi», «koshkiydi» lar bilan o‘tkazgan kishining umri eng qisqa umr ekan.

### Kubro



Inson ixtiro qilgan vayronkor qurollar orasida so‘z eng xatarli va kuchli qurolligicha qolmoqda.

### Paulo Koelyo

# Mundarija

Kirish.....	4
1-§ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatning huquqiy asosi.....	4

## I bo‘lim. OILA HUQUQI

2-§ Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini .....	8
3-§ Nikoh tuzish tartibi va shartlari.....	14
4-§ Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari .....	19
5-§ Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari .....	23
6-§ Er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi....	27

## II bo‘lim. JINOYAT HUQUQI

7-§ Jinoyat huquqining maqsadi, vazifasi va tamoyillari .....	34
8-§ Jinoyat belgilari .....	39
9-§ Jinoiy javobgarlik va jazo tizimi.....	44
10-11-§ Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar .....	51
12-§ Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar .....	62
13-§ Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar.....	68
14-§ Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar.....	74
15-§ Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar .....	81
16-§ Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar.....	86
17-§ Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar.....	89

### **III bo'lim. MOLIYA HUQUQI**

18-§ O'zbekistonda moliya-kredit tizimi .....	95
19-§ Moliyaviy-huquqiy munosabatlar .....	99
20-§ O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va byudjet huquqi.....	104
21-§ Davlat daromadlarini huquqiy tartibga solish....	109
22-§ Davlat kreditining huquqiy asoslari.....	115

### **IV bo'lim. EKOLOGIYA HUQUQI**

23-§ Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari...	118
24-§ Ekologik huquqbuzarlik uchun javobgarlik.....	122

### **V bo'lim. PROTSESSUAL HUQUQ**

25-26-§ Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari .....	127
27-§ Jinoyat protsessi ishtirokchilari.....	132
28-§ Jinoyat protsessual qonunchilikda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar.....	136

*O‘quv nashri*

**Nargiza Kamaritdinovna ISMATOVA,  
Omina Abduraxmanovna KARIMOVA**

## **«DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI»**

O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi  
va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun darslik

*(O‘zbek tilida)*

*Birinchi nashr*

Toshkent – Yangiyul Poligraph Service – 2018

Nashriyot litsenziyasi AI №185, 10. 05. 2011 y.

Muharrir – J. Azimov  
Texnik muharrir – M. Riksiyev  
Musahhih – A. Toshpo‘latov

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 18. 06. 2018.  
Bichimi 70x90  $\frac{1}{16}$ . «Times New Roman» garniturasi. Ofset qog‘ozi.  
Ofset bosma usulda bosildi.  
Bosma tabog‘i 9,0. Sh. b. t. 10,53.  
Nusxasi 428121.  
Buyurtma № 4915.

«Yangiyul Poligraph Service» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
112001, Toshkent viloyati, Yangiyo‘l shahri, Samarqand ko‘chasi, 44-uy.

## Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari- ning imzosi	Darslikning topshiril- gandagi holati	Sinf rahbari- ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

**Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda  
yuqoridagi jadval sind rahbari tomonidan quyidagi baholash  
mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning bиринчи маротаба фойдаланишга берилгандаги холати.
Yaxshi	Mуqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Mуqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Mуqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismdan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.